

COBALT

**Avtomobildan
foydalanish qo'llanmasi**

ALBATTA FAQAT OKTAN SONI 91 BO'LGAN ETILLASHTIRILMAGAN YONILG'IDAN FOYDALANING!



Ushbu avtomobilning dvigateli avtomobilarni ishlab chiqish sohasida oxirgi yutuqlarga muvofiq loyihalashtirilgan va yasalgan.

Bu tejamkor, texnik takomillashtirilgan va atrof muhitni muhofaza qilish talablariga javob beradigan modeldir.

Dvigatelning tegishlicha ishlashi uchun faqat oktan soni 91 dan kam bo'limgan etillashtirilmagan yuqori sifatli yonilg'idan foydalanish lozim.

«AVTOBONI HAYDASH VA BOSHQARISH - Yonilg'i» bobiga, 8-22 betiga qarang.

Yonilg'ining boshqa turlaridan foydalanish avtomobilning foydalanish xususiyatlarining yomonlashuviga olib kelishi va kafolatning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin!

KIRISH SO'ZI

Mazkur Qo'llanma avtomobil egasini «UzAuto MOTORS» AJ da ishlab chiqarilgan avtomobilning tuzilishi, ishlashi va unga texnik xizmat ko'rsatilishi bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma avtombildan xavfsiz va uzoq muddatli foydalanish qoidalari haqidagi muhim axborotni o'z ichiga oladi. Biz Sizga mazkur Qo'llanmani diqqat bilan o'rganib chiqib, unda keltirilgan barcha tavsiyalarga amal qilishni qat'iy ravishda maslahat qilamiz. Chunki bu umuman avtomobilning, uning agregatlari va tizimlarining butun xizmat qilish muddati davomida xavfsiz, ishonchli xizmat qilishini ta'minlaydi.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalariga murojaat qilishni tavsiya etamiz, ularning malakali xodimlari va texnologik jihoz-uskunalarini barcha texnik xizmat ko'rsatish amallarining tegishli darajada bajarilishini ta'minlay oladi. «UzAuto MOTORS» AJ tomonidan vakolatlangan servis stansiyalarida Siz o'zingizga va avtombilingizga o'ta e'tiborli va qiziquvchan munosabatning guvohi bo'lasiz.

Shuningdek, paytdan foydalanib, tanlovingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz.
«UzAuto MOTORS» AJ keyinchalik ham tanlovingizni oqlash uchun nimaiki mumkin bo'lsa, barcha ishlarni bajarishga intiladi.

Mazkur Qo'llanmani avtomobilning ichida, agar unga zarurat tug'iladigan bo'lsa, u doimo qo'lingiz yonida bo'ladigan qilib saqlashni tavsiya etamiz. Avtomobilni sotayotganingizda Qo'llanmani uning yangi egasiga berishni unutmang!



AVTOMOBILINGIZ MA'LUMOTLARI

Yonilg'i

Tamg'alanishi

Dvigatelning moyi

Rusumi

Quyishqoqligi

Shinalarda havo bosimi

Shinalarning o'lchami

Oldingi

Orqa

Vazni

Avtomobilning to'liq massasi

- Jihozlangan massasi, bazaviy modeli

= Yuklash

AVTOMOBIL EGASINING DIQQATIGA

Avtomobilning texnik ma'lumotlari

Sizning avtomobilingizning ma'lumotlarini oson topish mumkin bo'lishi uchun, ularni avvalgi betda kriting. Ushbu ma'lumotni «Texnik xizmat ko'rsatish» va «Texnik ma'lumot» bo'limlarida, shuningdek avtomobilning pasport jadvalchasiда topish mumkin.

Kirish

Sizning avtomobilingizda uning xavfsizligini, ekologik xususiyatlarini va tejamkorligini ta'minlaydigan ilg'or texnologiyalar optimal tarzda umumlashgan.


Mazkur Foydalanuvchining Qo'llanmasida Sizning avtomobilingizdan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan barcha axborot bor.

Agar nazorat indikatori  asboblar birikmasida boshqa nazorat indikatori bilan bir vaqtda paydo bo'lsa, ushbu Foydalanish Qo'llanmasiga murojaat qilish lozim.

Sizdan tashqari, yo'lchilar ham avtomobildan noto'g'ri foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar va jarohatlar haqida bilishi lozim. Ularga bu haqida gapirib bering.

Albatta Siz bo'lgan davlatning amal qilayotgan qonunlari va qoidalariga rioya qiling. Tegishli qonunchilik mazkur Qo'llanmada keltirilgan axborotdan farq

qilishi mumkin. Barcha vakolatlangan servis markazlarda tasdiqlangan yo'll-yo'riqlar bo'yicha ishlaydigan malakali mutaxassislar tomonidan yuqori sifatli xizmat ko'rsatish taqdim etiladi. Mijoz uchun hujjatlar to'plami doimo avtomobilda, qo'l ostida bo'lishi lozim. U qo'lqop yashigida turishi kerak.



Ushbu qo'llanmadan foydalanish

- Mazkur qo'llanmada ushbu model uchun mumkin bo'lgan barcha opsiyalar va funksiyalarning ta'rifi keltirilgan.

Ba'zi ta'riflari, shu jumladan display va menyu funksiyalari, modelning tanlangan turi, texnik xususiyatlari, yetkazib berish davlati, maxsus uskuna yoki anjomlarning borligi sababli Sizning avtomobilingizga mos kelmasligi mumkin.

- Uskunalar va bezak darajasidagi farqlar tufayli avtomobilda avtomobil radiosи, CD pleyer va orqa ko'rish kamerasi bo'lmasligi mumkin.
- Ma'lumotning joylashuvi Qo'llanmaning boshida va har bir bobning boshida Mundarijalarda keltirilgan.
- Ushbu Foydalanish Qo'llanmasida ishlab chiqaruvchining belgilanishlari ishlatalidi, ularni «Texnik ma'lumot» bo'limida topish mumkin.
- Yo'nalish yuzasidan ko'rsatmalar, masalan, chapga - o'ngga yoki oldinga – orqaga, doimo harakat yo'nalishiga nisbatan keltiriladi.
- Avtomobilning ekran displaylari foydalanuvchining muayyan tilini qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.
- Displayda aks ettiriladigan xabarlar, shuningdek salonning ichidagi yozuvlar **qalin** harflar bilan yoziladi.

AVTOMOBIL EGASI DIQQATIGA

XAVFLI, OGHLANTIRISH VA DIQQAT

⚠ XAVFLI

⚠ «XAVFLI» belgisi bilan belgilangan matnda, o'lim xavfi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumot bor.
Ushbu ogohlantirishga e'tibor bermaslik hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin.

⚠ OGHLANTIRISH

⚠ «OGHLANTIRISH» belgisi bilan belgilangan matnda, baxtsiz hodisa yoki tan jarohatini olish xavfi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumot bor.
Ushbu ogohlantirishga e'tibor bermaslik jarohat yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

«DIQQAT» belgisi bilan belgilangan matnda, avtomobil shikastlanishi mumkinligi haqidagi ma'lumot bor.
Ushbu ogohlantirishga e'tibor bermaslik avtomobilning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin.



Tan jarohati yoki avtomobil shikastlanishiga olib keluvchi taqiqlangan harakatlar ushbu belgi bilan belgilanadi.

Belgilar

Ma'lum betga havolalar ⇨ bilan belgilanadi.
⇨ “betga qarang” degan ma'noni bildiradi.

«AVTOMOBIL NI HAYDASH VA BOSHQARISH - Yonilg'i» bobiga, 8-22 betidagi bo'limidagi ishlataladigan yonilg'inining turiga alohida e'tibor bering.

Sizga oq yo'l tilaymiz.

Chevrolet

MUNDARIJA

1. Kalitlar, eshiklar va oynalar	1-1
2. O'rindiqlar, himoyalash tizimlari	2-1
3. Buyumlarni saqlash uchun joylar	3-1
4. Boshqarish asboblari va vositalari	4-1
5. Yoritish	5-1
6. Axborot-ko'ngilochar tizimi	6-1
7. Iqlimni nazorat qilishni boshqarish organlari	7-1
8. Avtomobilni haydash va boshqarish	8-1
9. Avtomobilni parvarish qilish	9-1
10. Servis va texnik xizmat ko'rsatish	10-1
11. Texnik ma'lumot	11-1

1

KALITLAR, ESHIKLAR VA OYNALAR

-
- KALITLAR VA QULFLAR 1-2
 - ESHIKLAR 1-7
 - AVTOMOBILNI HIMOYALASH 1-8
 - TASHQI KO'ZGULAR 1-10
 - ICHKI KO'ZGULAR 1-11
 - OYNALAR 1-12
 - ESLATMALAR 1-14

KALITLAR VA QULFLAR

Kalitlar

Kalitlarni almashtirish

Kalitning mexanik kodi yechib olinadigan tegda ko'ssatilgan.

Har bir avtomobilning mana shunday o'z kodi bo'ladi va o'rnini bosuvchi kalitlarni aniqlash uchun ushbu kod zarur bo'ladi.

Taxlanuvchan profilli kalit (agar bo'lsa)



Kalitni chiqarish uchun shu tugmani bosing. Kalitni qaytib joyiga kirgizish uchun shu tugmani bosing, so'ng kalitni dastlabki holatiga burang.

XAVFLI

Agar avtomobil salonda bolalar qarovsiz qoldirilgan bo'lsa kalitni o't oldirish qulfida yoki salonda qoldirmang.

Bunday mas'uliyatsizlik bolalar va atrofdagilarning hayotiga xavf tug'diruvchi vaziyatlarga olib kelishi mumkin.

Kalit avtomobiling ko'p funksiyalarini boshqarish imkonini beradi, jumladan, avtomobilni harakatga keltirishni ham.

Masofadan boshqarish radiobrelogi (Agar mavjud bo'lsa)



Quyidagi larni boshqarishda foydalilanadi:

- Markaziy qulf tizimi.
- O'g'rilikdan himoya signalizatsiyasida
- Yukkona eshibi.

Radioaloqa orqali masofadan boshqarish tizimi taxminan 20 metrlik radiusda ishlaydi. Ushbu ishchi radiusiga tashqi ta'sirlar ta'sir etishi mumkin.

Avariya chiroqlari ushbu tizim ishlayotganligini tasdiqlaydi.

Avaylab ishlating, namlik va yuqori harorat ta'siridan saqlang va bexosdan ishlatib yuborishdan saqlaning.

Radioaloqali masofadan boshqarish pulti o't oldirish tizimiga tijqigan bo'lsa ishlamaydi, bu masofadan boshqarish pultining bexosdan faollashtirib yuborilishini oldini olish uchundir.

Nosozlik

Agar radioaloqali masofadan boshqarish pulti yordamida markaziy qulf tizimini ishlatib bo'lmasa, bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Pult amal qiladigan radiusdan chiqilganda.
- Batareya kuchlanishi juda past bo'lsa.
- Masofadan boshqarish pulti ishchi radiusdan tashqarida bo'la turib u ko'p marta, takror ishlatilganda, bu holatda qayta sinxronlash talab etiladi.
- Pultni o'ta qisqa vaqt oralig'iда ishlatish natijasida markaziy qulf tizimiga ortiqcha yuklama tushganda, quvvat ta'minoti qisqa vaqt uzilib qolganda.
- Boshqa manbalardan yuqori quvvatli radio to'lqinlar ta'sir etganda.

Mexanik eshik quflari ⇨ 1-4 ga qarang.

Radioaloqali masofadan boshqarish pulti batareyasini almashtirish


Pultning ta'sir radius qisqarishi bilan batareyasini almashtiring.

Batareyalarни maxsus chiqindi toplash punktlariga tashlang.


Masofadan boshqarish pulti batareyasini almashtirish

Batareyalar maishiy chiqindiga kirmaydi. Ularni maxsus chiqindi toplash punktlariga tashlang.

Almashtirish uchun:



1. Yassi uchli otvertkani pultning o'yiq tirqishchaga taping va pultning orqa qopqog'ini ajrating.



2. Juda kichik otvertkani belgi ko'rsatilgan joyga tijib batareyani oling, rasmsa qarang.
3. Batareyani almashtiring.
- CR 2032 yoki shunday texnik tavsifdag'i batareya bilan almashtiring. O'rnatish vaqtida batareya joylashuviga e'tibor bering, musbat tomoni tepaga qaragan bo'ladi.
4. Pult orqa qopqog'ini qaytib o'rnating va qopqoqni bosib joyiga o'mashtiring.
5. Signal uzatkich ishlayotganligini avtomobilingizda tekshirib ko'ring.

 **DIQQAT!**

Batareyaning yassi yuzasiga barmoqni tekkizmang, zero bu uning xizmat ko'rsatish davrini qisqartiradi.

Eslatma

Foydalilanigan litiyli batareyalar atrof-muhitga ziyon yetkazadi. Ularni chiqindiga tashlashda qayta ishlanadigan chiqindilarni tashlashga oid mahally qonurlarga amal qiling. Ularni maishiy chiqindilar bilan birga tashlamang.

Eslatma

Signal uzatuvchi to'g'ri ishlashi uchun quyidagi yo'riqlarga amal qiling.

- Signal uzatuvchini tushirib yubormang.
- Signal uzatuvchi ustiga og'ir jismalarni qo'y mang.
- Signal uzatuvchini suv va oftobdan uzoqda saqlang. Agar signal uzatuvchi ho'l bo'lsa, uni yumshoq latta bilan arting.

Mexanik eshik quflari

Ichkaridan quflab qo'yish



Tegishli eshik bandini ichkaridan bosing. Eshiklar quflanadi. Haydovchi eshigi va old yo'lovchi eshigini faqat u yopilganidan keyin quflash mumkin. Bu orqali kalitni avtomobilda unutib qoldirish ehtimoli oldi olinadi.

Tashqaridan qulflash

Kalitni soat mili yo'nalishiga teskari burang. Haydovchi eshigi qulflanadi. Avtomobilni tark etishdan oldin boshqa eshiklar qulflanganligiga ishonch hosil qiling.

Qulfdan ochish

Kalitni soat mili yo'nalishi bo'yicha burang.

Markaziy qulf tizimi

Barcha eshiklarni qulfdan ochadi va qulflaydi. Eshik ichki tomonidagi richagchani tortsangiz, eshik qulfdan bo'shatiladi va ochiladi.

Qulfdan ochish**Radioaloqali masofadan boshqarish pulti**

tugmani bosing.

Standart holat sifatida barcha eshiklar qulfdan ochiladi va avariya chiroqlari ikki marta qisqa yonib o'chadi.

tugmani bir marta bosish orqali faqat haydovchi eshigini va tugmani ikki marta bosgan holda qolgan boshqa eshiklarni va yukxonani ochish mumkin. Sozlamalarni axborot-ko'ngilochar menyuda o'zgartirish mumkin.

Qulflash**Radioaloqali masofadan boshqarish pulti**

tugmani bosing.

Quflanganda, standart holatda barcha eshiklar, shu jumladan yukxona ham qulflanadi va avariya chiroqlari bir marta qisqa yonib o'chadi. Agar haydovchi yoki yo'lovchilar eshigi yaxshi yopilmagan bo'lsa, eshik qulfi ishlamaydi.

Yuxonani qulfdan ochish



Qulfdan ochish uchun tugmani ikki marta bosing. Yuxona eshigi qulfdan bo'shaydi va ochiladi, ammo qolgan barcha eshiklar qulflangan holda qoladi. Avariya chiroqlari ikki marta qisqa yonib o'chadi.

Markaziy qulf tugmalarli

Barcha eshiklarni qulflaydi va qulfdan ochadi



Quiflash uchun tugmani bosing.
Qulfdan ochish uchun tugmani bosing.

Avtomatik eshik qulflari

Avtomatik qulfdan ochish

Bu funksiya eshiklarni qulfdan ochadi, qachonki:

-Avtomobilni haydarbo'lqandan keyin kalitni o't oldirish qulfidan olgandan so'ng (uzatmalar qutisi mexanik bo'lgan avtomobillar uchun);

- Avtomobilni haydarbo'lqandan keyin uzatmalarini almashtlab qo'shish dastagi "P" holatiga o'rnatilgandan so'ng (uzatmalar qutisi avtomatik bo'lgan avtomobillar uchun).

Sukut bo'yicha sozlamada bu funksiya o'chirilgan bo'ladi.

Axborot-ko'ngil ochar tizim menyusi orqali sozlamalarni o'zgartirish mumkin.

Axborot-ko'ngilochar tizimi ⇨ 6-2 bo'limiga qarang.

Eshiklarning avtomatik tarzda qayta qulflanishi

Agar hech bir eshik ochiq bo'lmasa yoki o't oldirish kaliti 1 yoki 2 holatiga buralmagan bo'lsa, masofadan boshqarish pulsidan qulfdan ochish buyrug'i berilgandan keyin bir necha daqiqa o'tgach barcha eshiklar avtomatik tarzda qayta qulflanadi.

O't oldirish qulfidan kalit holatlari ⇨ 8-12 bo'limiga qarang.

Sukut bo'yicha sozlamada bu funksiya o'chirilgan bo'ladi. Axborot-ko'ngil ochar tizim menyusi orqali sozlamalarni o'zgartirish mumkin.

Axborot-ko'ngilochar tizimi ⇨ 6-2 bo'limiga qarang.

ESHIKLAR

Blokirovka himoyasi

Bolalar uchun qulflarni blokirovka qilib qo'yish



⚠️ OGOLANTIRISH!

Agar orqa o'rindiplarda bolalar bo'lса, doim bolalardan blokirovkalash funksiyasidan foydalaning.

Bolalardan blokirovkalashni faollashtirish uchun dastakni strelka yo'nalishi tomon itaring. Eshiklar ichkaridan ochilmaydigan bo'ladi.

Bolalardan blokirovkalashni bekor qilish uchun dastakni strelka yo'nalishiga teskari tomonga itaring. Eshiklar ichkaridan ochiladigan bo'ladi.

Yukxona bo'lmasi

Ochish

⚠️ OGOLANTIRISH!

Yukxona eshigi to'liq yoki qisman ochilgan holatda avtomobil bilan harakatlanish mumkin emas, masalan, katta o'lchamdagи yuklarni tashiganda, chunki bu holatda zaharli ishlangan gazlar salonga kirishi mumkin.

⚠️ DIQQAT!

Yukxona eshigiga zarar yetishiga yo'l qo'ymaslik uchun uni ochishdan oldin tepada to'siqilar (masalan, garaj darvozasi) yo'qligiga ishonch hosil qiling. Doim yukxona eshigi tepasida va ortida to'siqilar yo'qligini tekshiring.

Eslatma

Yukxona eshigiga ayrim og'ir akses-suarlarni o'rnatish yukxona eshigining ochiq holatda turishiga salbiy ta'sir etishi mumkin.



Yukxona eshigini qulfdan ochish uchun kalitni qulf teshigiga tiqing va uni soat mili yo'nalishida burang yoki radioaloqali masofadan boshqarish pultidagi ⚡ tugmani ikki marta bosing. Masofadan boshqarish radiobrelogi (Agar mavjud bo'lса) ⚡ 1-2 ga qarang.

AVTOMOBILNI HIMOYALASH



Yukxona eshigi ko'tarilib ochiladi.

Yopish

DIQQAT!

Yukxona eshigi yopiladigan joydan qo'lingizni oling va uzoqroq turing, atrofdagi boshqalar ham shunday qilishini nazorat qiling.

Yukxona eshigini yopish uchun uni pastga torting va ohista bosib mahkam yoping.

O'g'rilikka qarshi signalizatsiya tizimi

O'g'rilikdan himoyalovchi signalizatsiya quyidagilarni nazorat qiladi:

- Eshiklar.
- Yukxona eshigi.
- Kapot.
- O't oldirish tizimi.

Faollashtirish



O'g'rilikdan himoyalovchi signalizatsiya radioaloqali masofadan boshqarish pulti yordamida faollashtiriladi.

- Avtomobilni quflagandan so'ng, 30 soniya ichida avtomatik tarzda (tizim ishga tushadi).
- tugmani ikki marta bosish orqali.

Eslatma

Agar eshik ochiq bo'lса, o'g'rilikdan himoyalovchi signalizatsiyani faollashtirib bo'lmaydi.

DIQQAT!

O'g'rilikka qarshi signalizatsiya to'g'ri ishlashi uchun barcha oynalar yopilganligini ko'zdan kechirishni unutmang.

Holatni ko'rsatuvchi LED indikatori



Holatni ko'rsatuvchi LED indikatori asboblar paneli o'rtasiga yaqin joylashgan markaziy qufl tizimi tugmasida o'rnatilgan.

O'g'rilikdan himoyalovchi signalizatsiya faollashgandan keyingi dastlabki 30 soniya mobaynidagi holat:

LED indikator yonadi : sinov, tizim yoqilishining kechikishi.

LED indikator tez yonib-o'chadi : eshiklar, yukxona yoki kapot yaxshi yopilmagan yoki tizimda nosozlik bor.

Tizim yoqilgandan keyingi holat:

LED indikator sekin yonib-o'chadi : tizim yoqilgan.

Nosozlik kuzatilsa, Chevrolet dilerilar yordam so'rang. системы:

Faolsizlashtirish



■ tugmani bosgan holda avtomobilni qulfdan ochganda, o'g'rilikdan himoyalovchi signalizatsiyasi ham faolsizlashadi.

Ogohlantiruvchi signalizatsiya

Signalizatsiga ishga tushib ketganda, tovushli signal chalinadi va 30 soniya davomida avariya chiroqlari yonib turadi.

Agar biror eshik, yukxona, kapot yoki signalizatsiyani ishga tushiruvchi boshqa biror

manba signalizatsiyani ishga tushirib yuborsa, yopilgandan so'ng faqat 30 soniya o'tgach, xuddishu tovush yana qattiq yangraydi.

Signalizatsiya tovushini radioaloqali masofadan boshqarish pultidagi istalgan tugmani bosish yoki o't oldirish tizimini yoqish orqali o'chirish mumkin.

Avtomatik tarzda signalizatsiyani faolsizlashtirish

Agar masofadan boshqarish pulti yordamida signalizatsiya faolsizlangandan keyin bir nech daqiqa ichida eshiklar ochilmasa yoki o't oldirish kaliti **1** yoki **2** holatga buralmasa, o'g'rilikdan himoyalovchi signalizatsiya tizimi avtomatik ravishda faolsizlanadi.

O't oldirish qulfida kalit holatlari ⇨ 8-12 ga qarang.

Bu funksiya "Avtomatik tarzda eshikni qayta quiflash" funksiyasi bilan bog'igan va sukut bo'yicha bu o'chiq holatda bo'ladi.

Sozlamalarni axborot-ko'ngilochar menyuda o'zgartirish mumkin. Axborot-ko'ngilochar tizimi ⇨ 6-2 ga qarang.

Immobilayzer

Tizim o't oldirish qulfiga o'rnatilgan bo'lib, u foydalanilayotgan kalit yordamida dvigatelni ishga tushirishga ruxsat berilish yoki berilmasligini tekshiradi. Agar u kalit transponderini

tanisa, dvigatelni ishga tushirishga ruxsat beriladi.

Immobilayzer kalit o't oldirish qulfidan olingandan keyin avtomatik tarzda yoqiladi.

Agar o't oldirish tizimi yoqilgan holatida indikator miltillasa yoki yonib tursa, bu tizimida nosozlik borgilini bildiradi va dvigateli ishga tushirish bo'lmaydi. O't oldirish tizimini o'chiring va ishga tushirishga qayta urinib ko'ring.

Agar indikator miltillash yoki yonib turishda davom etsa, zaxira kalit yordamida dvigateli ishga tushirish urinib ko'ring va Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Eslatma

Immobilayzer eshiklar qulfini blokirkvoka qilmaydi. Shu bois, avtomobildan chiqqandan keyin doim avtomobilni quiflash va o'g'rilikka qarshi signalizatsiya tizimini yoqish kerak. Mexanik eshik qulflari ⇨ 1-4 va O'grilikka qarshi signalizatsiya tizimi ⇨ 1-8 bo'limga qarang.

Immobilayzer indikatori ⇨ 4-13 bo'limga qarang.

Eslatma

Ushbu tizim zaxira tizimi sifatida ishlaydi, bu shuni anglatadiki, u zararli ta'sirlardan himoyaga ega emas, hatto xuddi shunday tipdagi stansiyalardan bo'ladijan ta'sirlardan va u asosiy tizim sifatida ishlovchi tizimlarga shovqin yaratma olmaydi.

TASHQI KO'ZGULAR

Qo'lda sozlanadigan ko'zgular



Tutqich yordamida tashqi ko'zguni qo'lingiz bilan sozlang.

Elektr yuritma bilan sozlanadigan ko'zgular



Elektr tizimi orqali ko'zgularni sozlash boshqaruv elementlar haydovchi yon tomonidagi eshikda joylashgan.

Ko'zguni tanlash tugmasi yordamida chap yoki o'ng ko'zguni tanlang va uni to'rt pozitsiyali almashlab ulagich yordamida ko'zguni sozlang.



Piyodalar xavfsizligini ta'minlash uchun tashqi ko'zgularni buklab yig'ishtirib qo'yish mumkin, buklash uchun ko'zuni o'rtacha kuch bilan yengil urish lozim. Ko'zguni odatiy holatiga qaytarish uchun ko'zgu korpusini yengil itaring. Bu funksiya, shuningdek, shunisi bilan ham foydaliki, u avtomobilning umumiy en o'lchamini kamaytiradi va bu parkovka qilish vaqtida shikast yetish ehtimolini kamaytiradi. Avtomobil bilan harakatni boshlashdan oldin ko'zguni odatiy ishchi holatiga qaytaring.

OOGHLANTIRISH!

Ko'zgular doimo to'g'ri holatga sozlangan bo'lsin va avtomobilni haydab ketayotganda atrofdagi avtomobillar va boshqa ob'yektlarni nazardan qochirmsilik uchun doimo ko'zgularidan foydalaning. Ort ni ko'rsatuvchi tashqi ko'zgular buklangan holatida avtomobil bilan harakatlanish mumkin emas.

Haydovchi ko'rish maydonini kattalashtirish uchun ko'zgular yuzasi qavariq qilingan, ammo buning natijasida, ko'zguda aks etgan predmetlar aslidagidan ko'ra uzoqroqda bo'lib ko'rindi. Ko'zguda ko'ringan avtomobillar bilan real oraliq masofani baholashda buni esda tutish lozim. Bundan tashqari, qatorni o'zgartirayotganda, doim ortni ko'rsatuvchi ichki ko'zguga qaragan holda yoki o'zingiz ortga qaragan holda ortdagи vaziratni ko'zdan ko'chiring.

ICHKI KO'ZGULAR

Isitgichli ko'zgular




tugmani bosish orqali yoqiladi yoki o'chiriladi.

Orqa oyna isitgichi yoqilganda, tashqi ko'zgularni isitish ham yoqiladi.

Isitish dvigatel yoqilganda ishlaydi va bir qancha vaqtдан so'ng avtomatik tarzda o'chadi yoki tugmani yana bosish bilan o'chadi.

Bu funksiyadan faqat elektr tizimi orqali sozlanadigan Up Level displeyli avtomobilarda foydalanish mumkin.

Qo'lda sozlanadigan ortni ko'rish ko'zgusi Qo'lda sozlanadigan qorong'ilashtirilgan ko'zgu



Ko'zguni qulay holatga egish orqali uni sozlash mumkin. Ko'z qamashishi xavfini kamaytirish uchun ko'zgu ostidagi dastak holatini o'zgartiriring.

OGohlantirish!

qaytarib ko'tarib qo'yish lozim. Bu shu bilan bog'liqliki, ortni ko'rsatuvchi ichki ko'zgu ikki tekislik bo'ylab buraladi.

Harakatlanayotganda ortni yaxshi ko'ra olmaslik to'qnashuvga olib kelishi va o'zingiz va boshqalar avtomobiliga zarar yetishi va (yoki) insonlar jarohat olishiga olib kelishi mumkin.

OGohlantirish!


Ko'zguni tungi holatga sozlaganda ko'rish aniqligi yomonlashishi mumkin.

Tunda avtomobil haydash uchun sozlangan ortni ko'rsatuvchi ichki oynadan foydalanganda ayniqsa diqqatli bo'lling.

Avtomobil bilan harakatlanishni boshlashdan oldin ortni ko'rsatuvchi ichki ko'zguni sozlash lozim va bunda ofrobdan pana qiluvchi soyabonchani ko'zguga tegmasligi uchun

OYNALAR

Mexanik oyna ko'targichlar



Eshik oynalari tutqichlari yordamida ko'tariladi va tushiriladi.

Elektr oyna ko'targichlar (Agar mavjud bo'lsa)

OGohlantirish!

Elektr oyna ko'targichlardan foydalanganda ehtiyoj bo'ling. Ular ishlayotganda jarohat olish mumkin, ayniqsa, bolalar.

Agar orqa o'rindiqlarda bolalar bo'lsa, oyna ko'targichlar uchun bolalar xavfsizligi tizimini yoqing.

Oynalarni yopayotganda ehtiyoj bo'ling. Biror narsani qisib olmaslik uchun diqqatli bo'ling.

Elektr oyna ko'targichlar ishlaydi

- o'toldirish tizimi yoqilgan bo'lganda.
- o't oldirish tizimi o'chirilganidan keyin 10 daqiqa davomida.

O't oldirish tizimini o'chirgandan so'ng biror eshik ochilsa, oyna ko'targichlar ishlamaydi.



Oynani tushirish yoki ko'tarish uchun tugmani, mos ravishda, itarib bosing yoki torting.

OGohlantirish!

Oynadan bosh, qo'l va boshqa tana a'zolarni chiqarmang, jarohat olishingiz mumkin.

Orqa oynalarni bolalardan blokirovka qilish.



Orqa oynalar oyna ko'targichlari blokirovkasini yoqish uchun tugmasini bosing. Blokirovkanı o'chirish uchun yana tugmani bosing.

Zo'riqtirish

Oynani tez-tez ko'p marta ko'tarib, tushiraverganda, oyna ko'targichlar elektr ta'minoti bir qancha vaqt o'chadi.

Orqa oynani isitish tizimi


tugmani bosish orqali yoqildi yoki o'chiriladi. Isitish dvigatel yoqilganda ishlaydi va bir qancha vaqtidan so'ng avtomatik tarzda o'chadi yoki tugmani yana bosish bilan o'chadi.

Avtomobil tashqi ko'zgularni isitish funksiyasiga ega. Orqa oyna isitgichi yoqilganda, tashqi ko'zgularni isitish funksiyasi ham yoqiladi.

DIQQAT!

Orqa oynani tozalashda o'tkir qurollar yoki abraziv oyna tozalash vositalaridan foydalanmang.

Orqa oynani tozalash yoki orqa oyna atrofida ish bajarganda oynani qirmsalik yoki isitgich simlariga zarar yetkazmaslik uchun ehtiyyotkorlik bilan ishlang.

Oftobdan himoya soyabonchalarli

Yorqin yorug'likdan ko'z qamashishidan saqlanish uchun oftobdan himoyalovchi soyabonchalarini bukib yoki yon tomonga o'tkazib qo'yish mumkin.

Agar oftobdan himoya soyabonchalar ichida ko'zgusi bo'lса, avtomobil harakatlanayotgan vaqtida qopqog'ini yopib qo'yish lozim.

OGOHLANTIRISH!

Oftobdan himoya soyabonchalarini shunday qo'yingki, ular yo'lni, transport vositalarini yoki boshqa ob'yektlarni ko'rishni yopib qo'ymasin.



ESLATMALAR

2

O'RINDIQLAR, HIMOYALASH TIZIMLARI

-
- BOSHQO'YGICHALAR 2-2
 - OLD O'RINDIQLAR 2-3
 - XAVFSIZLIK KAMARLARI 2-5
 - HAVO YOSTIQCHASI TIZIMI 2-8
 - BOLALARNI TUTIB TURISH MOSLAMALARI 2-13
 - ESLATMALAR 2-22

BOSHQO'YGICHALAR


Holati

OGohlantirish!

Faqat bosh qo'ygich to'g'ri holatga sozlangan holatda avtomobilni haydang.

Yechib olingen yoki noto'g'ri rostlangan bosh qo'ygichlar to'qnashuv yuz berganda jiddiy bosh va bo'yin jarohalariga olib kelishi mumkin.


Avtomobilni haydashdan oldin bosh qo'ygichlar to'g'ri holatga rostlanganligiga ishonch hosil qiling.



Bosh qo'ygich yuqori chekkasi yo'llovchi boshining yuqori chekkasi bilan barobar bo'lishi kerak. Agar juda baland bo'yli insonlar uchun buning iloji bo'lmasa, bosh qo'ygichni eng yuqori holatga o'rnatning, past bo'yli insonlar uchun esa eng past holatga o'rnatish lozim.

Old o'rindiqlar bosh qo'ygichlari

Balandlikni rostlash



Bosh qo'ygichni tepaga torting.

Bosh qo'ygichni tushirish uchun fiksator tugmasini bosing va bosh qo'ygichni pastga bosing.

Yechib olish


Bosh qo'ygichni tepaga oxirigacha ko'taring.

Bir vaqtning o'zida fiksator tugmasini bosing.

Bosh qo'ygichni chiqarib oling.

Orqa o'rindiqlar bosh qo'ygichlari

Balandlikni rostlash



Bosh qo'ygichni tepaga torting.

Bosh qo'ygichni tushirish uchun fiksator tugmasini bosing va bosh qo'ygichni pastga bosing.

O'rqa qatordagi o'rta o'rindiqla bosh qo'ygich bo'lmaydi.

Yechib olish

Bosh qo'ygichni tepaga oxirigacha ko'taring.

Bir vaqtning o'zida fiksator tugmasini bosing.

Bosh qo'ygichni chiqarib oling.

OLD O'RINDIQLAR

O'rindiq holati

OGohlantirish!

Faqat o'rindiq to'g'ri rostlangan holatida avtomobil haydang.

XAVFLI

Hech qachon old o'rindiqlar tagiga narsa-buyumlar qo'y mang, chunki o'rindiqlari surgan vaqtida uning mexanik yoki elektron komponentlari shikast yetishi va bu xavfsizlik tizimi samaradorligiga putur yetkazishi yoki uni cheklab qo'yishi mumkin.



18532 T

- Imkon qadar o'rindiq suyanchig'iya yaqin o'tiring. O'rindiq va tepkilarni o'tasidagi masofani shunday rostlangki, tepkilarni

bosganda oyoq biroz bukilgan holatda bo'lsin. Yo'lovchi o'rindig'ini mumkin qadar orqaroqqa suring.

- Yelka imkon qadar o'rindiq suyanchig'iya yaqin bo'lishi kerak. O'rindiq suyanchig'i qiyaligini shunday rostlash kerakki, bunda qol' rul chambaragiga yetishi oson bo'lishi va rul chambaragini ushlaganda qol'llar biroz bukilgan holatda bo'lishi lozim. Rul chambaragini burayotganda yelka o'rindiq suyanchig'i tiralib turishi kerak. O'rindiq suyanchig'i haddan ortiq orqaga qiyalatib yubormang. Qiyalik burchagi taxminan 25° dan oshmasligi tavsija etiladi.
- Rul chambaragini rostlang. Qarang: Rul chambaragini sozlash ⇨ 4-5.
- O'rindiq balandligini shunday rostlangki, hamma tomon va priborlar paneli yaxshi ko'rinsin. Bosh va shift jildi o'tasidagi oraliq kaft si'gadigan o'chamdan kam bo'imasligi kerak. Oyoqningson qismi o'rindiqqa biroz tegib turishi, ammo o'rindiqlari bosib turmasligi kerak.
- Bosh qo'ygichni rostlang. Qarang: Bosh qo'ygichlar ⇨ 2-2.
- Xavfsizlik kamari balandligini rostlang. Qarang: Uch nuqtali xavfsizlik kamari ⇨ 2-6.

O'rindiqlarni sozlash

XAVFLI


Xavfsizlik yostiqchasi xavfsiz tarzda ochilishi uchun rul chambaragidan 25 sm dan kam bo'lмаган узоқликда o'tiring.

Hech qachon har qanday o'chamdag'i va shakldagi predmetlarni old o'rindiqlar tagiga qo'y mang, negaki ular harakatlanuvchi mexanizm, o'rindiq ramasining boshqa qismlari, elektr komponentlar ishlashiga xalaqt qilishi va ushbu komponentlar va xavfsizlik tizimlarining to'g'ri ishlash imkoniyatini pasaytirishi yoki umuman ishlashiga yo'll qo'ymasligi mumkin. Shunda ham, agar old o'rindiqlar tagiga biror predmetni qo'yish zarur bo'lib qolsa, qol' yetishi uchun avval bu o'rindiqlarni butunlay orqaga surish tavsija etiladi.

Qol', barmoqlar, oyoq yoki tananing boshqa qismlarini o'rindiq tagiga qo'ygan holda o'rindiqlari rostlamang, chunki u yerda harakatlantuvchi mexanizm va metal qismlar bo'lib, ular jarohat yetkazishi mumkin.

 XAVFLI

Hech qachon avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtida o'rindiqlarni rostlamang, zero ular bexosdan joyidan silishi mumkin. Har doim o'rindiqnini rostlash kerak bo'lganda, qulay o'tirib oling va o'rindiqni bo'shatish uchun dastakdan yoki agar mavjud bo'lsa, elektr rostlash tugmalardan foydalaning. O'rindiq holatini rostlab bo'lgach, uni oldinga va orqaga surib ko'rgan holda o'rindiq joyiga qotganligiga ishonch hosil qiling. O'rindiqni sozlayotgan vaqtga ehtiyoj bo'ling, yo'lovchi yoki yukka zarb tegmasin. Rostlash mexanizmlari, o'rindiqni quflash mexanizmlari va boshqa metal qismlardan qo'llar, barmoqlar, oyoq va tananining boshqa qismalrini uzoq tuting. Agar old o'rindiqlar pastiga tushib ketgan biror predmetni olish kerak bo'lsa, avval o'rindiqlarni orqaga surilgan holatga o'rnatish tavsiya etiladi.



O'rindiqlar holatini rostlash

Dastakni (1) torting, o'rindiqni suring, so'ng, dastakni qo'yvoring. O'rindiq joyiga qotganligiga ishonch hosil qiling.

O'rindiq suyanchiqlari

Dastakni (3) torting, qiyalikni rostlang va dastakni qo'yvoring. O'rindiq joyiga qotganda qirsillagan tovush chiqadi.

O'rindiq balandligi

Faqat haydovchi o'rindig'i balandligini rostlash mumkin.

O'rindiq balandligini sozlash uchun o'rindiq yostigi' tashqi tomonidagi kallakni (2) burang.

**Isitgichli old o'rindiqlar
(Agar jihozlangan bo'lsa)**

 OGOLANTIRISH!

Agar harorat o'zgarganini yoki teringizda og'riqni sezsa olmasangiz, o'rindiq isitgichi hatto past haroratda ham terini kuydirishi mumkin. Teri kuyish xavfini kamaytirish uchun sezsa olmaydigan bunday insonlar o'rindiq isigichidan foydalanganda ehtoyot bo'lislari lozim, ayniqsa undan uzoq vaqt foydalanganda. Choyshab, yostiqcha, yoping'ich kabi issiqlikni o'tkazmaydigan narsalarni o'rindiqqa qo'ymang. Bu o'rindiq isitgichi qizib ketishiga olib kelishi mumkin. O'rindiq isitgichi qizib ketsa, bu teri kuyishiga olib kelishi yoki o'rindiqqa shikast yetishi mumkin.

XAVFSIZLIK KAMARLARI



Old o'rindiqlari isitgich bilan jihozlangan avtoulovarda isitgichni boshqarish elementlari iqlim boshqaruvi tizimida joylashgan. Boshqarish uchun dvigatel ishlab turgan bo'lishi kerak.

Haydovchi o'rindig'ini isitish uchun ni bosing, yo'lovchi o'rindig'ini isitish uchun ni bosing. Bu funksiya yoniq bo'lganda boshqaruv tizimidagi indikator chiroq'i yonadi. Bu funksiyani o'chirib qo'yish uchun boshqaruv tugmasini yana bosing.

Yo'lovchi o'rindig'ini isitish ko'proq vaqt olishi mumkin.



18533 T

Salonda o'tirgan insonlar xavfsizligi uchun tezlik keskin oshirilayotgan yoki pasaytirilayotgan vaqtida xavfsizlik kamarlari qulflanadi.

XAVFLI

Har gal avtomobil bilan yo'lga chiqishdan oldin xavfsizlik kamarini taqing va harakat vaqtida u mahkamlangan holatda bo'lsin.

Avariya sodir bo'lganda, xavfsizlik kamarini taqmagan insonlar o'zlari va ular bilan birga salonda bo'lgan boshqa insonlar hayotini xavf ostiga qo'yadilar.

Har bir xavfsizlik kamari bir inson uchun mo'ljallangan, bir kamarni birdaniga bir necha kishiga qadash mumkin emas. Xavfsizlik kamari bo'y 150 sm dan past bo'lgan insonlar uchun mo'ljallanmagan. Bo'y 150 sm dan past

bo'lgan insonlar avtomobilga o'tirganda, ular uchun tegishli bolalarni tutib turuvchi tizimdan foydalananish majburiy.

Qarang: Bolalar uchun xavfsizlik tizimlari ⇨ 2-13 Xavfsizlik kamari qismlarida shikast yetganlik alomatlari yo'qligini va ular ishga shay holatdaligini vaqt-i vaqt bilan tekshirib turish zarur.

Shikast yetgan qismlarni almashtirish lozim. Avariya sodir bo'lgandan so'ng, xavfsizlik kamari ishga tushgan kamar taranglagichlarni Chevrolet servis markazida almashtiring.

Eslatma

Kamarlar moyabzal yoki o'tkir predmetlar bilan shikastlanmaganligi va qisilib qolmaganligini tekshiring. Xavfsizlik kamarining totuvchi mexanizmi kirlanishiga yo'l qo'yamang.

Zarur bo'lsa, tashqi qattiq yuzalar va o'rindiq kamari tasmasini yumshoq sovunli suv bilan tozalash mumkin. Mexanizmi haddan tashqari kirlanib ketmaganligiga ishonch hosil qiling. Agar tizimda chang yoki loy bo'lsa, servis markaziga murojaat qiling. Tizim to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun qismlarini almashtirishga to'g'ri kelishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqchasi tizimi bilan jihozlangan avtomobillarda kamarni taranglash kuchini cheklagichlar

Haydovchi o'rindig'ida ular to'qnashuv yuz berган вақтда xavfsizlik kamarini asta-sekin bo'shatgan holda tanaga tushadigan yuklamani kamaytirishni ta'minlaydi.

Xavfsizlik yostiqchasi tizimi bilan jihozlangan avtomobillarda kamarni taranglagichlar ishlash tamoyili

Muayyan kuch bilan old tomon bilan to'qnashganda yoki orqa tomonidan urilganda, haydovchi xavfsizlik kamari taranglashadi.

XAVFLI

Noto'g'ri muomala qilish (masalan, kamarlar yoki kamar quflarini yechish yoki o'natishda) kamar taranglagichlar ishlab ketishiga olib kelishi va buning natijasida jarohat olish xavfi yuzaga keladi.

Kamarni taranglagichlar ishga tushgan bo'lsa, buni ⚡ indikator yongan holda ko'rsatib turadi. Qarang: Havfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamari tarangligi indikatori ↗ 4-11. Ishga tushgan kamar taranglagichlarni Chevrolet servis markazida almashtirish kerak. Kamar taranglagichlar faqat bir marta ishga tushadi, undan keyin ularni yangisiga almashtirish kerak.

Eslatma

Kamar taranglagichlari ishlashiga xalal berishi mumkin bo'lgan akcessuarlar yoki boshqa predmetlardan foydalananmang yoki o'natmang. Kamar taranglagich qismlariga o'zgartirishlar kiritmang, zero bu avtomobilidan foydalinish uchun ruxsatnomaning bekor qilinishiga olib keladi.

Uch nuqtali xavfsizlik kamari

Taqish




Kamarni g'altakdan tortib chigaring, kamarni buramagan holda tanangiz bo'ylab o'tkazib to'g'rilang va lo'kidon tilchasini qulfga tinqing. Avtomobil bilan harakatlanish vaqtida diagonal yo'nalishda o'tgan kamarni tortib taranglagan holda beldan o'tgan kamarning bir xilda tarangligini ta'minlang.



Tanaga bo'sh turadigan yoki beso'naqay kiyimlar kamarni mahkam o'mnashishiga xalal beradi. Kamar va tana orasiga ayollar sumkachasi yoki mobil telefon kabi predmetlarni qo'y mang.

XAVFLI

Kamar kiyimlar cho'ntagida bo'lgan qattiq yoki mo'it predmetlar ustidan o'tkazilmasligi kerak.



Old o'rindiq xavfsizlik kamari tasmasi doim to'g'ri holatda bo'lishini ta'minlang. Xavfsizlik kamari tasmasi noto'g'ri holatda bo'lishi to'qnashuv yuz berganda kamarni taqqan insonni himoyalash samaradorligini pasaytiradi.


Balandlikni rostlash



1. Kamarni sekin torib oling.
2. Tugmani bosing.
3. Balandlikni rostlang va qotiring. Kamar balandligini to'g'ri rostlanganda, u yelkadan o'tishi kerak. Kamar bo'yin yoki bilakka tegmasligi kerak.

XAVFLI

Avtomobil harakatlanib ketayotganda xavfsizlik kamari balandligini rostlamang.



Yechib olish

Kamarni yechish uchun kamar qulfidagi tugmani bosing.

Xavfsizlik kamari avtomatik tarzda o'zining dastlabki holatiga qaytadi. Zarur bo'lsa, kamar to'liq joyiga qaytib yig'ilishi uchun kamar to'qasini tortib, so'ng, qo'yoring.

Xomiladorlik vaqtida xavfsizlik kamariidan foydalanish



⚠️ OGOLANTIRISH!

Qorin pastki qismiga bosim tushmasligi uchun beldan o'tuvchi kamar tos suyagi orqali imkon qadar pastroqdan o'tkazilishi kerak.

Bel xavfsizlik kamari

Orqa markaziy o'rindiqdagi bel kamari

Orqa markaziy o'rindiqning xavfsizlik kamari bel kamaridir. Ushbu kamarning uzunligini sozlash uchun kamar to'qasining tilchasi qopqog'ining ustki tomonini bosing.

HAVO YOSTIQCHASI TIZIMI

Xavfsizlik yostiqchasi tizimi

Xavfsizlik yostiqchasi tizimi bir talay alohida tizimlardan tashkil topgan.

Ishga tushganda, xavfsizlik yostiqchalari millisoniyalar ichida ochiladi. Ularning dami juda tez bo'shab qoladiki, to'qnashuv vaqtida buni ko'pincha payqamay qolasiz.

⚠️ XAVFLI

Noto'g'ri muomala qilinganda, xavfsizlik yostiqchasi tizimi to'satdan ishga tushib ketishi mumkin.

Haydovchi imkon qadar orqaroqqa surilgan holda va shu bilan birga avtomobil ustidan nazoratni saqlagan holda o'tirishi lozim. Xavfsizlik yostiqchasiga yaqin o'tirganda, yostiqchasi ochilibketsa, jiddiy jarohat yoki o'limga olib keladigan darajada jarohat olish mumkin.

Har qanday turdagи avariyalarda maksimal xavfsizlikni ta'minlash uchun avtomobilda bo'lgan barcha insonlar, jumladan, haydovchi ham, doim xavfsizlik kamarilarını taqib olgan bo'lishi kerak. Bu orqali avariya sodir bo'lganda, jiddiy jarohat yoki o'limga olib keluvchi jarohat olish xavfi kamayadi. Avtomobil harakatlanib ketayotganda xavfsizlik yostiqchasiga yaqin surilmang yoki unga suyanmang.

Xavfsizlik yostiqchasi ishlab ketganda, yuz yoki tana jarohati, ko'zoynak sinib ketishi oqibatida jarohat olish yoki piropatron portlashi natijasida kuyish holatlari sodir bo'lishi mumkin.

Eslatma

Xavfsizlik yostiqchasi tizimlari va kamar taranglagichlarni boshqarish elektron bloklari konsolning markaziy qismida joylashgan. Bu yerga magnitlangan predmetlarni yaqinlashtirmang.

Xavfsizlik yostiqchasini qoplab turuvchi panelarga begona predmetlarni yopishtrimang va ularni boshqa predmetlar bilan yopib qo'y mang.

Har bir xavfsizlik yostiqchasi bir marta ishga tushadi. Ishga tushgan xavfsizlik yostiqchalarini Chevrolet servis markazida almashtiring.

Xavfsizlik yostiqchasi tizimiga o'zgartirishlar kiritmang, zero bu avtomobildan foydalinish uchun ruxsatnomaning bekor qilinishiga olib keladi.

Rul chambaragi, priborlar paneli, barcha jild va qoplama detallar, eshik zichlamalari, tutqichlar va o'rindiqlarni yechish ishlari Chevrolet servis markazida bajarilishi lozim.

Xavfsizlik yostiqchasi ishga tushganda, undan chiquvchi qaynoq gazlar teri kuyishiga olib kelishiga mumkin.

OGOLANTIRISH!

Xavfsizlik yostiqchasi bilan jihoz-langan old o'rindiqdagi bolalar, go'daklar, xomilador ayollar, keksalar va jismoniy nimjon insonlar o'tirishi taqiqlanadi. Shuningdek, u yerda bolalar avtokreslosini o'rnatish ham taqiqlanadi. Avariya sodir bo'lganda, ochilib ketgan xavfsizlik yostiqchasidan tegadigan zarba yuz jarohati yoki o'limga olib kelishi mumkin.


DIQQAT!

O'nqir-cho'nqir yo'llarda yoki qattiq qoplamlami bo'limgan yo'llar yoki trotuarlardagi predmetlardan avtomobilga zarb tekkanda, xavfsizlik yostiqchasi ishlab ketishi mumkin. Xavfsizlik yostiqchasi bexosdan ishga tushib ketmasligi uchun avtomobillar yurishi uchun mo'ljallanmagan joylardan yurganda sekin harakatlaning.


Qarang: Havfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamari tarangligi indikatori ⇨ 4-11.

Old xavfsizlik yostiqchasi tizimi

Old xavfsizlik yostiqchalari tizimi ikki havo yostiqchasidan tashkil topgan bo'lib, biri rul chambaragida, biri priborlar panelida yo'lovchi tomonida joylashgan. Ushbu yostiqchalar joyini **AIRBAG** (xavfsizlik yostiqchasi) yozuvidan bilib olish mumkin.



Avtomobilning rasmida ko'rsatilgan joylarida ma'lum kuchdagisi zarb tekkanda, old xavfsizlik yostiqchalari ishga tushib ketadi. O't oldirish tizimi yoqilgan bo'lishi kerak.



Old xavfsizlik yostiqchalari qo'shimcha xavfsizlikni ta'minlash moslamasi hisoblanadi va ular old o'rindiqlar xavfsizlik kamarlari bilan birlgilidagi avtomobilni keskin seklinlatish bilan kechadigan old tomon bilan to'qnashuv holati sodir bo'lganda old o'rindiqlardagi yo'llovchilar xavfsizligi darajasini oshiradi. Ularning vazifasi jiddiy jarohatlarni va/yoki o'lim holatlarini oldini olish uchun faqat xavfsizlik kamarlarining o'zi yetarli bo'lmaydigan to'qnashuvlar sodir bo'lganda, bosh va ko'krak qafasining rul chambaragi yoki priborlar paneliga kuchli zarb bilan urilishidan himoya qilishdir. Yo'llovchilarini himoya qilish uchun xavfsizlik kamarlarini o'zi kifoya qiladigan unchalik kuchli bo'limgan old tomon to'qnashuvlarida xavfsizlik yostiqchalari tizimi ishga tushmaydi. Yon tomondan urilish,

orqadan urilish holatlarda, avtomobil ag'darilganda va avtomobil surib yuborilganda va oldinga kechli tezlashish kuzatiladigan boshqa vaziyatlarda old xavfsizlik yostiqchalari ishga tushishi nazarda tutilmaydi. Shuni qayd etib o'tish muhimki, avtomobil tezligi va avtomobilda bo'lgan insonlarga ta'sir etuvchi sekinlashish xavfsizlik yostiqchasingin ishga tushishini belgilab beruvchi omillar hisoblanadi. Tizimning ishga tushishini elektron modul boshqaradi.

Priotexnik patronlarni o't oldirish buyrug'i xavfsizlik yostiqchasi ochilishga olib keladi va ochilgan yostiqcha old o'rindiqlarda o'tirgan insonlar rul chambaragini va priborlar paneliga borib urilgandagi zarbani yumshatadi.

Xavfsizlik yostiqchalari ochilganda priotexnik patron chiqaradigan tovush inson eshitish qobiliyati uchun xavfli emas.

OGOLANTIRISH!

Faqat o'rindiq to'g'ri holatga o'rnatilgan bo'lsagina optimal himoya ta'minlanadi. O'rindiq holati ⇨ 2-3 bo'limidagi O'rindiq holatiga qarang.

Xavfsizlik yostiqchasi ochiladigan joylarda hech qanday to'siqlar bo'lmasligi kerak.

Xavfsizlik kamarini to'g'ri o'rnatning va ishonchli mahkamlang. Faqat shundagina xavfsizlik yostiqchasi himoyasiga umid qilish mumkin.

Muhim tavsiyalar


- Priborlar paneliga oyoq qo'y mang. Bu avariya sodir bo'lganda jarohat olish yoki o'lim holatlari xavfini sezilarli oshiradi.
- Hech qachon xavfsizlik yostiqchasi va old o'rindiqla o'tirgan inson o'rtasida hech qanday predmetlarni saqlanamang, zero xavfsizlik yostiqchasi ochilganda bunday predmetlar o'tirgan insonga otilishi va jarohatga sabab bo'lishi mumkin.
- Rul chambaragi yoki priborlar paneliga qandaydir nooriginal aksessuarlarni o'rnatmang, negak ular xavfsizlik yostiqchasi ochilishiga to'sqinlik qilishi va tizim ishlashini izdan chiqarishi yoki ular yo'llovchilar tomoniga otilib ketib, ularni jarohatlashi mumkin.
- Xavfsizlik yostiqchasi qismlariga o'zgartirishlar kiritish taqilanganadi. Noto'g'ri muomala qilinsa, xavfsizlik yostiqchasi bexosdan ishga tushib ketib, haydovchi va old o'rindiqdagi yo'llovchiga jarohat yetkazishi mumkin.
- Xavfsizlik yostiqchasinи boshqaruvchi elektron tizim old konsolda joylashgan. Uning ishlamay qolishini oldini olish uchun konsolga magnit predmetlarni qo'y mang.
- Avtomobilni suv bosganda, Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

- Rul chamaragi va piborlar panelini ochish ishlari faqat Chevrolet servis markazida bajarilishi lozim.
- Xavfsizlik yostiqchasi faqat bir marta ishga tushishga mo'ljallangan. Ishga tushgan xavfsizlik yostiqchasi darhol Chevrolet servis markazida yangisiga almashtiring.
- Avtomobil bilan harakatlanish vaqtida og'zingiga hech qanday predmetni saqlamang. Bu talabga amal qilmaslik xavfsizlik yostiqchasiga ishga tushib ketganda jiddiy jarohat yoki o'lim xavfini sezilarli oshiriadi.
- Avtomobilni yangi egasiga topshirayotganda unga avtomobil xavfsizlik yostiqchasi bilan jihozlanganligini va ushu q'llanmada beyon qilinganyo'riqlarni o'qib chiqib, ularga amal qilish kerakligini ma'lum qiling.
- Hali ishga tushmagan xavfsizlik yostiqchasi bo'lgan avtomobil qismalarini ochish juda xavfli bo'lishi mumkin. Avtomobilni utilizatsiya qilayotganda, yordam uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Xavfsizlik yostiqchasi bilan jihozlangan avtomobil yo'lovchi o'rindig'iga bolalarni tutib turuvchi moslama o'rnatish

Xavfsizlik yostiqchasi bilan jihozlangan avtomobilarning piborlar paneli yon tomonidagi **AIRBAG** (xavfsizlik yostiqchasi) yozuvni tushirilgan yorliqdan bilib olish mumkin. Yo'lovchi eshibi ochilganda shu yorliqqa ko'zingiz tushadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!
Agar avtomobil old yo'lovchi o'rindig'i xavfsizlik yostiqchasi bilan jihozlangan bo'lsa, old o'rindiqa bolalarni tutib turuvchi moslama o'rnatish taqilqanadi.



⚠ OGOHLANTIRISH!
Avtomobilingiz konstruksiyasi shunday yaratilganki, u salondagi barcha insonlarning xavfsizligini to'liq ta'minlashni ko'zdatta tutadi.
Shu bois, avtomobil yig'ilganda ayrim qismalarning mahkamlash materiallari maxsus kimyoviy tarkiblari bilan qotirilgan. Bunday mahkamlash materiallarini faqat original va almashtirilayotgani bilan bir xil ehtiyoj qism raqamidagi mahkamlash elementlari bilan almashtirish lozim.

⚠ OGOHLANTIRISH!
Bundan tashqari, mahkamlash elementlарining yaxshi tortilb qotirilishi va ularning qotiruvchi kimyoviy tarkib bilan kimyoviy va fizik tomonlama samarali o'zarot sirlanishini ta'minlash uchun mahkamlash element bilan biriktirilgan detallarni samarali tarzda tozalash ham juda va juda muhim.

Shunga ko'ra, avtomobil xavfsizligi bilan bog'liq tizimlarga (tormozlar, o'rindiqlar, osma, xavfsizlik kamari va hokazo), shuningdek, ushu tizimlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tizimlarga texnik xizmat ko'rsatishni faqat Chevrolet servis markazlarida amalga oshirishni qat'iy tavsiya etamiz. Batafsil ma'lumot uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

"Airbag" (xavfsizlik yostiqchasi) tizimi bilan jihozlangan avtomobilarda xavfsizlik yostiqchasi, xavfsizlik kamari, bumper to'sinlari, elektron bloklar kabi alohida komponentlar mavjud bo'lib ularni faqat original va zavodda o'rnatilgani bilan bir xil turdagi ehtiyoj qismalar bilan almashtirish lozim.

⚠ OGOHLANTIRISH!
Xavfsizlik yostiqchasi bilan jihozlangan avtomobilga old himoya moslamasi (qaytarqich) o'rnatish mumkin emas. Bu moslama xavfsizlik yostiqchasi tizimi ishlashiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Havo yostiqchasini yoqish-o'chirish tugmasi (Agar mavjud bo'sa)

Agar old haydovchi o'rindig'iga bolalarni ushlab turuvchi tizim o'natalingan bo'sa, old yo'lovchi o'rindig'i havo yostiqchasi tizimini faolsizlashtirib qo'yish kerak.

Xavfsizlik kamari taranglagichlari va barcha haydovchi havo yostiqchasi tizimlari faol holatda qoladi.



Old yo'lovchi havo yostiqchasi tizimini priborlar paneli o'ng tomonidagi kalit bilan boshqariladigan tugma orqali faolsizlashtirish mumkin.

O't oldirish kaliti yordami quyidagi holatni tanlang:

♂ : old yo'lovchi havo yostiqchalari faolsizlanadi va to'qnashuv sodir bo'lganda ochilmaydi. Boshqaruv indikatori **♂** uzlusiz yonadi. Bolalarni ushlab turuvchi o'rindiq tizimini Bolalarni tutib turuvchi moslamalar o'natalidigan joylar


⇒ 2-13 da bayon qilingan joylar ro'yxatida keltirilgan joylarda o'matishingiz mumkin. Agar ushbu boshqaruv indikatori o'chiq bo'sa, kattalarning old yo'lovchi o'rindig'iga o'tirishi mumkin emas.

♂ : old yo'lovchi havo yostiqchalari faol. Bolalarni ushlab turuvchi o'rindiq tizimini o'namatmaslik kerak.

XAVFLI

Old yo'lovchi havo yostiqchasinini faollashtirgan holda bolarni ushlab turuvchi o'rindiq tizimida u yerga joylashtirish oqibati o'limg bilan tugashi mumkin.

Old yo'lovchi havo yostiqchasinini faollashtirmagan holda u yerga kattalar o'tirishining oqibati ham o'limg bilan tugashi mumkin.



Agar **♂** boshqaruv indikatori yonmagan bo'sa, old yo'lovchi o'rindig'i havo yostiqchalari o'qnashuv bo'lganda ochilib ketadi.

Agar har ikki boshqaruv indikatorlari bir vaqtda yonsa, tizimda nosozlik bor. Bu holatda tizim holati qanday ekanligini ma'lum emas, shu bois, old yo'lovchi o'rindig'iga o'tirish mumkin emas. Darhol dilerga murojaat qiling.

Agar ikki boshqaruv indikatorlaridan birortasi ishlamasda, dardol dilerga murojaat qiling.

O't olditish tizimi o'chiq holda bo'lib avtoulov to'xtagan bo'lgandagina holatni o'zgartiring. Holat keyingi o'zgarishgacha qo'ladi.

Qarang: Havo yostiqchasi yoniq yoki o'chiqligini ko'ssatuvchi chiroq (Agar mavjud bo'sa) ⇒ 4-11.

BOLALARNI TUTIB TURISH MOSLAMALARI

Bolalar uchun xavfsizlik tizimlari

Bolalar uchun tutib turuvchi tizim

Bolalar uchun tutib turuvchi tizimni mahkamlash uchun eng qulay joy orqa o'rindiqlardir.

Go'daklar va bolalar ushbu qo'llanmada aytilganidek tutib turuvchi tizimlar yordamida avtomobilga xavfsiz o'tqizilishi lozim. Bolalarning beli juda kichik bo'ladi va oddiy xavfsizlik kamari ularni ko'ngildagidek tutib turmaydi. Bu xavfsizlik kamari bolaning qorin bo'shlig'i bo'ylab o'tishi va bevosita uni siqishi va natijada to'qnashuv sodir bo'lganda bola jiddiy jarohat olishi mumkin.

Bolalar uchun tutib turuvchi tizimlar tasnifi

Ma'lumot uchun shuni bilib qo'yingki, sotuvda mavjud bolalar uchun tutib turuvchi tizimlar bola vaznidan kelib chiqib tasniplanadi. Bolalar uchun tutib turuvchi tizimni ishlab chiqargan kompaniya tomonidan ushbu tizimni o'rnatish va udan foydalanishga oid berilgan yo'riqlarga qat'iy amal qiling.

Guruh	Vazn toifasi
Guruh 0	10 kg (22 funt) gacha
Guruh 0+	13 kg (28 funt) gacha
Guruh I	9 - 18 kg (20-39 funt)
Guruh II	15 - 25 kg (34 - 55 funt)
Guruh III	22 - 36 kg (49 - 79 funt)


A



B



C



A) Guruh 0 va 0+ (Go'daklar o'rindig'i)

XAVFLI
Old yo'lovchi xavfsizlik yostiqchasi tizimi yoqilgan o'rindiqlar bolalar o'rindig'i ni qo'yman; aks holda, to'qnashuv yuz berganda, xavfsizlik yostiqchasi bola jiddiy jarohat yetkazishi mumkin, sababi, bolaning boshi ochiladigan xavfsizlik yostiqchasiaga juda yaqin joylashgan bo'ladidi.



B) Guruh I (Bolalar o'rindig'i)

C) Guruh II va III (Qo'shimcha yostiq o'rindiq)

Eslatma

Bolalar uchun tutib turuvchi tizimni to'g'ri tanlash uchun nafaqat bolaning yoshi va vaznini, balki bolaning bioturini ham hisobga olish muhim.

General Motors GM ishlab chiqargan original bolalar uchun tutib turuvchi tizimlaridan foydalanishni tavsiya etadi.



Eslatma

Bolalarni tutib turuvchi moslamani xarid qilishdan oldin uning avtomobilingiz xavfsizlik kamari va o'rindig'iga mos kelishini tekshiring.

⚠ OGOLANTIRISH!

Bolani avtomobilida olib yurganda, mahalliy qonunlarda belgilangan bolalarni transportda olib turishga oid tartibotlarga amal qiling.

Ayrim mamlakatlarda avtomobilning ma'lum o'rindiqlarda bolalar uchun tutib turish tizimlaridan foydalanish man etilgan.

Bolalarni tutib turuvchi moslama to'g'ri o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

⚠ OGOLANTIRISH!

Agar bolalar o'rindig'i to'g'ri mahkamlanmasa, to'qnashuv yuz berganda jarohat olish xavfi ortadi.

Bolalarni tutib turuvchi moslama ustiga boshqa predmetlar yoki materiallarni mahkamlamang yoki qo'y mang.

Avtomobil salonida mahkamlanmagan predmetni qoldirmang. Zard tekkan vaqtida, u predmet salondagi insonlarga jarohat yetkazishi mumkin.

Bolani avtomobildan olgandan so'ng bolani tutib turuvchi moslamani xavfsizlik kamari yordamida mahkamlangan holda qoldiring, bu keskin tormoz bergen vaqtida u moslamaning oldinga otolib ketmasligi uchundir.

Agar bolani tutib turuvchi moslamani orqa o'rindiqa saqlashga zarurat qolmasa, uni avtomobilidan yechib, olib qo'ying.

Baxtsiz hodisa so'dir bo'lgandan keyin bolalarni tutib turuvchi moslamani yangisiga almashtirish kerak, chunki unda ko'z ilg'ammas shikastlar yetgan bo'lishi mumkin.

Eslatma

Bolalarni tutib turuvchi moslama quyidagi talablarga javob berishiga ishonch hosil qiling:

- Moslama uning ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan yo'riqlarga muvofiqligi.
- Moslamada mahalliy qonunlardan kelib chiqqan holda xavfsizlik talablariga javob berishi tasdiqlanganligi haqidagi yorliqning mavjud bo'lishi.
- Moslamaning avtomobilingizga mos kelishi. Doimo bolalarni tutib turuvchi moslamani to'g'ri o'rnatgan holda foydalaning va xavfsizlik kamarini taqing, hatto safar masofasi qisqa bo'lsa ham. Birinchi navbatda, xavfsizlik kamari to'g'ri tortilganligi, kamar buralib qolmaganaligi yoki noto'g'ri o'tkazilmaganligini tekshiring.

Bolalarni tutib turuvchi moslamalar o'rnatiladigan joylar

Bolalar uchun tutib turuvchi moslamani uch nuqtada mahkamlovchi xavfsizlik kamari bilan mahkamlaganda ruxsat etiladigan foydalanish variantlari.

Vazn guruhi	Old yo'lovchi o'rindig'i	Orqa yon o'rindiqlarda	Orqa markaziy o'rindiqda
0: 10 kg gacha	X	U/L ¹	U ¹
0+: 13 kg gacha	X	U/L ¹	U ¹
I : 9 - 18 kg	X	U/L ¹	U ¹
II : 15 - 25 kg	X	U/L ¹	U ¹
III : 22 - 36 kg	X	U/L ¹	U ¹

X: Bu o'rindiqda va vazn guruhida bolalar uchun tutib turuvchi moslamadan foydalanishga ruxsat berilmaydi.

1 : Bolalar uchun tutib turuvchi moslama va old yo'lovchi o'rindig'i o'tasida hech qanday oraliq bo'lmasligini ta'minlash uchun old yo'lovchi o'rindig'ini oxirigacha orqaga suring yoki old yo'lovchi o'rindig'i suyanchig'ini keraklicha vertikal holatga sozlang.

U: Uch nuqtada mahkamlovchi xavfsizlik kamari bilan birga universal moslik.

L: "Maxsus avtoulov", "cheklangan", yoki "yarim universal" turkumlariga mansub bolalarni tutib turuvchi moslamalar uchun mos keladi.

Eslatma

O'rindiq boshqo'ygichini oxirigacha ko'tarib qo'ying. Agar boshqo'ygich bolalar uchun tutib turuvchi moslamani o'natishga xalal bersa, uni yechib olib qo'ying.

 OGOLANTIRISH!**O'ta xavfli**

Hech qachon orqa tomonga qaragan bolalarni tutib turish moslamasini oldida xavfsizlik yostiqchasi ochilib ketishi mumkin bo'lgan o'rindiqliga mahkamlamang, aks holda, o'lim holati sodir bo'lishi yoki bolaga jiddiy jarohat yetishi mumkin.

Eslatma

Qonunlarda belgilangan ushbu masalaga oid bandlar ushbu qo'llanmada berilgan yo'riqlar bilan mazmunan bir xil.

 XAVFLI

Katta yoshti inson va bola bitta xavfsizlik kamaridan foydalanishi taqiqlanadi. Avtomobil urilganda, xavfsizlik kamari bolaga kuchlibosim berishi mumkin va bu jiddiy yoki o'lim bilan tugaydigan jarohatga sabab bo'lishi mumkin.

Hech qachon ikki bola bitta xavfsizlik kamaridan foydalanishiga yo'l qo'yamang. To'qnashuv yuz berganda, har ikkisi ham jiddiy jarohat olishi mumkin.

** XAVFLI**

Avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtida bolalarni quchoqda olib o'tirish mumkin emas. Garchi quchoqda olib o'tirilgan bolaning vazni u qadar sezilarli darajada og'ir bo'lmasada, avariya vaqtida inersiya kuchi uning vaznini bir necha bor oshirib yuboradi, shu bois, avariya vaqtida siz bolani ushlab qola olmaysiz, hatto siz xavfsizlik kamarini taqib olgan bo'sangiz ham.

O'smir yoshdag'i bolalar

Xavfsizlik kamaridan to'g'ri foydalanish.



Bola uch nuqtada mahkamlovchi xavfsizlik kamaridan foydalanishi mumkin yoki mumkin emasligini tekshirish uchun bolaning tizzalari

o'rindiq chekkasida bermalol bukilgan holatda tura olayotganligi, kamarning diagonal yo'nalishda o'tuvchi qism bolaning ko'krak qismidan (bo'yin va qo'l o'rtasidan) o'tayotganligiga, kamarning beldan o'tuvchi qismi bolaning bel qismidan, imkon qadar pastroqdan, o'tayotganligiga ishonch hosil qiling.

XAVFLI

- Avtohalokatlar bilan bog'liq statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, agar bolalar orqa o'rindiqda o'tirgan va xavfsizlik kamarini to'g'ri taqib olgan bo'lsalar, ular xavfsizroq bo'ladiilar.
- Xavfsizlik kamari taqilmagan bolalar avtomatik yuz berganda uchib ketishlari mumkin.
- Bolaga xavfsizlik kamari taqilganda, bel kamar uning tos suyagiga yaqinroq joydan o'tishi, bolaning sonlariga tegib turishi kerak. Avtohalokat yuz berganda, kamar kuchi bolaning tos suyaklariga beriladi.



XAVFLI

Ushbu rasmda bola uch nuqtali xavfsizlik kamaridan noto'g'ri foydalangan holda o'rindiqqa o'tirganligi ko'rsatilgan. Agar bolalar xavfsizlik kamaridan shunday foydalansalar, to'qnashuv yuz berganda ular jiddiy jarohat olishi va oqibati o'lim bilan tugashi mumkin.

ISOFIX bolalar uchun xavfsizlik tizimlari



ISOFIX pastki langarli mahkamlash elementlari bilan jihozlangan bolalarni tutib turish moslamasini o'rnatish uchun moslama bilan birga berilgan yo'riqnomma asosida ishni bajaring.

Agar bolalarni tutib turish moslamasini to'g'ri o'rnatish bo'yicha sizda savollar bo'lsa, ushbu moslamalarni ishlab chiqaruvchi kompaniyaga murojaat qiling. Agar shunda ham ushbu moslamani avtomobilingizda o'rnatishda muammoga duch kelayotgan bo'lsangiz, Chevrolet servis markaziga murojaat qiling. ISOFIX bolalarni tutib turish moslamalari tizimi:

1. Bolalarni tutib turish moslamasini o'rnatish uchun orqadagi yon o'rindiqlardan birini tanlang.



2. Ikki pastki langar joylarini toping.

Pastki langarlar joylashuv joyini orqa o'rindiq suyanchig'ining pastki chekkasidagi aylana belgisi orqali topish mumkin.

3. Pastki langarlar atrofida, jumladan, xavfsizlik kamari va kamar to'qalarini atrofida hech qanday begona predmetlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Begona predmetlar bolalarni tutib turish moslamalarining langarlarga to'g'ri mahkamalishiga xalal berishi mumkin.

4. Bolalarni tutib turish moslamasini ikki pastki langarlar ustiga qo'ying va ularni langarlarga mahkamlang, bunda moslama bilan birga berilgan yo'riqnomma asosida ish tuting.

5. Moslama bilan birga berilgan yo'riqnomma asosida moslamani rostlang va mahkamlang.

Eslatma

O'rindiq kamari yoki bolalarni tuib turish moslamasi yopib qoldirib ketilgan avtomobilda uzoq vaqt turgach qizib ketishi mumkin, shu bois, moslamaga bolani o'tqizishdan oldin o'rindiq jildi va kamar to'qalarini tekshiring.

OGohlantirish!

mahkamlash uchun foydalanish to'qnashuv sodir bo'lganda yetarli himoyani ta'milamaydi va buning oqibati jarohat yoki hatto o'lim bilan tugashi mumkin.

D/qqat!

To'liq o'lchamli orqa tomonga qaragan bolalar o'rindiqlari o'rnatishga loyiq bo'lmasisi mumkin. Mos bolalarni tutib turish moslamasi haqida ma'lumot olish uchun bunday moslamalar sotadigan do'konga murojaat qiling.

OGohlantirish!

ISOFIX pastki mahkamlash elementlaridan faqat o'z maqsadlarida foydalaning.

ISOFIX pastki langar mahkamlagichlar faqat ular bilan birga ishlatalish mumkin bo'lgan bolalarni tutib turish moslamalari uchun mo'ljallangan.

ISOFIX pastki langar mahkamlagichlardan kattalar xavfsizlik kamarlari, sim dastalari yoki avtomobilingizdagи qurilmalar qismlarini mahkamlash uchun foydalanmang.

ISOFIX pastki langar mahkamlagichlardan kattalar xavfsizlik kamarlari, sim dastalari yoki avtomobilingizdagи qurilmalar qismlarini

Langar kamarli bolalarni tutib turuvchi tizimlar



Langar kamar nuqtalaridan foydalanish uchun quyidagilarni bajaring:

1. Langar kamar qopqog'ini oching, bolalarni tutib turuvchi moslamaning LANGAR ilgagini gulflashingiz mumkin.
2. Boshqa qo'ygichni ko'taring va langar kamarni boshqo'ygich tagidan va boshqo'ygich ustunchalari o'tasidan o'tkazing.
3. Bolalarni tutib turuvchi moslamaning kamariidagi qisqichni langar kamarga mahkamlang, bunda kamar buralib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.
4. Bolalarni tutib turuvchi moslama bilan birga berilgan yo'riqlarga muvofiq moslama kamarini mahkamlang.
5. Bolani tutib turuvchi moslama mahkam o'rnatilganligiga ishonch hosil qilish uchun uni qimirlatib ko'ring.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Bolalarni tutib turish moslamasi langar kamari qisqichi langarga to'g'ri biriktirilganligiga ishonch hosil qiling.
Noto'g'ri biriktirilsa, kamar va langar o'z vazifani bajarmaydi.

Bolalar uchun tutib turuvchi moslamani avtomobildagi anker kamarlarga mahkamlash uchun ruxsat etiladigan joylar

Vazn guruhi	O'lcham toifasi	Qotirish usuli	Old yo'lovchi o'rindig'ida	Orqa yon o'rindiqlarda	Orqa markaziy o'rindiqda
0: 10 kg gacha	E	ISO/R1	X	IL ¹	X
0+: 13 kg gacha	E	ISO/R1	X	IL ¹	X
	D	ISO/R2	X	IL ¹	X
	C	ISO/R3	X	IL ¹	X
I : 9 - 18 kg	D	ISO/R2	X	IL ¹	X
	C	ISO/R3	X	IL ¹	X
	B	ISO/F2	X	IL, UF	X
	B1	ISO/F2X	X	IL, UF	X
	A	ISO/F3	X	IL, UF	X
II : 15 - 25 kg			X	IL ¹	X
III : 22 - 36 kg			X	IL ¹	X

1 : Bolalar uchun tutib turuvchi moslama va old yo'lovchi o'rindig'i o'rtasida hech qanday oraliq bo'lmasligini ta'minlash uchun old yo'lovchi o'rindig'in oixirigacha orqaga suring yoki old yo'lovchi o'rindig'i suyanchig'in keraklicha vertikal holatga sozlang.

IL: "Maxsus avtoulov", "cheklangan", yoki "yarim universal" turkumlariga mansub bolalarni tutib turuvchi ISOFIX moslamalari uchun mos keladi. Bolalarni tutib turuvchi ISOFIX moslamasi muayyan avtomobil turi uchun tasdiqlangan bo'lishi kerak.

IUF: Ushbu vazn toifasida foydalanish mumkinligi tasdiqlangan universal turkumga mansub oldinga qaragan ISOFIX bolalarni tutib turish tizimi uchun mos keladi.

X: Ushbu vazn guruhida bolalarni tutib turuvchi ISOFIX moslamalaridan foydalanish mumkinligi ma'qullanmagan.

ISOFIX o'lcham toifasi va o'rindiq moslamasi

A - ISO/F3 : 9 - 18 kg vazn toifasidagi gavda bichimi maksimal o'lchamda bo'lgan bolalar uchun oldinga qaragan bolalarni tutib turish tizimi.

B - ISO/F2 : 9 - 18 kg vazn toifasidagi gavdasi bichimi kichik bo'lgan bolalar uchun oldinga qaragan bolalarni tutib turish tizimi.

B1 - ISO/F2X : 9 - 18 kg vazn toifasidagi gavdasi bichimi kichik bo'lgan bolalar uchun oldinga qaragan bolalarni tutib turish tizimi.

C - ISO/R3 : 18 kg gacha bo'lgan vazn toifasidagi gavda bichimi maksimal o'lchamda bo'lgan bolalar uchun orqaga qaragan bolalarni tutib turish tizimi.

D - ISO/R2 : 18 kg gacha bo'lgan vazn toifasidagi gavdasi bichimi kichik bo'lgan bolalar uchun orqaga qaragan bolalarni tutib turish tizimi.

E - ISO/R1 : 13 kg gacha bo'lgan vazn toifasidagi kichik yoshdagil bolalar uchun orqaga qaragan bolalarni tutib turish tizimi.

Eslatma

O'rindiq boshqo'ygichini oixirigacha ko'tarib qo'ying. Agar boshqo'ygich bolalar uchun tutib turuvchi moslamani o'rnatishga xalal bersa, uni yechib olib qo'ying.



ESLATMALAR

3

BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN JOYLAR

-
- SAQLASH BO'LMALARI 3-2
 - BAGAJ / YUK QO'YILADIGAN JOYLAR 3-3
 - AVTOMOBILGA YUK ORTISHGA OID MA'LUMOT. 3-5
 - ESLATMALAR 3-6

3-2 BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN JOYLAR

SAQLASH BO'LMALARI


Priborlar panelidagi quti



Priborlar panelida narsalarini saqlash uchun joylar mavjud. Bu bo'lmachalardan mayda narsalar saqlash uchun foydalanish mumkin.




Pastki saqlash bo'lmacasida USB port va AUX port mavjud (barcha komplektatsiyalarda ham mavjud emas).
Qarang: Yordamchi qurilmalar (USB/ Tashqi qurilma tovush (AUX) kirishi (agar bo'lsa)) ⇨ 6-9.



Old o'rindiqlar o'rtaсидаги markaziy konsolda kattaroq narsalarini saqlashga mo'ljallangan bo'lma mavjud.

Markaziy konsoldagi narsalarini saqlash bo'lmasi

BAGAJ / YUK QO'YILADIGAN JOYLAR**Qo'lqoplar qutisi**


Qutini ochish uchun tutqichidan torting.
Ichida foydalanuvchi qo'llanmasi mavjud.

 OGohlantirish!


Avtomobil bilan harakatlanayotganda avariya yuz berganda yoki keskin to'xtash vaqtida jarohat olish ehtimolini kamaytirish uchun qo'lqoplar qutisini doim yopib qo'ying.

Stakan ushlagichlar
 OGohlantirish!

Avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtida qaynoq suyuqlik solingen, ammo og'zi yopilmagan stakanlarni stakandonga qo'y mang. Agar qaynoq suyuqlik to'kilsa, kuyishingiz mumkin va bu avtomobil nazoratini yo'qotishingizga olib kelishi mumkin. Keskin tormoz yoki to'qnashuv yuz berganda jarohat olish ehtimolini kamaytirish uchun avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtida og'zi yopilmagan yoki mahkamlanmagan butilka, stakan, banka va shu kabilarni stakandonga qo'y mang.



Stakandonlar markaziy konsolda joylashgan.

Yukxona bo'lmasi**Yuk olish sig'imi (litr hisobida)**

A. Yukxona (yopiq yuk) - 563 l.


Orqa o'rindiqlar suyanchiqlarini pastga buklash

Orqa o'rindiq suyanchig'i ikki qismidan iborat. Har ikki qismni buklash mumkin.

Fiksator tugmasini bosgan holda bosh qo'ygichlarni tushiring.

 OGohlantirish!


Xavfsizlik kamarlari mahkamlangan holatida orqa o'rindiqlarni buklash o'rindiqlar va xavfsizlik kamarlariga shikast yetishiga olib kelishi mumkin. Orqa o'rindiqni buklashdan oldin xavfsizlik kamarini yeching va uni o'zining dastlabki yig'ilgan holatiga qaytarling.



Fiksator tugmasini bir tomonidan yoki ikki tomonidan bosing va o'rindiq suyanchiqlarini buklab yostiqqa yotqizing.

Orqa o'rindiqlar xavfsizlik kamarlarini taxlash

O'rindiq suyanchiqlarini ko'tarishdan oldin chekka o'rindiqlar suyanchiqlaridan xavfsizlik kamarlarini olib yo'naltirgichga taxlang.



O'rindiq suyanchiqlarini tik holatga o'rnating va xavfsizlik kamarlarini yo'naltirgichlardan tortib chiqaring.

O'rindiq suyanchiqlarini kerakli holatga qotiring, buning uchun o'rindiq suyanchig'i tepe qismini qisillagan tovush chiqmaguncha bosing.

O'rindiq suyanchiqlari joyiga qotganligiga ishonch hosil qilish uchun ularni yana bir bor oldinga tortib ko'ring.

Xavfsizlik kamarlari avtomatik ravishda o'ralmasa, ularni o'z tirqishlariga tiqing.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Hech qachon avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtida yo'lovchilarining suyanchig'i yotqizilan o'rindiqlarga o'tishiga yo'q qo'y mang, zero bu xavfli bo'lib, bu holatda xavfsizlik kamaridan foydalanish imkonи bo'lmaydi. Avariya yuz bersa yoki keskin to'xtaganda bu jiddiy jarohat yoki o'limga olib kelishi mumkin. Yotqizilan o'rindiq suyanchiqlari ustida olib ketilayotgan buyumlar old o'rindiqlar tepe qismidan pastda bo'lishi kerak. Aks holda keskin tormoz bergan vaqtda yuk oldinga sirl'anib ketishi va jarohat yoki zarar yetkazishi mumkin.

AVTOMOBILGA YUK ORTISHGA OID MA'LUMOT

- Yukxona bo'limasidagi og'ir narsa va buyumlarni imkon qadar orqa o'rindiqlarga yaqin qo'yish lozim. O'rindiq suyanchiqlari joyiga ishonchli qotganligiga ishonch hosil qiling. Agar bu predmetlarni ustma-ust taxlash mumkin bolsa, eng og'irlarini pastga joylashtirish lozim.
- Yukxona bo'limasidagi barcha predmetlarni sirg'anib ketmaydigan qilib joylashtiring.
- Yukxona bo'limasida yuk tashiyotganda orqa o'rindiqlar suyanchiqlari oldinga egilgan holatda bo'limasligi kerak.
- Yuk o'rindiq suyanchiqlari ustiga chiqib qolishiga yo'l qo'y mang.
- Priborlar paneli ustiga begona narsalarni qo'y mang.
- Yuk tepkilalar, to'xtash tormozi va uzatmalarni almashtlab qo'shish dastagini boshqarishga xalaqit qilmasligi, shuningdek, haydovchining bemalol harakat qilishini cheklamasligi kerak. Mahkamlanmagan predmetlarni salonda saqlamang.
- Yukxona bo'limasi ochilgan holatda harakatlanish taqiqlanadi.
- Foydali yuklama - bu avtomobilning ruxsat etilgan maksimal vazni va avtomobilning o'z vazni o'rta sidagi tafovutdir. Avtomobilingizning o'z vaznini hisoblash uchun vaznlar jadvalini to'ldiring.

Qarang: Avtomobil vazni ⚪11-6.

Avtomobil o'z vazni barcha suyuqliklarni o'z ichiga oladi (bak 90% ga to'ldirilgan, deb olinadi), ammosi haydovchi, yo'lovchilar va yuk og'irligini o'z ichiga olmaydi.

Qo'shimcha qurilmalar va aksessuarlar og'irligi avtomobil o'z vazniga kiritiladi.

3-6 BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN JOYLAR




ESLATMALAR

4

BOSHQARISH ASBOBLARI VA VOSITALARI

-
- PRIBORLAR PANELI UMUMIY TAVSIFI 4-2
 - BOSHQARISH ELEMENTLARI..... 4-5
 - OGohlantiruvchi chiroqlar,
• Datchiklar va indikatorlar 4-9
 - Ma'lumot ekranlari 4-15
 - AVTOMOBILDA BERILADIGAN
XABARLAR 4-17
 - BORT KOMPYUTERI 4-18
 - AVTOMOBILNI SHAXSIYLASHTIRISH 4-20
 - ESLATMALAR 4-22


PRIBORLAR PANELI UMUMIY TAVSIFI



Priborlar panelidagi boshqarish indikatorlari (A Model)

1. Burilish ishorasi ⇨ 4-10
2. Yonilg'i kam qolganligi signalizatori ⇨ 4-13
3. Tashqi chiroqlar yoniqligini eslatuvchi indikator ⇨ 4-14
4. Eshik ochiqligi signalizatori ⇨ 4-14
5. Dvigatel sovutish suyuqligi harorati signalizatori ⇨ 4-12
6. Tormoz va ilashish tizimi haqida ogohlantirish indikatori ⇨ 4-12
7. Yonilg'i darajasi datchigi ⇨ 4-9
8. "Tez orada avtomobilga gal dagi texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi" signalizatori ⇨ 4-12
9. Ushbu qo'llanmadan foydalanish ⇨ 0-5
10. Immobilayzer indikatori ⇨ 4-13
11. Dvigatel quvvati pasayishi indikatori ⇨ 4-13
12. Grafik axborot displeyi (GID) ⇨ 4-17
13. "Tormoz tepkisini bosing" indikatori ⇨ 4-13
14. Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS) signalizatori ⇨ 4-12
15. Havfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamari tarangligi indikatori ⇨ 4-11
16. Xavfsizlik kamari eslatmalari ⇨ 4-10
17. Bort kompyuteri ⇨ 4-18
18. Zaryadlash tizimi chirog'i ⇨ 4-11
19. Dvigatel moyi bosimi indikatori ⇨ 4-13
20. Nosozlik indikator chirog'i ⇨ 4-11
21. Spidometr ⇨ 4-9
22. Orqa tumanga qarshi faralar indikator chirog'i ⇨ 4-14
23. Old tumanga qarshi faralar signalizatori ⇨ 4-14
24. Uzoqni yoritish yoqilganligi indikatori ⇨ 4-14
25. Kunduzi yonuvchi chiroqlar (KYoCh) indikatori chiroqchasi (Agar mavjud bo'lsa) ⇨ 4-14


4-4 BOSHQARISH ASBOBLARI VA VOSITALARI



Priborlar panelidagi boshqarish indikatorlari (B Model)

BOSHQARISH ELEMENTLARI


1. Burilish ishorasi ⚡ 4-10
2. Yonilg'i kam qolganligi signalizatori ⚡ 4-13
3. Tashqi chiroqlar yoniqligini eslatuvchi indikator ⚡ 4-14
4. Eshik ochiqligi signalizatori ⚡ 4-14
5. Dvigatel sovutish suyuqligi harorati signalizatori ⚡ 4-12
6. Tormoz va ilashish tizimi haqida ogohlantirish indikatori ⚡ 4-12
7. Yonilg'darajasi datchigi ⚡ 4-9
8. Ushbu q'llanmadan foydalanish ⚡ 0-5
9. Immobilayzer indikatori ⚡ 4-13
10. "Tez orada avtomobilga galadagi texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi" signalizatori ⚡ 4-12
11. Dvigatel quvvati pasayishi indikatori ⚡ 4-13
12. "Tormoz tepkisini bosing" indikatori ⚡ 4-13
13. Grafik axborot displeyi (GID) ⚡ 4-17
14. Bort kompyuteri ⚡ 4-18
15. Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS) signalizatori ⚡ 4-12
16. Havfsizlik yostiqlichasi va xavfsizlik kamari tarangligi indikatori ⚡ 4-11
17. Xavfsizlik kamari eslatmalari ⚡ 4-10
18. Zaryadlash tizimi chirog'i ⚡ 4-11
19. Dvigatel moyi bosimi indikatori ⚡ 4-13
20. Nosozlik indikator chirog'i ⚡ 4-11
21. Spidometr ⚡ 4-9
22. Orqa tumanga qarshi faralar indikator chirog'i ⚡ 4-14
23. Old tumanga qarshi faralar signalizatori ⚡ 4-14
24. Uzoqni yoritish yoqilganligi indikatori ⚡ 4-14
25. Kunduzi yonuvchi chiroqlar (KYoCh) indikatori chiroqchasi (Agar mavjud bo'lsa) ⚡ 4-14

**Rul chambaragini sozlash
(Agar jihozlangan bo'lsa)**

Dastakni qulfdan oching, rul chambaragini sozlang, so'ng, dastakni qulflang va u to'liq qulflanganligiga ishonch hosil qiling. Rul chambaragini sozlashni faqat avtomobil harakatlanmayotgan holatida amalga oshiring.

Tovushli signal

Rul chamaragi markazidagi nuqtani bosing.

Old oyna tozalagichi/ yuvgichi**Old oyna tozalagichi**

2: Tez

1: Sekin

Vaqt intervali bilan tozalash

O : O'ch.

Oyna tozalagich o'chirilgan holatda bo'lganda oynani bir marta artish uchun dastakni pastga torting.

Old oyna muzlagan bo'lsa, oyna tozalagichni ishga tushirmang. Avtomobilni yuvganda o'chirib qo'ying.

Old oyna yuvgichi

Dastakni torting. Oyna yuvish suyuqligi old oynaga sepiladi va oyna tozalagich bir necha bor siltanadi.

DIQQAT!

Haydovchida yetarli darajada ko'rish imkoniyati bo'lmasa, bu baxtsiz hodisaga olib kelishi mumkin va buning natijasida, jarohat, avtomobilga zarar yetishi yoki boshqa moddiy zarar yuzaga kelishi mumkin.

Old oyna quruq bo'lsa yoki oynada kir, qor yoki muz yopishib qolganligi sababli cho'tkani oynada yurishi qiyinlashib qolganda, oyna tozalagichlarni ishga tushirmang. Oynda yet narsalar bo'lganda oyna tozalagichni ishga tushirish cho'tkalarga, oyna tozalagich elektr motoriga va oynaga shikast yetishiga olib keladi.

Sovuq ob-havo sharoitida oyna tozalagichni ishga tushirishdan oldin cho'tkalar oynaga yopishib muzlab qolmaganligini tekshiring. Cho'tka muzlab qolgan holatida oyna tozalagichni ishga tushirish oyna tozalagich elektr motoriga zarar yetishiga olib keladi. Oyna yuvgichni bir necha soniyadan ortiq uzluksiz ishlatmang, shuningdek, oyna yuvgich bakchasi bo'shab qolganda ham oyna yuvgichni ishlatmang. Bu oyna yuvgich elektr motori ortiqcha qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

Tashqaridagi harorat

Harorat pasayishi A model displayi bilan jihozlangan avtomobilarning axborot-ko'ngilochar tizimida yoki B model displayi bilan jihozlangan avtomobilarning haydovchi axborot markazida darhol ko'rsatiladi; harorat ko'tarilishi esa vaqtidagi kechikish bilan ko'rsatiladi.

OGohlantirish!

Hatto display 0°C dan bir necha gradus yuqorini ko'rsatayotgan bo'lсада, yo'l yuzasi allaqachon muzlagan bo'lishi mumkin.

Soat

Sana va vaqt axborot-ko'ngilochar tizimi displayida ko'rindi.

Sana va vaqt sozlamalarini foydalanuvchi o'zgartirishi mumkin.

Ishlatish ⇨ 6-13 dagi Personalizatsiya bo'limida berilgan "Vaqt va sana" mavzusiga qarang.

Agar avtomobil axborot-ko'ngilochar tizim bilan jihozlangan bo'lsa, sana va vaqt haydovchi axborot markazida ko'rsatiladi.

Haydovchi axborot markazi (DIC) ⇨ 4-15 ga qarang.

A Model



B Model




A Model displayida vaqtini o'rnatish uchun burilishni ko'rsatuvchi dastakdagи **MENU** (MENU/YU) tugmasini bosing va kallakni buragan holda kerakli vaqtini o'mating.

Soat/daqiqani o'rnatish : **SET/CLR** (O'RNATISH/O'CHIRISH) kallagini 2 soniyadan ortiq bosib turing.


Soat/daqiqani kamaytirish : **SET/CLR** (O'RNATISH/O'CHIRISH) kallagini qisqa bosing (2 soniyadan kamroq).

B Model displayida vaqtini o'rnatish uchun, quyidagi rasmida ko'rsatilganidek, priborlar kombinatsiyasidagi tugmani qisqa bosing (2 soniyadan kamroq).



Soat/daqiqani o'rnatish : Priborlar kombinatsiyasidagi tugmani qiymat yonib o'chishni boshlamaguncha 2 soniyadan ortiq bosing; keyingi menyuni tanlash uchun yana shu tugmani uzozroq bosib turing.

Soat/daqiqani kamaytirish : Qiymatni oshirish uchun kerak bo'lgan maydon yonib o'chishni boshlagandan so'ng priborlar kombinatsiyasidagi tugmani qisqa bosing (ikki daqiqtadan kamroq). Kerakli raqamga yetmaguncha buni takrorlang.



**Sigaret tutatgich
(Agar jihozlangan bo'lsa)**

Sigaret tutatgichdan foydalanish uchun o't oldirish tizimi qulfini ACC yoki ON holatiga burang va tutatgichni taqalguncha bosing.

Sigaret tutatgich foydalanishga tayyor bo'lгganda o'zi avtomatik tarzda chiqadi.

⚠ DIQQAT!

Sigaret tutatgichning haddan tashqari qizib ketishi isitish elementi va tutatgichning o'ziga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

Tutatgich qiziyotgan vaqtida uni bosmang. Bu tutatgichning haddan ortiq qizib ketishiga olib kelishi mumkin.


Nosoz holatda bo'lgan sigaret tutatgichdan foydalanish xavfli bo'lishi mumkin.

Agar qizib bo'lgan sigaret tutatgich o'zi

⚠ DIQQAT!

chiqmasa, uni qo'lingiz bilan chiqarib oling va uni ta'mirlash uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling. Bu jarohat va avtomobilga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

Kuldonlar (Agar jihozlangan bo'lsa)



⚠ DIQQAT!

Faqat kul tashlash uchun, yonadigan chiqindi solinmasin.

Stakandonlarga ko'chma kuldon qo'yish mumkin.

OGOHLANTIRUVCHI CHIROQLAR, DATCHIKLAR VA INDIKATORLAR

Spidometr



Avtomobil harakatlanish tezligini ko'rsatadi.

Odometr



Odometr bosib o'tilgan masofani ko'rsatadi. Burilishni ko'rsatish dastagini burash orqali jami bosib o'tilgan masofa va oxirgi safarda bosib o'tilgan masofa o'tasida almashlab o'tishni amalga oshirish mumkin.

Bazaviy darajadagi avtomobillarda jami bosib o'tilgan masofa va oxirgi safarda bosib o'tilgan masofa o'tasida almashlab o'tish priborlar


kombinatsiyasidagi tugmani bosish orqali amalga oshiriladi.

Joriy o'tilgan yo'l hisoblagichi

Avtomobilda safar masofasini ko'sratuvchi alohida mustaqil odometr mavjud bo'lib, u oxirgi marta nolga qaytarilan vaqtidan boshlab yurilgan masofani ko'rsatadi.

Ushbu odometr ko'satkichini nolga qaytarish uchun priborlar kombinatsiyasidagi boshlang'ichga qaytarish tugmasini bosgan holda uni tanlang. So'ng, o't oldirish tizimi yoqilgan holatida priborlar kombinatsiyasidagi boshlang'ichga qaytarish tugmasini bir necha soniya bosib turing.

Taxometr



Dvigatelning daqiqasiga aylanishini ko'rsatadi.

Imkon qadar har bir uzatmada dvigatel aylanishining quyi diapazonida haydashga harakat qiling.

DIQQAT!

Agar strelka qizil ogohlantirish zonasiga o'tsa, bu mumkin bo'igan maksimal dvigatel aylanish chastotasidan oshganligini bildiradi. Dvigatelga zarar yetishi mumkin.

Yonilg'i darajasi datchigi



F yoki 1 : To'la

E yoki 0 : Bo'sh

Bakdag'i yonilg'i darajasini ko'rsatadi.

Hech qachon bak to'liq bo'shab qolishigacha olib bormang.

Bakda qolgan yonilg'i tufayli bakni to'lishigacha solinadigan yonilg'i miqdori ko'rsatilgan bak sig'imidan kamroq bo'lishi mumkin.



Haydovchi axborot markazi (DIC) ⇨ 4-15 ga qarang.



Yonilg'i solishdan oldin avtomobilni to'xtating va dvigatelni o'chiring.

Nazorat indikatorlari

Quyida bayon qilingan indikatorlar avtomobilning ayrim versiyalarida mavjud bo'lmasligi mumkin. Tavsif barcha versiyadagi priborlar bajaradigan ishiga taalluqli. O't oldirish tizimi yoqilganda, aksariyat indikatorlar ularning ishga shayligini tekshirib olish uchun bir qancha vaqt yonib turadi.

Indikatorlar rangi bildiradi:

Qizil : xavf, muhim eslatma

Sariq : ogohlantirish, ma'lumot, nosozlik

Yashil : yoqilganlik tasdig'i

Ko'k : yoqilganlik tasdig'i

Burilish ishorasi



↔ yashil rang bilan yonib o'chadi. Burilish ko'rsatkichi yoki avariya chiroqlari yoqilgan bo'lsa, nazorat indikatori yonib o'chadi.

Agar nazorat indikatori tez yonib o'chsa, bu burilishni ko'rsatuvchi chiroq yoki u bilan bog'liq saqlagich nosoz ekanligini bildiradi.

Cho'glanma lampalarni almashtirish ⇨ 9-17, Saqlagichlar ⇨ 9-22 va Burilish va qatorni o'zgartirish ishora chiroqlari ⇨ 5-3 ga qarang.

Xavfsizlik kamari eslatmalari



Haydovchi xavfsizligini ta'minlash maqsadida ⚡ yonadi yoki qizil rangda yonib o'chadi.

O't oldirish tizimi yoqilgan bo'lganda, ushbu nazorat indikatori yonadi va bir necha soniya yonib turaveradi va bu orqali haydovchiga

xavfsizlik kamarini taqishi kerakligini eslatadi.

Xavfsizlik yostiqchasi bo'lмаган avtomobilarda o't oldirish tizimi yoqilgandan so'ng yoki dvigatel ishga tushirilganidan so'ng darhol ushbu nazorat indikatori yonib o'chishni boshlaydi hamda bir necha soniya davomida tovushli signal ham yangraydi. So'ng nazorat indikatori yonib o'chishdan to'xtaydi va haydovchi xavfsizlik kamarini taqquncha uzuksiz yonib turadi.

Xavfsizlik yostiqchasi bilan jihozlangan avtomobilarda o't oldirish tizimi yoqilgandan keyin ushbu nazorat indikatori tezda yonadi va haydovchi xavfsizlik kamari taqilmaguncha uzuksiz yonib turaveradi. Dvigatel ishga tushirilganidan so'ng ushbu nazorat indikatori bir necha soniya yonib o'chadi, undan so'ng, yonib o'chishdan to'xtaydi va to haydovchi xavfsizlik kamari taqilmaguncha uzuksiz ravishda yongan holda qoladi. Agar haydovchi xavfsizlikni kamarini taqmasdan harakatni boshlasa, ma'lum masofan yurgandan so'ng yoki ma'lum tezlikka chiqqandan so'ng tovushli signal yangraydi va ushbu nazorat indikatori bir necha soniya yonib o'chadi. Shundan keyin indikator yonib o'chishi va tovushli signal chalinishi to'xtaydi, ammo nazorat indikatori uzuksiz yonib turgan holatda qoladi.

Agar haydovchi xavfsizlik kamari allaqachon taqilgan bo'lsa, nazorat indikatori ham yonmaydi, tovushli signal ham chalinmaydi.

Xavfsizlik kamari eslatmalari ⇨ 4-10 ga qarang.

Havfsizlik yostiqchasi va xavfsizlik kamari tarangligi indikatori



qizil rangda yonadi.

O't oldirish tizimi yoqilganda, ushbu nazorat indikatori bir necha soniya yonadi. Agar u yonmasa, bir necha soniyadan so'ng o'chmaydi yoki harakat vaqtida yonmaydi, bu holatda xavfsizlik yostiqchasida nosozlik mavjud. Chevrolet servis markaziga yordam so'rab murojaat qiling. Avariya sodir bo'lгanda, ushbu tizimlar ishlamasligi mumkin.

Xavfsizlik kamari taranglagichlari xavfsizlik yostiqchasi ishlayotganligini uzluksiz yonib turuvchi indikator ko'rsatadi.

OGOHLANTIRISH!

Nosozlikni bartaraf etish uchun zudlik bilan Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Xavfsizlik kamarlari ⇨ 2-5

Xavfsizlik yostiqchasi tizimi ⇨ 2-8 ga qarang.

Havo yostiqchasi yoniq yoki o'chiqligini ko'rsatuvchi chiroq (Agar mavjud bo'lса)

sariq rangda yonadi.
Old yo'lovchi o'rindig'i faollashtirilgan.


sariq rangda yonadi.
Old yo'lovchi o'rindig'i faolsizlashtirilgan.
Havo yostiqchasini yoqish-o'chirish tugmasi (Agar mavjud bo'lса) ⇨ 2-12 ga qarang

XAVFLI

Old yo'lovchi havo yostiqchasi faollashtirgan holda bolarni ushlab turuvchi o'rindiq tizimida u yerga joylashtirish oqibati o'lim bilan tugashi mumkin.

Old yo'lovchi havo yostiqchasi faollashtirmagan holda u yerga kattalar o'tirishining oqibati ham o'lim bilan tugashi mumkin.

Zaryadlash tizimi chiroq'i



qizil rangda yonadi.
O't oldirish tizimi yoqilganda u yonadi va dvigatel ishga tushirilgandan so'ng qisqa vaqt o'tib o'chadi.

Agar dvigatel ishlab turgan vaqtida u yonsa, avtomobilni to'xtating va dvigatelni o'chiring. Akkumulyator batareyasi zaryadlanmayapti. Dvigatelin sovutish tizimi buzilgan bo'lishi mumkin.

Chevrolet servis markaziga yordam so'rab murojaat qiling.

Nosozlik indikator chiroq'i



sariq rangda yonadi Avtomobil boshqaruv tizimi otqinlarni nazorat qilish tizimida yoki muhim elektron datchiklarda nosozlik aniqlasa, ushbu nosozlikni ko'rsatuvchi indikator yonadi. Agar ushbu nosozlik indikatori yonib o'chsa, katalitik neytralizator zarar yetgan bo'lishi mumkin. Dvigatel aylanish tezligini pasaytirish katalitik neytralizatorga zarar yetish ehtimolini

kamaytirish va nosozlik indikatori yonib o'chishini to'xtatish imkonini beradi.

Agar avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtda nosozlik indikatori yonsa, avtomobilni tuzatish uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qilish zarur.

"Tez orada avtomobilga galdagi texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi" signalizatori



ko'k rangda yonadi.

Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish talab etilganda, bu nazorat indikatori bilan birga yonadi va dvigatel quvvati kamayganligi haqida xabar kodi paydo bo'ladi.

Avtomobilni tekshirish uchun zudlik bilan Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Avtomobilda beriladigan xabarlaridan \Rightarrow 4-17 ga qarang.

**Tormoz va ilashish tizimi haqida
ogohlantirish indikatori**



qizil rangda yonadi

To'xtash tormozi tortilganda, tormoz tizimi yoki ilashish muftasida suyuqligini darajasi juda kam qolganda yoki tormoz tizimida nosozlik mavjud bo'lса, yonadi.

Tormozlar \Rightarrow 9-14 ga qarang.

OGOHLANTIRISH!

Agar tormoz tizimi ogohlantirish chirogi yonasa, tormoz suyuqligi darajasini tekshirish va Chevrolet serviz markaziga darhol murojaat qilish lozim.

Agar bakchada tormoz suyuqligi darajasi past bo'lса, avtomobilni haydamang.

Ushbu chiroqning yonishi tormoz tizimida nosozlik borligini bildirishi mumkin. Tormozlarda nosozlik bo'lа turib avtomobilida harakatlanish tan jarohati va avtomobiliga zarar yetishi va boshqa moddiy zararga olib kelishi mumkin.

Agar to'xtash tormozi yoqilgan bo'lса, o't oldirish tizimi yoqilgandan keyin yonadi.

To'xtash tormozi \Rightarrow 8-21 ga qarang.

**Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS)
signalizatori (Agar mavjud bo'lса)**



O't oldirish tizimi yoqilgandan so'ng bir necha soniya yonadi.

Ushbu nazorat indikatori o'chganda, tizim ishga shay bo'lgan bo'ladi.

Agar ushbu nazorat indikatori bir necha soniyadan so'ng o'chmasa yoki avtomobil bilan harakatlanayotgan vaqt yonib tursa, ABS (Tormozlar antiblokirovka tizimi) da nosozlik mavjud bo'ladi. Tormoz tizimi ishlaydi, ammo u ABS (Tormozlar antiblokirovka tizimi) sozlovisiz ishlaydi.

Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS) \Rightarrow 8-20 ga qarang.

**Dvigatel sovutish suyuqligi harorati
signalizatori**



qizil rangda yonadi.

Ushbu indikator chirogi dvigatel sovutish suyuqligi qizib ketganligi haqida ogohlantiradi.

Agar avtomobil normal yo'l sharoitida harakatlanib kelayotgan bo'lса, avtomobilni yo'l

chekkasiga oling va to'xtating hamda dvigatelni bir necha daqiqa salt yurish rejimida ishlating.

Agar ushbu indikator chirog'i o'chmasa, dvigatelni o'chiring va Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Dvigatel moyi bosimi indikatori



qizil rangda yonadi.

O't oldirish tizimi yoqilganda u yonadi va dvigatel ishga tushirilgandan so'ng qisqa vaqt o'tib o'chadi. Agar u yongan holda qolaversa, Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Dvigatel salt aylanish rejimida qizdirilayotganda, ushbu nazorat indikatori yonib o'chishi mumkin, ammo dvigateli aylanishi ortganda, u o'chishi lozim. Agar ushbu nazorat indikatori avtomobil harakatlilb ketayotgan vaqtda yonib tursa, avtomobilni imkon qadar tezroq to'xtating va dvigatelni o'chiring. Moylash tizimi ishdan chiqqan bo'lishi mumkin va bu dvigatel va g'ildiraklar qulf tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Bu holatda, ilashish muftasi tepkisini bosing, uzatmalarni almashlab qo'shish dastagini neytral holatga o'tkazing va o't oldirish tizimi o'chiring. Dvigatel o'chirilgan holatda bo'lganda tormozlash va rulni burish uchun ko'proq kuch talab etiladi. Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

OGOLANTIRISH!

Agar avtomobil harakatlana turib g'ildiraklar qulflanishi sodir bo'lsa, ilashish muftasi tepkisini bosing, almashlab qo'shish dastagini neytral holatga o'tkazing (uzatmalar qutisi mexanik bo'lsa) yoki N (neytral) holatga o'tkazing (uzatmalar qutisi avtomatik bo'lsa) va o't oldirish tizimini o'chiring. Tormozlash va rul chambaragini burash uchun ko'proq kuch talab etiladi. Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Yonilg'i kam qolganligi signalizatori



sariq rangda yonadi.

Yonilg'i darajasini ko'sratuvchi datchikda faqat bitta indikator tayoqchasi qolganda, yonilg'i kam qolganligi haqida ogohlantiruvchi indikator sariq rangda yonadi. Haydovchi axborot markazida (DIC) **FILL FUEL** (YONILG'I QUYING) ogohlantiruvchi xabari paydo bo'lsa, zudlik bilan avtomobilga yonilg'i quyish kerak. O't oldirish tizimi yoqilganda bir necha soniya yonadi.

DIQQAT!

Avtomobilda yonilg'i oxirigacha sarf bo'lishigacha olib bormang. Bu katalitik neytralizatorga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

Katalitik neytralizator ⇨ 8-15 ga qarang.

Immobilayzer indikatori




sariq rangda yonadi.

Agar o't oldirish tizimi yoqilgan bo'lganda ushbu indikator yonib turishda yoki o'chib yonib turishda davom etsa, tizimida nosozlik mavjud bo'lgan bo'ladi. Dvigateli ishga tushirib bo'lmaydi.

Nosozlikni bartaraf etish uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Dvigatel quvvati pasayishi indikatori



sariq rangda yonadi

 DIQQAT!

Agar avtomobilga shoshilinch ravishda texnik xizmat ko'satish talab etilsa, nosozlik indikatori yonadi.

Harakatlanishni past tezlikda davom ettirish mumkin.

Avtomobilni tekshirish uchun zudlik bilan Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

"Tormoz tepkisini bosing" indikatori



 indikator sariq rangda yonib o'chadi.

Avtomatik uzatmalar qutisi bilan jihozlangan avtomobillarda faqat tormoz tepkisi bosilgan va uzatmalarни almashlab qo'shish dastagi P (To'xtash) yoki N (Neytral) holatga o'tkazilgan bo'lсagina, dvigatelni ishga tushirish mumkin. Uzatmalarни qo'shish dastagi D-8-16 ga qarang.

Uzoqni yoritish yoqilganligi indikatori



 ko'k rangda yonadi.

Old faralarning uzoqni yoritish chiroq'i yoqilganda yoki old faralar bilan yonib o'chish ishorasini qilganda bu indikator yonadi.

Old fara uzoqni/yaqinini yoritish almashlab ulagichi D-5-2 ga qarang.

Old tumanga qarshi faralar signalizatori



 yashil rangda yonadi.

Old tumanga qarshi faralar yoqilgan bo'lganda bu indikator yonadi.

Old tumanga qarshi faralar D-5-4 ga qarang.

Orqa tumanga qarshi faralar indikator chiroq'i



 sariq rangda yonadi.

Orqa tumanga qarshi faralar yoqilgan bo'lganda bu indikator yonadi.

Orqa tumanga qarshi faralar D-5-4 ga qarang.

Tashqi chiroqlar yoniqligini eslatuvchi indikator



 yashil rangda yonadi.

Tashqi yoritish chiroqlari yoqilgan bo'lganda bu indikator yonadi.

Tashqi chiroqlarni boshqarish elementlari D-5-2 ga qarang.

Eshik ochiqligi signalizatori



 qizil rangda yonadi.

Eshiklar yoki yukxona eshigi ochiq bo'lganda yonadi.

O't oldirish tizimi yoqilganda u yonadi va dvigatel ishga tushirilgandan so'ng qisqa vaqt o'tib o'chadi.

Kunduzgi yoritish chiroqlari signalizatori (agar o'rnatilgan bo'lsa)




 yashil rangda yonadi. Kunduzgi yoritish chiroqlari yoqilganda yonadi.


MA'LUMOT EKRANLARI

Haydovchi axborot markazi (DIC)

Haydovchi axborot markazi (DIC) priborlar panelida joylashgan.



Yuqorida keltirilgan rasmda A Model displayidagi bor kompyuteri funksiyalari ketma-ketligi ko'rsatilgan.



Yuqorida keltirilgan rasmda A Model displayidagi bor kompyuteri funksiyalari ketma-ketligi ko'rsatilgan.

A Model

Rasmdagi **MENU** so'zi **MENU (MENYU)** tugmasini bosish bir ketmekteklididan boshqa bir ketmakteklikka o'tishga olib kelishni bildiradi. Bundan tashqari, regulator kallagini burash orqali rasmda ko'rsatilgan sxema bo'ylab pastga o'tish mumkin. Parametrlarni sozlash yoki boshlang'ich holatga qaytarish uchun **SET/CLR** (O'R NATISH/O'CHIRISH) tugmasini bosing.



Quyidagi menyulardan birini tanlash mumkin:


- Odometr
- Bort kompyuteri
- O'lchov birliklarini sozlash



Menyu tanlash uchun burilishni ko'rsatish dastagidagi **MENU (MENYU)** tugmasini bosing. **MENU (MENYU)** tugmasi ketma-ket bosilganda, rejimlarga quyidagi tartibda o'tiladi:

1. Odometr
 2. Bort kompyuteri
 3. O'lchov birliklarini sozlash
- Avtomobil shaxsiylashtirish \Rightarrow 4-20,
 Odometr \Rightarrow 4-9 va
 Bort kompyuteri \Rightarrow 4-18 ga qarang.

B Model



Priborlar panelidagi tugmani qisqa bosganda (2 soniyadan kam), rejimlarga quyidagi tartibda o'tiladi:

1. Odometr
2. Odometr
3. O'lchov birliklarini sozlash

Priborlar kombinatsiyasidagi tugmani 2 soniyadan ortiq boish orqali tegishli parametrlarni sozlash yoki boshlang'ich holatga qaytarish rejimiga kirlidi.

- Avtomobil shaxsiylashtirish \Rightarrow 4-20,
 Odometr \Rightarrow 4-9,
 Bort kompyuteri \Rightarrow 4-18
 Soat \Rightarrow 4-7 ga qarang.

O'lchov birliklarini sozlash

A Model

Tezlik va harorat o'lchov birliklarini o'zgartirish mumkin.

Burilishni ko'rsatish dastagidagi menu (menyu) tugmasini bosgan holda kerakli menyuni tanlash mumkin.




O'lchov birliklari sozlamalaridan biror punktni t a n l a g a n d a n s o 'n g **SET / CLR** (O'RNATISH/O'CHIRISH) tugmasini bir necha soniya bosing.

Burilishni ko'rsatish dastagidagi kallani buragan holda kerakli sozlamani tanlang.

1. Birlik 1 (mil/st, °C)
 2. Birlik 2 (mil/st, °F)
 3. Birlik 3 (km/st, °C)
- O'lchov birligini o'zgartirganda, ekranada tanlangan birlik aks etadi.
 T a s d i q l a s h u c h u n **SET / CLR** (O'RNATISH/O'CHIRISH) tugmasini bir necha soniya bosib turing.

B Model

O'lchov birliklarini sozlashga o'tish uchun priborlar kombinatsiyasidagi tugmani bir necha bor qisqa (2 soniyadan kam) bosing.



O'lchov birliklari konfiguratsiyasini belgilash uchun shu tugmani 2 soniyadan ortiq bosing.



AVTOMOBILDA BERILADIGAN XABARLAR

Kerakli birlikni tanlash uchun shu tugmani qisqa bosing (2 soniyadan kamroq).

1. Birlik (mil/st, °C)
2. Birlik (mil/st, °F)
3. Birlik (km/st, °C)

Grafik axborot displayi (GID)

Sana, vaqt, tashqaridagi harorat va axborot ko'ngilochar tizim aks etadi.

Axborot-ko'ngilochar tizimi yoqilganda, avtomobil individual sozlamalari ko'rinishi.

Avtomobil shaxsiylashtirish ⇨ 4-20 ga qarang.

 avtomobil xabarlar kodi bilan yonadi.
Xabarlar haydovchi axborot markazida (DIC) beriladi yoki ogohlantiruvchi tovushli signallar bilan beriladi.

Avtomobil komplektatsiyasi va individual sozlamalariga bog'liq holda quyida bayon qilingan funksiyalarning ayrimlari mavjud bo'lmasligi mumkin.



Haydovchi axborot markazida (DIC) xabar aks etib turgan holatda avtomobil bilan harakatni davom ettirish avtomobilga yoki dvigatelni jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Chevrolet servis markaziga zudlik bilan murojaat qiling.

Avtomobil ma'lumot xabarları raqamli kodlar bilan beriladi.

№	Ma'lumot xabari
04	Dvigatel harorati yuqoriligi sabab konditsioner o'chirildi
15	Yuqoridagi tormoz chirog'ida nosozlik
16	Stop chiroqlarga texnik xizmat ko'rsating

№	Ma'lumot xabari
18	Chap fara yaqinini yoritish chirog'ida nosozlik
20	O'ng fara yaqinini yoritish chirog'ida nosozlik
21	Chap old gabarit chiroqda nosozlik
22	O'ng old gabarit chiroqda nosozlik
23	Orqaga harakatlanish chirog'ida nosozlik
24	Raqam belgisini yoritish chirog'ida nosozlik
25	Chap old burilishni ko'rsatuvchi chiroqda nosozlik
26	Chap old burilishni ko'rsatuvchi chiroqda nosozlik
27	O'ng old burilishni ko'rsatuvchi chiroqda nosozlik
28	O'ng orqa burilishni ko'rsatuvchi chiroqda nosozlik
35	Masofadan boshqarish pulti batareyasini almashtiring
59	Haydovchi eshigi oynasini oching, so'ng, yoping
60	Yo'lovchi eshigi oynasini oching, so'ng, yoping

BORT KOMPYUTERI

Nº	Ma'lumot xabari
61	Chap orqa eshik oynasini oching, so'ng, yoping
62	O'ng orqa eshik oynasini oching, so'ng, yoping
65	O'g'rilik harakati sodir bo'ldi
66	O'g'rilikka qarshi signalizatsiyada nosozlik
75	Konditsioner tizimini tekshiring
79	Dvigatel moyini tekshiring
81	Avtomatik uzatmalar qutisini tekshiring
84	Dvigatel quvvati pasaydi
89	Tez orada avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi
94	Uzatmalarni almashlab qo'shish dastagini "P" (To'xtash) holatiga o'tkazing
95	Xavfsizlik yostiqchasiда nosozlik
128	Kapot ochiq
174	Akkumulyator batareyasida quvvat kam

Ogohlantiruvchi tovushli signallar**Dvigateli ishga tushirganda
yoki harakat vaqtida**

- Haydovchi axborot markazida ogohlantirish xabari paydo bo'lsa.
- To'xtash tormozi qo'shilgan holatida vtomobil bilan 5 km/st dan yuqori tezlikda harakatlanish.
- Burilishni ko'rsatuvchi chiroq yoqilgan holatida taxminan 1 km/ st (0,6 mil) da avtomobil bilan harakatlanish.

**Avtomobil parkovka qilingan
va (yoki) eshik ochiq bo'lganda**

- O't oldirish qulfiga kalit tiqligandan bir necha soniya o'tgach ogohlantiruvchi tovushli signal to'xtaydi.
- Tashqi chiroqlar yoqilgan bo'lganda.



Agar shu bilan jihozlangan bo'lsa.
Bort kompyuteri haydovchi axborot markazida (DIC) joylashgan.
Bort kompyuteri haydovchiga o'rtaча tezlik, qolgan yoniq'i qancha masofaga yetishi, o'rtaча yoniq'i sarfi va avtomobil qancha vaqtidan beri harakatlanib kelayotganligi kabi ma'lumotlarni taqdim etadi.



Bort kompyuterini boshqarish uchun burilishni ko'rsatish dastagidagi **MENU** (MENYU) tugmasini bosing.

MENU (MENYU) tugmasini ikki bor yonib o'chmaguncha bosgan holda yuqori displeyni tanlang.

Burilishni ko'satish dastagidagi kallakni soat mili yo'nalishida har bir buraganda rejimlarga quyidagi tartibda o'tiladi:

1. O'rtacha yonilg'i sarfi
2. Qolgan yonilg'i qancha masofaga yetishi
3. O'rtacha tezlik

A y r i m r e j i m l a r d a S E T / C L R
(O'RNATISH/O'CHIRISH) tugmasini bir necha soniya bosgan holda qiymatlarni nolga qaytarish mumkin.

O'rtacha yonilg'i sarfi



Bu rejimda displayda o'rtacha yonilg'i sarfi ko'satiladi.

O'rtacha sarf ushu qiymat oxirgi marta nolga qaytarilgan vaqtidan boshlab dvigatel ishlagan vaqt davomida yig'ilgan umumiy yig'indi bilan hisoblanadi, hatto avtomobil harakatlamagan holatida ham.

O'rtacha sarf qiymatini nolga qaytarish uchun **SET/CLR** (O'RNATISH/ O'CHIRISH) tugmasini bir necha soniya bosing.

Qolgan yonilg'i qancha masofaga yetishi



Ushbu rejimda ayni damda yonilg'i bakida mavjud yonilg'i bilan taxminan qancha masofa yurish mumkinligi ko'satiladi.

Masofa diapazoni 30–999 km ni tashkil etadi. Agar akkumulyator batareyasi o'chirilgan yoki avtomobil qiya joyda turgan holatda bakning kamiga yonilg'i quyilsa, bort kompyuteridagi qiymatlar noto'g'ri bo'lib ketishi mumkin.

Qolgan yonilg'i yetadigan masofa 30 km dan kamni tashkil etasa, haydovchi axborot markazida **FILL FUEL (YONILG'I QUYILSIN)** xabari paydo bo'ladi. Zudlik bilan yonilg'i quyying.

Avtomobilni haydash uslubiga bog'liq holda qolgan yonilg'i yetadigan haqiqiy masofa hisoblangan taxminiy qiymatdan farq qilishi mumkin. Haydovchi axborot markazi (DIC) ⇨ 4-15 ga qarang.

Eslatma

Bort kompyuteri yordamchi qurilma hisoblanadi, shu bois, shart-sharoitga bog'liq

holda qolgan yonilg'i yetadigan haqiqiy masofa va taxminiy hisoblangan masofa bir-biridan farq qilishi mumkin.

Qolgan yonilg'i yetadigan masofa ko'satkichi haydovchining avtomobilni qanday haydashi, yo'l va harakat tezligiga bog'liq, chunki bu qiymat yonilg'i dan foydalanish samaradorligi asosida hisoblanadi, bu esa yuqoridagi omillarga bog'liq holda o'zgarib turadi.

O'rtacha tezlik



Bu rejimda displayda o'rtacha tezlik ko'satiladi. O'rtacha tezlik qiymati dvigatel ishlaganiga qarab hisoblanadi, hatto avtomobil bir yerda turgan bo'lsa ham.

O'rtacha tezlik diapazoni cheklanmagan.

O'rtacha tezlik qiymatini nolga qaytarish uchun **SET/CLR** (O'RNATISH/O'CHIRISH) tugmasini bir necha soniya bosing.

AVTOMOBILNI SHAXSIYLASHTIRISH

Harakatlanish davomiyligi



Ushbu rejimda avtomobil jami qancha vaqt harakatlanganligini ko'ssatiladi.

Harakatlanish davomiyligi qiymati dvigatel ishlaganiga qarab hisoblanadi, hatto avtomobil bir yerda turgan bolsa ham.

O'rtacha harakatlanish davomiyligi qiymatini nolga qaytarish uchun **SET/CLR** (O'R NATISH/O'CHIRISH) tugmasini bir necha soniya bosing.

Qiymat 99:59 ga yetganda, harakatlanish davomiyligi qiymati 0:00 ga qaytadi.

Axborot displayida sozlamalarni o'zgartirish orqali avtomobil parametrlarini shaxsiylashtirish mumkin.

Avtomobil komplektatsiyasiga bog'liq holda quyida bayon qilingan funksiyalarining ayrimlari mavjud bo'lmasligi mumkin.

O'toldirish tizimi **ON** (YOQ.) holatda va axborot-ko'ngilochar tizim yoqilgan holatda bo'lganda **CONFIG** (KONFIGURATSIYA) tugmasini bosing.

Sozlamalar menyulari ko'rindi. Sozlash meyulariga o'tish uchun axborot-ko'ngilochar tizimi **MENU-TUNE** (MENYU-SOZLASH) kallagini burang.

Tanlovnii tasdiqlash uchun **MENU-TUNE** (MENYU-SOZLASH) kallagini bosing. Quyidagi menyularni ochish mumkin:

- Til sozlamalari.
- Vaqt va sana sozlamalari.
- Radio sozlamalari.
- Bluetooth® sozlamalari.
- Avtomobil sozlamalari.

Menyuni yopish yoki oldingi sahfaga qaytish uchun **BACK** (ORQAGA) tugmasini bosing.

Vaqt va sana sozlamalari

Ishlatish ⇨ 6-13 bo'limidagi "Individual sozlamalarni kiritish uchun sozlamalar menyusidan foydalanish"ga qarang.

Radio sozlamalari

AM-FM radio ⇨ 6-7 ga qarang.

Avtomobil sozlamalari

Komfort va qulaylik

Tovushli signal balandligi.

Tovushli ogohlantirish signali balandligini o'zgartirish.

Yoritish

Chiqishdagagi yoritish: Avtomobildan chiqqandagi yoritish tizimini yoqish yoki o'chirish va yoritish davomiyligini o'zgartirish.

Elektr yuritmali eshik quflari

Eshiklarni avtomatik tazrda qufldan ochish Barcha eshiklarni yoki faqat haydovchi eshigini qufldan ochish sozlamasini o'rgartirish yoki o't oldirish tizimi qufidan kalitni olgandan keyin (uzatmalar qutisi mexanik bo'lgan avtomobil-larda) / uzatmalarni almashlab ulash dastagini P (parkovka) holatiga o'tkazganda (uzatmalar qutisi avtomatik bo'lgan avtomobilarda) avtomatik tarzda eshikni qufldan ochish funksiyasini o'chirish.

Masofadan qulflash, qulfdan ochish, ishga tushirish

Masofadan qulfdan ochishni tasdiqlash:

Chiroqcha yonib o'chishi orqali qulfdan ochilganlikni tasdiqlash funksiyasini yoqish yoki o'chirish.

Masofadan eshiklarni qulfdan ochish:

Faqat haydovchi eshigi uchun yoki barcha eshiklar uchun qulfdan ochish konfiguratsiyasini o'zgartirish.

Qulfdan ochilgan eshiklarni masofadan qayta qulflash:

Eshik qulfdan ochilgandan so'ng ochilmaga avtomatik tarzda eshikni qayta qulflash funksiyasini yoqish yoki o'chirish.

Zavod sozlamaliga qaytarish

Barcha sozlamalar boshlang'ich holatga qaytadi.



ESLATMALAR


5 YORITISH

- TASHQI YORITISH 5-2
- ICHKI YORITISH 5-5
- YORITISH FUNKSIYALARI 5-6

TASHQI YORITISH

Tashqi chiroqlarni boshqarish elementlari

Yoritish almashlab ulagichi



Yoritish almashlab ulagichini burang:

○ : O'ch.

✖ : Gabarit chiroqlar, raqam belgisi chirog'i va priborlar paneli chirog'i yonadi.

☰ : Old faralar

Yoritish almashlab ulagichini bosing

✖ : Old tumanga qarshi faralar


ⓧ : Orqa tumanga qarshi faralar

Yoritish asboblari yoqilganda, ⚡✖ indikatori yonadi.

Tashqi chiroqlar yoniqligini eslatuvchi indikator ⚡ 4-14 bo'limga qarang.

Old fara uzoqni/yaqinni yoritish almashlab ulagichi

Uzoqni yoritish



Old faralarning uzoqni yoritish chiroqlarini faqat yaqinni yoritish chiroqlari yoqilgan bo'lsagina yoqish mumkin.

Yaqinni yoritishdan uzoqni yoritishga o'tkazish uchun burilish signali dastakchasini itaring.

Agar o't oldirish tizimi va uzoqni yoritish yoqilgan bo'lsa, priborlat panelidagi ☰ indikator yonadi. Uzoqni old faralarni yoritishdan yaqinni yoritishga o'tkazish uchun burilish signal dastakchasini o'zingizga torting.

Uzoqni yoritish yoqilganligi indikatori ⚡ 4-14 bo'limga qarang.

⚠ OGohlantirish!

Qarama-qarshi tomonidan kelayotgan avtomobilarga yaqinlashganingizda yoki boshqa avtomobillar sizning avtomobilningiza yaqinlashganda, doim old faralar ni uzoqni yoritishdan yaqinni yoritishga o'tkazing. Old faralar bilan uzoqni yoritish boshqa haydovchilarni vaqtincha ko'zini qamashtiradi, bu esa to'qnashuvga olib kelishi mumkin.


Uzoqni yoritish chirog'ini yoqib o'chirish



Old faralar bilan miltillatish funksiyasini yoqish uchun old faralar yoqilgan bo'lishi kerak. Old faralarning uzoqni yoritish chirog'i bilan qisqa vaqt signal berish uchun dastakchani torting. Dastakchani qo'yvorganda u o'zining odatiy

holatiga qaytadi. Dastakchani o'zingizga tortgan holda ushlab tursangiz, old faralarning uzoqni yoritish chirog'i yonib turaveradi.

Old fara yoritish ko'lamini sozlash



Qaramaqarshi tomonidan kelayotgan haydovchilar ko'zini qamashishini oldini olish uchun old fara yoritish qamrovini avtomobil yuklamasiga muvofiq sozlash uchun kallakni kerakli holatga burang.

0 : old o'rindiqlar band

1 : barcha o'rindiqlar band

2 : barcha o'rindiqlar band va yukxona bo'lmasiga yuk ortilgan

3 : haydovchi o'rindig'i band va yukxona bo'lmasiga yuk ortilgan

Avariya haqida chiroqli signalizatsiyalar




tugmasi orqali yoqildi.

Yoq. : ni bosing.

O'ch. : ni yana bosing.

Avariya chiroqlari yoqilganda, tugma ostidagi qizil chiroq ham miltillab turadi. Xavfsizlik yostiqchasi ishga tushib ketganda, avariya chiroqlari ham avtomatik tarzda yonadi. Avariya chiroqlarini o'chirish uchun shu tugmani yana bosing.

Burilish va qatorni o'zgartirish ishora chiroqli




Dastakchani yuqoriga : O'ngga burilish ko'satkichi

Dastakchani pastga : Chapga burilish ko'satkichi

Agar dastakchani qarshilik nuqtasidan o'tkazib yuborsangiz, burilish ko'satkichi doimo yoqilgan holatda qoladi. Rul chambaragi avtomobilni to'g'ri harakatlanish holatiga qaytasa, burilish ko'satkichi avtomatik tarzda o'chadi. Bir nechta qisqa miltillatishlarni berish uchun, masalan, bir qatordan boshqa qatorga o'tayotganda, dastakchani qarshilik sezilguncha bosing, so'ng, dastakchani qo'yoring. Uzoqroq miltillatib turish uchun dastakchani qarshilik nuqtasiga keltiring va shu holatda uni ushlab turing. Burilish ko'satkichini qo'l bilan o'chirish uchun dastakchani dastlabki holatiga qaytaring.

Old tumanga qarshi faralar




∅ tugmasi orqali yoqiladi. O'chirish uchun shu tugmani yana bosing.

Eslatma

Old tumanga qarshi faralarni yoqish uchun o't oldirish tizimi yoqilgan bo'lishi va gabarit chiroqlar yoki old faralar yoqilgan holatda bo'lishi kerak. Old tumanga qarshi faralar signalizatori ⇨ 4-14 bo'limiga qarang.

Orqa tumanga qarshi faralar



∅ tugmasi orqali yoqiladi. Almashlab ulagich ∅ holatida bo'lganda yoki old tumanga qarshi faralar yoqilgan bo'lganda, orqa tumanga qarshi faralarni yoqish mumkin.

Orqaga harakatlanish chiroqlari


Orqaga harakatlanish chirog'i qachonki o't oldirish tizimi yoqilgan va orqaga harakatlanish uzatmasi qo'shilgan bo'lsa yonadi.

Chiroqlar shisha korpusi terlashi

O'g'ir, namgarchilik va sovuq ob-havo sharoitlarida, kuchli yomg'ir yoqqanda yoki avtomobilni yuvgandan keyin yoritish asboblari shisha korpusining ichki tomoni qisqa vaqt terlashi mumkin. Ter o'z-o'zidan tezda yo'q bo'lib ketadi. Ushbu jarayonni tezlatish uchun faralarni yoqing.


ICHKI YORITISH

Priborlar paneli yoritilishini boshqarish



O't oldirish tizimi yoqilganda, priborlar paneli yonadi. Panel chirog'i yorqinligini tashqi faralar yoqilgan bo'lganda sozlash mumkin. G'ildirakchani tepaga yoki pastga buragan holda yorqinlikni sozlang.

Yukxona bo'lmasi chiroqlari



Yukxona eshigi ochilganda yukxonani yoritish chirog'i yonadi va yukxona eshigi yopilganda chiroq ham avtomatik tarzda o'chadi.

Avtomobilga kirganda va tushkanda yoritish



Almashlab ularash klavishini bosing:

■ Eshiklarni ochganda, o't oldirish qulfidan kalitni olganda va eshiklarni ochish haqida masofadan boshqarish pultidan buyruq berilganda, yonadi va o'chadi.

■ : Doimo yoqilgan.


○ : Doimo o'chirilgan.

OGOLANTIRISH!

Qorong'u vaqtida harakatlanganda salonnini yoritish tizimini yoqmang. Qorong'i vaqtida salonnini yoritish tizimini yoqish yo'lni ko'rishni yomonlashtiradi va to'qnashuvga olib kelishi mumkin.

YORITISH FUNKSIYALARI

Qo'lqoplar qutisi chiroqlari



Qo'lqoplar qutisini ochganda ushbu chiroq yonadi va yopilganda esa u o'chadi.

Avtomobilga o'tirishda yoritishni yoqish

Avtomobilga o'tirishda yoritish

Haydovchi eshigi ochilganda, salondagi bir qancha plafonlar va tugma ostidagi chiroqchalar qoshimchasiga yonadi.

Orqa tomondan yo'lni yoritish

Masofadan boshqarish pulti bilan yukxona eshigini ochganda ma'lum vaqt raqam belgisini yorituvchi chiroqchalar yonadi.

Avtomobildan tushgandagi yoritish

Old faralar yordamida haydovchi yo'lli biroz yoritiladi, faralar yoritib turadigan vaqtini belgilash mumkin.

Yoqish

Avtomobil sozlamalari orqali bu funksiyani yoqish yoki o'chirish va chiroqlar yonib turadigan vaqt davomiyligini belgilash mumkin. Avtomobil shaxsiylashtirish ⇨ 4-20 dagi "Avtomobilni sozlamalari" ga qarang.

Standart sozlamalarda chiqishdagi yoritish eshik yopilganidan so'ng 30 soniya davomida yopilgan holatda qolishga sozlangan bo'ladi.

1. O't oldirish tizimi o'chiring.
 2. O't oldirish tizimi qulfidan kalitni oling.
 3. Haydovchi eshigini oching.
 4. Burilishni ko'rsatish dastakchasi torting.
 5. Haydovchi eshigini yoping.
- Agar burilishni ko'rsatish dastakchasi yana birbor tortilsa, yoritish darhol o'chadi.

Akkumulyator batareyasi quvvatini himoyalash

Elektr chiroqlarni o'chirish

A k k u m u l y a t o r b a t a r e y a s i n i g zaryadsizlanishini oldini olish uchun o't oldirish tizimi o'chirilganda ma'lum vaqt o'tgandan so'ng salondagi ayrim chiroqlar avtomatik tarzda o'chadi.

6

AXBOROT-KO'NGILOCHAR TIZIMI

• KIRISH	6-2
• AM-FM-RADIO.....	6-6
• PERSONALLASHTIRISH	6-13
• BLUETOOTH.....	6-15
• ESLATMALAR	6-22

KIRISH

Umumiy ma'lumotlar

Axborot-ko'ngilochar tizimi eng yangi texnologiyalar yordamida avtomobilingizda axborot-ko'ngilochar dasturlarni yoritish uchun mo'ljallangan.

Siz har bir olti sahifaga 1 ~ 4 (oldindan sozlama) bo'yicha – tugmasi yordamida 24tagacha AM-FM radiostansiyalarni ro'yxatdan o'tkazib, radiodan yengillik bilan foydalanishingiz mumkin.

USB-pleer ulagan USB-to'plagichlarda yoki iPod qurilmalarida axborotlarni ijo etish uchun qo'llaniladi.

Bluetooth bo'yicha telefonni ulash funksiyasi baland aloqa rejimida simsiz telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirishga, hamda telefondagi musiqiy pleerdan foydalanishga imkon beradi.

Tashqi audiokirishga portativ musiqiy pleerni ulang va o'zingizni axborot-ko'ngilochar tizimingizni to'yingan ovoz taratishidan lazzatlaning. Raqamli tovushli protsessor tovushni maqbulashtirish uchun ekvalayzerning bir nechta oldindan o'rnatilgan rejimlarga egadir.

Texnik xarakteristikalar

- Maksimal kiruvchi quvvat: 25 Vt x 4 kanal
- Radiokarnay g'altaginiq qarshiligi: 4 Om

Tizimni menyuning sinchkovlik bilan o'ylangan sozlanuvchi qurilmasi, zakovatlari display va ko'p funksional sozlagich yordamida yengil sozlash mumkin.

- "Umumiy ma'lumot" (Overview) bo'limida axborot-ko'ngilochar tizimning oddiy funksiyalari va barcha sozlanuvchi qurilmalarning qisqacha tavsifi taqdim etilgan.
- "Boshqaruv" (Operation) bo'limida axborot-ko'ngilochar tizimini boshqarishning asosiy elementlari tavsiflangan.


"Anti-o'g'ri" funksiyasi

Axborot-ko'ngilochar tizimi o'g'riliklarni oldini olish uchun xavfsizlikni elektron tizimi bilan jihozlangan. Shunday qilib, axborot-ko'ngilochar tizimi faqat sizning avtomobilingizda ishlaydi va o'g'rilar uchun befoya bo'ladi.

IFETEL bayonoti

Ushbu qurilmani boshqarish quyidagi ikki shartlarga bog'liqdir:

1. ushbu qurilma nomaqbul xalallarni yaratishi kerak emas, va
2. ushbu qurilma har qanday xalallarni , shu jumladan ishlashda uzilishni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xalallarni qabul qilishi kerak.



Umumiy ma'lumot

- 1. Oziqlanish**
 - Oziqlanish mavjud bo'limganida, uni yoqish uchun bosing.
 - Oziqlanish yoqiligidagi uni o'chirish uchun bosing va ushlab turing.
 - Oziqlanish yoqiligidagi tovushni o'chirish funksiyasini yoqish yoki o'chirish uchun qisqa muddatli bosing.
 - Ovoz balandligini sozlash uchun aylantiring.
- 2. Display**

Display menyu holatini va axborotlarni ijro etish, qabul qilish, aks ettirish uchun mo'ljallangan.

- 3. -tugmalari** (oldindan sozlash)

- Radio rejimida:
Qisqa muddatli bosishda saqlangan radiostansiyaning yoqilishi amalga oshiriladi.
Bosishda va ushlab turishda joriy radiostansiya "Tanlanganlar" sahifasida saqlanadi.

- Menyu rejimida:
Ushbu tugmaga bog'langan funksiyani tanlash uchun ushbu tugmalardan istalganini bosing.

- 4. MENU**

- Ro'yxat ekranida stansiya/faylni topish yoki sozlamaga tarkibini/qiymatini ko'chirib o'tkazish/o'zgartirish uchun aylantiring.
- Joriy faoliyat yuritayotgan menyu yoki sozlamalar va ularning qiymatlarini tanlash/ishlash uchun "MENU" bosing.

5. FAV (tanlangan)

Sevimli saqlangan kanallari bilan sahifani tanlash uchun FAV bosing.

6. 🔍 / ►▶ (izlash)

- Radio rejimida:

Qisqa muddatli bosishda eng yaxshi signalga ega bo'lgan stansiyani avtomatik izlash bajariladi.

►▶ va 🔍 tugmalarini bosish va ushlab turishda toki tugmalar bosilgan holda bo'lib turishida stansiyalarning uzlusiz o'zgarishi sodir bo'ladi.

- USB/iPod/Bluetooth yordamida tovushni ijro etishda:

Qisqa muddatli bosishda oldingi yoki keyingi faylga o'tish bajariladi. Bosish va ushlab turishda faylning orqaga aylantirilishi yoki oldinga tez aylantirilishi sodir bo'ladi.

7. RADIO

Radio rejimini tanlash. "RADIO"ni har bir bosishda tizim AM RADIO → FM RADIO → AM RADIO →orasida o'zgaradi.

8. MEDIA

"AUX" rejimini yoqish uchun "MEDIA" bosing.

9. TELEFON

Telefon ilovasi rejimiga kirish uchun "PHONE" bosing.

Agar iPhone ulangan bo'lsa, Siri funksiyasiga kirish uchun bosing va ushlab turing.

10. ORQAGA (BACK)

Kontentni kiritilishini bekor qilish yoki oldingi menyuga qaytish.

Boshqaruv

Tugmalar va boshqaruvchi qurilma

Axborot-ko'ngilochar tizimni boshqarish funksional tugmalar, ko'p funksional disk va ekranدا aks ettiriluvchi menu yordamida amalga oshiriladi.

Tizimda qo'llaniluvchi tugmalar va boshqaruvchi qurilmalar quyidagi tarzda taqdim etilgan:

- Axborot-ko'ngilochar tizimning tugmalari va disk
- Rul chambaragidagi audiotizim yordamida masofadan boshqarish tugmasi

Tizimni yoqish/o'chirish



5027042

Oziqlanishni yoqish uchun Ⓞ ni bosing.

Oziqlanish o'chirilganida, Ⓞ ni bosish oziqlanishni yoqadi va radioshetirishni ijro etilishini amalga oshiradi.

Oziqlanishni avtomatik yoqish

- Chaqiruvni qabul qilish yoki tashabbuslik qilishda, oziqlanish yoqildi va muvofiq buyruq bajariladi. Harakat yakunlanganidan keyin, tizim avtomatik oziqlanishni o'chiradi.
- IVHK (isitish, ventilyatsiya va havoni konditsionirlash) tizimi tugmasini bosishda tizim oziqlanishni yoqadi va muvofiq buyruqni bajaradi.

Agar 5 sekund davomida hech qanday harakatlar amalga oshirilmasa, tizim oziqlanishni avtomatik o'chiradi.

12:34
2016/01/25

30°

5027043

Oziqlanishni o'chirish uchun Ⓞ ni bosing va ushlab turing.

Tizim o'chirilgan vaqtidagi rejimda vaqt va sana aks ettiriladi.

Ovoz balandligi sozlagichi

5034235

Ovoz balandligini sozlash uchun Ⓛ ni aylantiriring.

- Rul chambabaragidagi audiotizimni masofadan boshqarish pulni yordamida ovoz balandligini sozlash uchun + Ⓛ ni bosing.
- Ovoz balandligini erishimli oralig'i: 0 ~ 63.
- Ovoz balandligini 0 gacha pasaytirilishi ovozning o'chirilishiga ekvivalent bo'lmaydi.
- Axborot-ko'ngilochar tizim oziqlanishi yoqilishida ovoz balandligi darajasi avvalgi rejimga o'rnatiladi (agar u maksimal boshlang'ich ovoz balandligidan past bo'lsa).

Tovush o'chirilishini boshqarish


Tovushni o'chirishni yoqish uchun Ⓛ ni bosing.

- Tovushni o'chirish nishoni ⚡ holat maydonida aks ettiriladi va tovush o'chirib qo'yiladi.
- Tovush qiymatini tiklash uchun Ⓛ ni yana bir marta bosing yoki Ⓛ ni aylantiriring.
- USB/iPod, Bluetooth va MTPdan misiqani ijro etish rejimida, agar tizimdagi tovush o'chirilgan bo'lsa, ijro etish to'xtatiladi.

Ton sozlamalari

Tonni sozlash ekraniga o'tish uchun "TONE"ni bosing.

Yoki tonni sozlash ekraniga o'tish uchun "MENU" > "Sozlamalar"ni tanlang > "Ton sozlamalari"ni tanlashni bosing.



5034236

- Tonni sozlash rejimini tanlash uchun "MENU"ni yoqing. Baslar ↔ O'rta chastotalalar ↔ Yuqori chastotalalar ↔ Mikshirlash ↔ Balans ↔ Ekvalayzer rejimlari orasida o'tish uchun "MENU"dan foydalaning.
- Tonni sozlashning kerakli parametrini ajratib ko'sating va uning joriy qiymatini o'zgartirish uchun "MENU" bosing.

- "MENU" burlilishida tonni sozlash qiymati o'zgaradi, va o'zgarishlar displayda grafik satrda aks ettirilgan bo'ladi. Yangi sozlamani saqlash va tonni sozlash ekraniga qaytish uchun "MENU"ni bosing.

Tonni sozlash menyusi

- Baslar:** Past chastotalarda sado darajasini sozlash.
- O'rta chastotalalar:** O'rta chastotalarda sado darajasini sozlash.
- Yuqori chastotalalar:** Yuqori chastotalarda sado darajasini sozlash.
- Mikshirlash** (mikshirlash dinamiklari o'rnatilgan bo'lsa): Oldingi va orqa dinamiklar orasida tovushni mikshirlanishini sozlash.
- Balans:** O'ng va chap dinamiklar orasida tovush balansini sozlash.
- Ekvalayzer:** Ekvaylazerning 7ta stillaridan (Custom, Pop, Rock, Country, Jazz, Talk, Classical) birini sozlash.
- Tonni sozlash qiymatlari -12 dan +12 gacha o'zgarib turadi.
- Baslarni, o'rta chastotalarni, yuqori chastotalarni va ekvalayzerni sozlamalari har bir rejim uchun (FM / AM / USB / MTP/iPod /Bluetooth music) har xil o'rnatilishi mumkin.
- Biroq, Mikshirlash va Balans sozlamalari barcha rejimlar uchun umumiy hisoblanadi.

AM-FM-RADIO**Funksiyani tanlash****AM-FM-radio**

5027042

AM yoki FM funksiyasini tanlash uchun "**RADIO**" tugmasini bosing.

O'z ichiga ijro etish stansiyalarni opsiyalarini kirituvchi AM yoki FM menyuni ochish uchun "**MENU**"ni bosing.


USB / iPod / Bluetooth (AUX: agar ko'zda tutilgan bo'lса) orqali musiqani yoki tashqi ovozli signalni ijro etish.



5034238

Audioplearning kerakli funksiyalarini tanlash uchun "**MEDIA**" tugmasini bosing.

Muvofiq funksiya uchun opsiyali menyuni yoki muvofiq qurilma menyusini ochish uchun "**MENU**"ni bosing.

Bluetooth orqali ovozli aloqa qurilmasi

5034237

Bluetooth orqali baland aloqa funksiyasini yoqish uchun "PHONE" tugmasini bosing.

Radiostansiyalarni tinglash**Radio rejimini tanlash**

5027042

AM RADIO → FM RADIO → AM RADIO → ... orasida o'tish uchun bir necha marta "RADIO" tugmasini bosing.

- Avval tanlangan radiostansiyaning qabul qilinishi bajariladi.
- "RADIO" tugmasi yordamida radioaloqa rejimini / oraliqni o'zgartirishda tizim avval qabulqilgichning dastlabki ko'rinishi aks ettiriladi.
- Ijro etish ekranida audio-eshitirish manbaini ta'riflovchi elementlar taqdim etiladi.

Stansiyalarni izlash

Maksimal sifatli signalga ega bo'lgan radiostansiyalarni avtomatik izlanishini ishga tushirish uchun ||| yoki ||| ni bosing.

||| yoki ||| tugmalarini doimiy bosish yoki ularni ushlab turish stansiyalar o'zgarishi toki siz tugmani qo'yib yubormaguningizcha davom etadi. Siz tugmani qo'yib yuborganingizdan keyin tizim keyingi stansiyani izlashni bajaradi.

Radiostansiyani qo'lida sozlash

Eshittirishni kerakli chastotasini qo'lida topish uchun "MENU"ni aylantiring.

Tanlanganni saqlash

"FAV" tugmasini takroran bosilishi saqlangan tanlangandan zaruriy stansiyalarini tanlanishini ta'minlaydi.

"Tanlangan" sahifasida ushbu tugma yordamida joriy radostansiyani chaqiruvini saqlash uchun - bilan belgilangan tugmalardan istalganini bosing va ushlab turing.

- "Tanlangan"da 6tagacha sahifani saqlash mumkin, va har bir sahfada to'rttagacha radiostansiyalarini saqlash mumkin.
- Menyu → Tanlangan sahifalarni sonini o'rnatishga murojaat qilib, "Tanlangan"da qo'llaniluvchi sahifalarning sonini sozlash mumkin.
- Yangi radiostansiyani saqlashda "-" tugmasi bilan chaqiruv bo'yicha (oldindan sozlash), oldingi kontent o'chirib yuboriladi va yangi radiostansiya bilan almashtiriladi.
- Foydalanuvchi saqlab qo'yishi mumkin bo'lgan "Tanlangan"da bandlarning maksimal soni 24tani tashkil qiladi.

Oldindan sozlamalarni tanlash

Oldindan o'rnatilgan kerakli "FAV" sahfasini tanlash uchun "FAV" tugmasini bir necha marta bosing.

- Tanlangan oldindan o'rnatilgan "FAV" sahfasi ijro etilishi haqidagi ma'lumot aks ettiriladi.

Ushbu tugmaga bevosita bog'langan radiostansiyani eshitish uchun – tugmasini bosing.

To'lqinlar oralig'i menyusi



4237902

Radioni eshitish vaqtida AM yoki FM menyusiga o'tish uchun "MENU"ni bosing.
Menyuni kerakli elementiga o'tish uchun "MENU"ni aylantiring, so'ngra esa muvofiq elementni tanlash yoki elementning batafsil menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing.

AM-FM menyusi

- Stansiyalar ro'yxati: tanlangan stansiyalar ro'yxatida stansiyani tanlaydi.
- Stansiyalar ro'yxatini yangilash: avtomatik izlash va stansiyalar ro'yxatida erishimli chastotalarni saqlash.
- Qo'lida sozlash: oldingi/keyingi chastotaga o'tish uchun qisqa muddatga diskni buring.
- Tanlangan stansiyalar sonini o'rnatish: tanlangan stansiyalar sonini o'rnatish.

Ma'lumotlarni radioeshittirish tizimi (RDS) (faqat RDS xizmat ko'rsatish mintaqalari uchun)

Ma'lumotlarni radioeshittirish tizimi (RDS) - FM-stansiyalar xizmati bo'lib, u maksimal sifatlari signalga ega bo'lgan radiostansiyalarini izlashni ahamiyatli yengillashtiradi.



RDS stansiyalari eshitirish chastotasini o'rniga dastur nomlanishi bilan belgilanadi. TP funksiyasi yoqilgan vaqtida faqat TPni qo'llab-quvvatlashga ega bo'lgan stansiyalarini yoki EON-TAni qo'llab-quvvatlashga ega bo'lgan stansiyalarini izlash amalga oshiriladi. TP funksiya o'chirilgan vaqtida, izlash barcha erishimli stansiyalarini yoqadi.

Stansiyalarni sozlash/izlash va oldingi sozlamalarni saqlash/tanlash kabi bazaviy operatsiyalar shunday bilan AM yoki FM uchun o'xshashdir. Iltimos, qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun AM yoki FM haqidagi ma'lumotga ega bo'lgan bo'limga murojaat qiling.

RDS menyusini sozlash (agar u erishimli bo'lsa)

Radioni eshitish vaqtida FM menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing.

Kerakli elementga o'tish uchun MENUni aylantiring, so'ngra esa muvofiq elementni tanlash yoki elementning batafsil menyusiga kirish uchun MENUni bosing.

- Yo'l harakatini nazorat qilish dasturi (TP): TAP funksiyasini yoqish yoki o'chirish. TP funksiyasi FM menyuda yoqilgan vaqtida, tizim eng kuchli erishimli TP stansiyasiga sozlanish uchun TP izlanishini tashabbuslaydi.
- RDS: RDS funksiyasini yoqish yoki o'chirish. RDS yoqilgan vaqtida, chastota o'rniga joriy stansianing dasturi nomlanishi paydo bo'ladi. RDS o'chirilgan vaqtida, RDS matni va muqobil chastota funksiyasi o'chiriladi, PSN (PS nomi) o'rniga esa chastota aks ettiriladi.
- Mintaqqa: mintaqqa bo'yicha funksiyani yoqish va o'chirish. Xuddi o'sha mintaqaviy dasturlar eshittirilishi bo'yicha faqat muqobil chastotalar tanlanadi.
- Toifalar (FM toifasi): ro'yxatdan radiostansiyanı tanlash. Ro'yxat quyidagi tartibda aks ettiriladi: Ma'lumot → Pop → Rok → Klassika → Musiqa → Barchasi.

Yo'ladi holat haqidagi xabar tovushi (TA: agar mavjud bo'lsa)

Yo'ladi holat haqidagi signalning ijro etilishida, ushbu signalning tovushini P yordamida sozlash mumkin. Tizim yo'ladi holat haqidagi keyingi signallarni ijro etish uchun ushbu parametrnii saqlab qo'yadi.

- Xabarlash signali yakunlanganidan so'ng, tizimning tovush balandligi avvalgi darajaga qaytadi.
- Agar yo'ladi holat haqidagi signalning tovush balandligi xabarlash vaqtida nolga o'rnatilgan bo'lsa, keyingi signal tovush balandligining minimal darajasida ijro etiladi.

Radiomuzokaralar xizmati (agar mavjud bo'lsa)

(TR: Yo'l harakati nazorati dasturi) Yo'l harakati xizmati radiostansiysi - bu RDS stansiyalari bo'lib, ular yo'l harakati haqidagi yangiliklarni uzatadi.

"MENU"ni bosing > TRni tanlash uchun "MENU"ni aylantiring > TR funksiyasini yoqish yoki o'chirish uchun "MENU"ni bosing.

- Agar joriy stansiya yo'l harakati xizmati stansiyasi hisoblanmasa, yo'l harakati xizmatining keyingi stansiyasini izlash avtomatik ishga tushiriladi.

- Yo'l harakati xizmati stansiyasi topilishi bilan, display ekranida "TR" yozuvni aks etadi.

- Agar yo'l harakati xizmati stansiyasi yoqilgan bo'lsa, u barcha rejimlarda yo'ladi holat haqidagi xabarlar jo'natilishi vaqtiga uzilib qoladi.

Yo'ladi holat haqidagi xabarlarni bloklash

Agar audiomanbanli eshitish vaqtida yo'ladi holat haqidagi ogohlantirish kelib tushishni boshlasa, tizim displayga ogohlantirish bilan sizib chiquvchi darchani aks ettiradi. Sizib chiquvchi darcha (TR: Yo'l harakati nazorati dasturi)

- Yo'ladi holat haqidagi ogohlantirishli sizib chiquvchi darchaning displayda paydo bo'lishida, uni, shuningdek, radio, media yoki-(bekor qilish)ga almashtirish mumkin.
- Agar tashqi qurilmani ularshda displayda yo'ladi holat haqidagi ogohlantirishli sizib chiquvchi darcha paydo bo'layotgan bo'lsa, tizim qurilmadan ma'lumotlarni o'qishni to'xtatadi.
- Agar kiruvchi yoki chiquvchi qo'ng'iroq vaqtida displayda yo'ladi holat haqidagi ogohlantirishli sizib chiquvchi darcha paydo bo'layotgan bo'lsa, demak qo'ng'iroq qabul qilingan yoki bajarilgan bo'ladi.

- Telefon orqali so'zlashuv yakunlangandan so'ng tizim TA paydo bo'lishini bekor qiladi va radioaloqaning oxirgi rejimiga qaytadi.

Yordamchi qurilmalar

USB-pleer

USB-qurilmalarni qo'llashda ehtiyojkorlik choralari

- Agar o'rnatilgan qattiq disk, USB-to'plagich yoki CF yoki SD xotira kartalari USB-adapter yordamida ulangan bo'lsa, faoliyat yuritish kafolatlanmaydi. USB yoki flesh-xotira turidagi xotira qurilmasidan foydalaning.
- USBni ularsha yoki uzhishda statik elektrning razryadidan saqlanish uchun ehtiyojkorlikka ryoja qiling. Agar ularish va uzhish qisqa vaqt davomida takroran ko'p marta bajarilayotgan bo'lsa, bu qurilmani qo'llash bilan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
- Agar USB-qurilmaning ulovchi raz'yomi nometall hisoblanadigan bo'lsa, faoliyat yuritish kafolatlanmaydi.
- i-Stick turidagi USB-to'plagichlar bilan ularishda avtomobilning vibratsiyasi sababli uzhish bo'lishi mumkin, shuning uchun ularning faoliyat yuritishi kafolatlanishi mumkin emas.
- Ehtiyojkorlikni namoyish qiling va biron bir buyumlar yoki tana qismlari bilan USB raz'yomga teginmang.
- USB-to'plagich, agar u FAT16/32 format bo'yicha formatlangan holatdagina aniqlangan bo'lishi mumkin. Faqat 512 bayt/sektor yoki 2048 bayt/sektor blokning ajratilgan o'lchamiga ega bo'lgan qurilmalarni qo'llashga ruxsat etiladi. NTFS va boshqa faytizimlarni aniqlanmaydi.
- USB-to'plagichning turiga va uning hajmiga va saqlangan faylning turiga bog'liq holda fayllarni aniqlash uchun zarur bo'lgan vaqt o'zgarib turishi mumkin. Ushbu holatda bu mahsulot bilan muammo hisoblanmaydi, shuning uchun fayllarga ishllov berish yakunlanishini kutish kerak.
- Ba'zi USB-to'plagichlardagi fayllar mos keluvchanlik muammosi sababi bo'yicha aniqlanishi mumkin bo'lmaydi, xotira kartalarini o'qish qurilmalariiga yoki USB-konsentratorga ularish esa qo'llab-quvvatlanmaydi. Qo'llashdan avval avtomobilning qurilmaning ish qobiliyatini tekshirish lozim bo'ladi.
- MP3-pleer yoki raqamli kamera kabi shunday qurilmalarni mobil disk orqali ularashda ular noto'g'ri ishlashi mumkin.
- Iro etish vaqtida USB-to'plagichni chiqarib olmang. Bu mahsulotning shikastlanishiga yoki USB-qurilmaning unumdarligini buzilishiga olib kelishi mumkin.

- Ulangan USB-to'plagichni avtomobilning o't oldirishi o'chirilgan vaqtda uzhish lozim bo'ladi. Agar USB-to'plagich ulangan vaqtda o't oldirish yoqiladigan bo'lsa, u shikastlanishi yoki ba'zi holatlarda uzhish sodir bo'lishi mumkin.

Diqqat: USB-to'plagichlarni ushbu qurilmaga faqat musiqiy fayllarni iro etish uchun ulash mumkin.

Qurilmaning USB-raz'yomini qo'shimcha USB-asbob-uskunalarini quvvatlash uchun qo'llash yaramaydi, chunki USB-raz'yomdan issiqlikning ajratilishi unumdarlik bilan muammolarga yoki qurilmaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

- Katta hajmdagi USB-to'plagichdan mantiqiy disk uzhishida, USB musiqiy fayllari sifatida faqat yuqori darajadagi mantiqiy diskdan fayllar iro etiladi. Shu sababli iro etiluvchi musiqiy fayllarni qurilmaning yuqori darajasidagi diskida saqlash zarur. Muayyan USB-to'plagichlardagi musiqiy fayllar, shuningdek, agar ilova USB-qurilmaning ichida alohida diskda bo'lilmalarni yaratish yo'lli bilan yuklanayotgan bo'lsa, me'yordagi rejimda iro etilmaydi.

- DRM (mualliflik huquqlarini himoyalash texnik vositalari) qo'llaniluvchi musiqiy fayllar iro etilishi mumkin emas.

Ushbu qurilma 6000ta fayllar, 100ta papkalar va papkalar tuzilmasining 8ta darajasi cheklolvariga ega bo'lgan 16 gigabaytgacha sig'imdagi USB-to'plagichlar bilan ishlashni qo'llab-quvvatlamaydi. Parametrлari ko'satib o'tilgan chegaraviy ko'satkichlardan yuqori bo'lgan to'plagichlarga nisbatan me'yordagi ishlas kafolatlanishi mumkin emas.

Agar qurilma yuklanishi odatdagidan ko'proq vaqtini band etayotgan bo'lса, qo'llashni USB FAT16/32 formatda formatlanishidan keyin davom ettirilishi kerak.

USB musiqiy fayllarini qo'llashda nimalarga e'tiborni qaratish lozim


- Shikastlangan musiqiy fayllar ijro etilishda "uzilishi" yoki umuman ijro etilmasligi mumkin.


MP3 (WMA) formatidagi musiqiy fayllar

- Ijro etish uchun quyidagi MP3-fayllar erishimlidir:
 - Ma'lumotlar uzatish tezligi: 8 kbit/s ~ 320 kbit/s
 - Diskretizatsiya chastotasi: 48 kGs, 44,1 kGs, 32 kGs (MPEG-1 uchun) 24 kGs, 22,05 kGs, 16 kGs (MPEG-2 uchun)
- Ushbu qurilma mp3, .wma (satrli harflar) yoki .MP3 yoki .WMA (katta harflar) fayllar nomlanishi kengaytirmalari bilan MP3 (WMA) fayllarni ijro etadi.

- Ushbu qurilma ijrochi haqidagi ma'lumotlarni, ashulaning nomini yoki MR3 fayl nomini aks ettirishi mumkin.
- Ushbu qurilma VBRni jalb qiluvchi MP3-fayllarni ijro etishi mumkin. VBR turidagi MP3 faylni ijro etishda aks ettiriluvchi qoldiq vaqt haqiqatda qolgan vaqtdan farq qilishi mumkin.

Musiqiy fayllarni ijro etish tartibi



USB-to'plagichni ularash

4999413

Musiqiy fayllar saqlanuvchi USB-to'plagichni
USB raz'yomiga ulang.

Artist Name		12:34
File Name		
00:00:03		30°

5034238

Qurilma USB-to'plagichdan ma'lumotlarni o'qishni yakunlashi bilanoq u avtomatik tarzda ijro etishini boshlaydi.

Agar o'qilmaydigan USB-to'plagich ulangan bo'lsa, xatolik haqidagi xabar paydo bo'ladi, va

qurilma avval qo'llanilgan funksiyaga yoki FM-radio funksiyasiga avtomatik o'zgaradi.

Agar ma'lumotlarni o'qish zarur bo'lgan USB-to'plagich ulanib bo'lingan bo'lsa, USB proigrivatelni tanlash uchun bir necha marta MEDIAni bosing.

- U avvalgi ijro etish nuqtasidan ijro etishni avtomatik davom ettiradi.
- Agar qurilma ulanmagan bo'lsa, ekranda "O'TKAZIB YUBORISH" (DISMISS) yoki "BIRIKTIRISHNI BAJARISH" (PAIR) opsiya bilan "Erishimli tashuvchilar yo'q" (No Media Available) xabari paydo bo'ladi.
- Aks ettiriluvchi ma'lumot o'z ichiga fayl nomini, papka nomini va ashula bilan birgalikda saqlangan ID3 tegi bo'yicha ma'lumotni kiritadi.

Agar ID3 tegi bo'yicha noto'g'ri ma'lumot (masalan, ijrochi, ashula nomi) ular diskga yozilgunga qadar MP3 (WMA) fayllarga qo'shilgan bo'lsa, ushbu ma'lumot boricha axborot-ko'ngilochar tizimi tomonidan aks ettirib turiladi.

ID3 tegi bo'yicha noto'g'ri ma'lumot axborot-ko'ngilochar tizimida o'zgartirilishi yoki tuzatilishi mumkin emas (ID3 teglarini faqat ShKda tuzatish mumkin).

Maxsus belgililar yoki erishimli bo'limgan tilda aks ettirilgan ashula haqidagi ma'lumot "****" kabi aks ettirilishi yoki umuman aks ettirilmasligi mumkin.

USB musiqiy fayllarni ijro etilishini yakunlash

Boshqa funksiyalarini tanlash uchun "RADIO" yoki "MEDIA"ni bosing.

Ijro etish uchun faylni tanlash

Oldingi yoki keyingi faylni tanlash uchun ijro etish vaqtida yoki ni bosing.

Rul chambaragidagi audiotizimni masofadan boshqarish pulti yordamida fayllarni yoki tugmalarini bosib, oson almashtirish mumkin. Fayllar ro'yxatida kerakli faylni joyini o'zgartirish uchun "MENU"ni aylantiring, so'ngra esa uni bir lahzada o'zgartirish uchun "MENU"ni bosing.

Oldinga tezkor o'tish va faylni aylantirib o'tkazish

Ijro etish vaqtida qo'shiqni aylantirib o'tkazish yoki boshqa qo'shiqqa tez o'tish uchun yoki tugmalarini bosing va ularni ushlab turing. Siz tugmani qo'yib yuborganingizdan keyin fayl me'yordagi tezlikda ijro etilishni davom ettiradi.

USB menyusini qo'llash

Faylni ijro etish vaqtida USB Menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing.

Kerakli elementga o'tish uchun "MENU"ni aylantiring, so'ngra esa muvofiq elementni tanlash yoki elementning batfasil menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing.

- **Papkalarni ko'zdan kechirish:** Papkalarni ko'zdan kechirish rejimiga kiring va oldingi yoki keyingi papkaga o'ting.
- **Tasodifiy tartib:** Tasodifiy tartibda ijro etish funksiyasini yoqing yoki o'chiring.

Ko'rish-indeksatsiya uchun qurilma

- Ko'rish toki ulangan qurilmaning indeksatsiyasi yakunlanmagunga qadar qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Agar indeksatsiya jarayonida ko'rish funksiyasi tanlangan bo'lsa, "Funksiya indeksatsiya vaqtida qo'llab-quvvatlanmaydi, tarkibni ko'rish uchun papkani ko'rishdan foydalaning" sizib chiquvchi darcha paydo bo'ladi.
- 600 dan ortiq qo'shiqlar yozilgan bitta qurilma ularnishida, "Multimedia indeksatsiyasi uchun xotira to'lgan. Papkani ko'rishdan foydalaning yoki boshqa qurilmani olib tashlang" sizib chiquvchi darchasi paydo bo'ladi.

Multimedia uzatish protokoli (MTP) menyusining qo'llanilishi

Faqat quvvatlash uchun: MTP qurilmasi uchun quvvatlash opsiyasini tanlang. MTP qurilmasi quvvatlanadi, tizim esa u ulangan vaqtida sizib chiquvchi xabarni aks ettiradi.

- Multimedia uzatish protokoli (MTP) sozlamalari menyusida "Faqat quvvatlash"

parametri tanlangan vaqtida, tovush manbai o'zgarmay qoladi, va ulangan qurilma faqat quvvatlanadi.

- Agar siz qurilmani quvvatlash vaqtida USB rejimiga o'tayotganingizda, display ekranida quvvatlash faolligi indikatori bilan quvvatlash haqida xabar paydo bo'ladi. Ushbu holatda t i z i m q u r i l m a d a g i f a y l l a r n i indeksatsiyalashdan to'xtaydi.
- MTR ba'zi qurilmalari quvvatlash funksiyasini qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.

Faqat musiqiy fayllarga ega bo'lgan papkalarni skanirlash: MTP qurilmasi uchun "Musiqiy fayllarga ega bo'lgan papkani skanirlash" parametrini tanlang.

Tizim ijrochi nomi/qo'shiq nomi/joriy qo'shiqni boshlanishidan o'tgan vaqtini aks ettirishi va MTP qurilmasidagi pley-varaqqa kirishni olishi mumkin.

Barcha papkalarni skanirlash: MTP qurilmasi uchun barcha papkalarni skanirlash parametrini tanlang.


- Qurilmani indeksatsiyalash "Faqat musiqiy fayllarga ega bo'lgan papkani skanirlash" parametrini sozlashga qaraganda ko'proq vaqtini band qiladi. Bu smartfonga va smarotfondagi fayllar/papkalarga bog'liq bo'ladi.
- Multimedia uzatish protokoli (MTP) bilan jihozlangan ba'zi telefonlarda musiqani izlash uzoq vaqtini band qilishi mumkin.

- Agar telefon ekranini bloklangan bo'lsa, musiqani izlash imkonи bo'lmaydi. Telefondagи musiqaga kirish huquqini olish uchun telefon ekranini blokdan chiqaring.
- Nosoz qurilmani ularshda tizim noto'g'ri ishlashi mumkin.

PERSONALLASHTIRISH

AUX kirishi (agar u ko'zda tutilgan bo'lsa)

Tashqi ovoz qurilmasini ularsh



4009089

Tashqi audioqurilmaning audiochiqishini AUX kirishiغا ulang.

Axborot-ko'ngilochar tizim tashqi ovoz qurilmasi ularnishida tashqi ovozni (AUX) kiritish rejimiga avtomatik o'zgaradi.



5034721

Agar tashqi ovoz tizimi ulab bo'lingan bo'lsa, tashqi ovozni kiritish rejimiga o'tish uchun "MEDIA"ni bosing. Ovoz balandligini sozlash uchun Pni aylantiring.

Personallashtirishni bajarish uchun sozlamalar menyusidan qanday foydalaniлади

- Sozlamalar va funksiyalar menyusi avtomobil modeliga bog'liq holda farq qilishi mumkin.
- Sozlamalar menyusi - bu sozlamalarning muvofiq menyusi yoki faoliyat yuritishning holati elementlarining batafsил ro'yxati.
- Agar muvofiq batafsил ro'yxatdan elementlarning boshqa batafsил ro'yxati kelib chiqayotgan bo'lsa, siz ushbu harakatni takrorlashingiz mumkin.

Menyuda "Sozlamalar"ni tanlang > menyuning kerakli elementiga o'tish uchun "**MENU**"ni bosing > elementning batafsил menyusiga kirish uchun "**MENU**"ni bosing.

Vaqt va sanani o'rnatish

Vaqtni o'rnatish: Qo'lда soat va minutlarni o'rnatting.

- Menyuning muvofiq kichik bandiga kirish uchun "Vaqt va sana" menyusida "Vaqtni o'rnatish"ni tanlang.
- Vaqt formatini 12 soat yoki 24 soat qilib tanlash uchun -ni bosing.
- Soat ko'rsatkichlarini o'zgartirish uchun "**MENU**" tugmasini aylantiring, so'ngra esa minutlarni sozlashga o'tish uchun "**MENU**"ni bosing.

• Minutlar ko'rsatkichlarini o'zgartirish uchun "**MENU**" tugmasini aylantiring, so'ngra esa yarim kundan oldin yoki undan keyingi sozlamaga o'tish uchun "**MENU**"ni bosing.

• Yarim kundan oldin yoki undan keyingi sozlamani tanlash uchun "**MENU**" tugmasini aylantiring, so'ngra esa vaqtini sozlanishini yakunlash uchun "**MENU**"ni bosing. "**MENU**" tugmasini bosishda, sana va vaqtini sozlash menyusi avtomatik tarzda aks ettirib turiladi.

Sanani o'rnatish: Qo'lда joriy yil, oy va sanani kriting.

Menyuning muvofiq kichik bandiga kirish uchun "Vaqt va sana" menyusida "Sanani o'rnatish"ni tanlang. Sana formatini tanlash uchun - ni bosing. Format quyidagi tarzda taqdim etilgan:

KK/OO/YYYY: 2016 yil 15 oktabr

OO/KK/YYYY: oktabr, 15, 2016 yil

YYYY/OO/KK: 2016 yil, oktabr, 15

• Oyni o'zgartirish uchun "**MENU**" tugmasini aylantiring, so'ngra esa sanani sozlashga o'tish uchun "**MENU**"ni bosing.

• Sanani o'zgartirish uchun "**MENU**" tugmasini aylantiring, so'ngra esa yilni sozlashga o'tish uchun "**MENU**"ni bosing.

• Yilni o'zgartirish uchun "**MENU**" tugmasini aylantiring, so'ngra esa sanani sozlashga o'tish uchun "**MENU**"ni bosing. "**MENU**" tugmasini bosishda, sana va vaqtini sozlash menyusi avtomatik tarzda aks ettirib turiladi.

Vaqt va sanani avtomatik o'rnatish.

"Vaqtni o'rnatish" menyusida vaqtini sozlash rejimini tanlash uchun -ni bosing.

- O'chirish (qo'lida): Qo'l rejimini faollashtiradi.
- Mobil tarmoq: Uyali tarmoq bo'yicha soatlarni sinxronlashtirish funksiyasini yoqing yoki o'chiring.
- RDS bo'yicha: RDS bilan soatlarni sinxronlashtirish funksiyasini yoqing yoki o'chiring.

Tonni sozlash

- Batafsil ma'lumotlar 7-sahifada taqdim etilgan.

Avtomatik ovoz balandligini sozlash

Avtomatik ovoz balandligi funksiyasi avtomobil tezligiga yoki uning atrofidagi shovqin xalallariga bog'liq holda ovoz balandligini sozlaydi.

- O'chirish: Ovoz balandligini avtomatik sozlash ishlamaydi.
- Past daraja: Avtomobil tezligini o'zgartirishda ovoz balandligini sozlash uchun pastki diapazonning ovoz balandligini egri chizig'i qo'llaniladi.
- O'tacha-past daraja: O'tacha-past darajani sozlash muvofiq tarzda pastdan o'tagacha taxminiy diapazonda ovoz balandligini avtomatik sozlaydi.

- O'rtacha daraja: Avtomobil tezligini o'zgartirishda ovoz balandligini sozlash uchun o'tacha diapazonning ovoz balandligini egri chizig'i qo'llaniladi.
- O'rtacha-baland daraja: O'rtacha-baland darajani sozlash muvofiq tarzda o'tachadan balandgacha taxminiy diapazonda ovoz balandligini avtomatik sozlaydi.
- Baland daraja: Avtomobil tezligini o'zgartirishda ovoz balandligini sozlash uchun ovoz balandligini ancha jadal egri chizig'i qo'llaniladi.

Ishga tushirishda maksimal ovoz balandligini sozlash

Ishga tushirishda ovoz balandligini maksimal chegaraviy ko'satkichini qo'lda o'rnatish.

Tilni sozlash

Sozlamalar menyusida Avtomobil sozlamalarini tanlash uchun "MENU" tugmasini aylantiring > "MENU"ni bosing > Tillarni tanlash uchun "MENU"ni aylantiring > elementning batafsil menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing. Zaruriy tilni tanlang.

Zavod sozlamalariga qaytish

Sozlamalar menyusida Avtomobil sozlamalarini tanlash uchun "MENU" tugmasini aylantiring > "MENU"ni bosing > Zavod sozlamalariga

qaytishni tanlash uchun "MENU"ni aylantiring > elementning batafsil menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing.

Barcha sozlamalarni dastlabki bo'yicha rejimgacha tiklash

Dasturiy ta'minot haqida ma'lumot

Sozlamalar menyusida Avtomobil sozlamalarini tanlash uchun "MENU" tugmasini aylantiring > "MENU"ni bosing > Dasturiy ta'minot haqidagi ma'lumotlarni tanlash uchun "MENU"ni aylantiring > elementning batafsil menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing. Dasturiy ta'minotning joriy versiyasini aks ettirish.

"Valet" rejimi

Ushbu rejim axborot-ko'ngilochar tizimni va rul chambaragidagi boshqarish vositalarini bloklaydi. Shuningdek, u transport vositalarini saqlash joylariga kirishni cheklashi mumkin (agar ko'zda tutilgan bo'lsa).

"Valet" rejimini o'chirish uchun, to'rtta raqamli kodni kriting va "TUNE" diskini yordamida "Kiritish"ni tanlang > To'rtta raqamli kodni takroran kriting. Tizimni bloklash yoki blokdan chiqarish uchun "Bloklash" yoki "Blokdan chiqarish"ni tanlang.

BLUETOOTH

Bluetooth haqida ma'lumot

Bluetooth simsiz texnologiya haqida ma'lumot

- Bluetooth® simsiz texnologiya qisqa masofalarda simsiz aloqa texnologiyasiga taalluqli bo'lib, u muayyan masofada har xil qurilmalarni ularsh uchun 2,45 GGs chastotani qo'llaydi.
- ShK, tashqi qurilmalar, Bluetooth® telefonlari, ChShK, avtomobilning har xil elektron qurilmalar va tizimlari bilan qo'llab-quvvatlanadigan Bluetooth® simsiz texnologiya ulovchi kabelni qo'llamasdan yuqori tezlikda ma'lumotlarni uzatadi.
- "Bluetooth® Hands-free" texnologiyasi foydalanuvchiga multimedia tizimi orqali Bluetooth® bilan jihozlangan mobil telefonlardan qulay telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish imkonini beruvchi qurilmalar sarasiga kiradi.

"Bluetooth orqali qurilmalarni ularshdan avval

- Mobil telefonga stereotizimni ularshdan avval mobil telefon Bluetooth funksiyasini qo'llab-quvvatlashiga ishonch hosil qiling.
- Hattoki, agar telefon Bluetooth simsiz aloqa texnologiyasini qo'llab-quvvatlasa ham, agar telefon yashirin rejimiga o'tkazilgan yoki agar

Bluetooth yoqilmagan bo'lsa, izlashda telefon topilmasligi mumkin.

- Izlash yoki stereotizimga ulanshdan avval yashirin rejimni o'chiring yoki Bluetoothni yoqing.
- Agar avtomatik ularish qo'llanilayotgan bo'lsa, Bluetoothga ega bo'lgan telefon o't oldirish yoqilishida tizimga avtomatik ularan.
- Agar sizni Bluetoothga ega bo'lgan qurilmaga avtomatik ularish qiziqtirmayotgan bo'lsa, Bluetoothga ega bo'lgan qurilmada Bluetooth funksiyasini o'chirib qo'ying.
- Mobil telefonga qurilmani ularshda avtomobilni to'xtab turishga joylashtiring.
- Bluetooth ularish telefon modeliga bog'liq holda vaqtı-vaqtı bilan uzilishi mumkin. Urinishni takrorlash uchun quyidagi harakatlarni bajaring.
 - Mobil telefonda Bluetooth funksiyasini yoqing/o'chiring va urinishni takrorlang.
 - Mobil telefonni o'chiring/yoqing va urinishni takrorlang.
 - Mobil telefonning akkumulatorini to'liq chiqarib oling, kompyuterni qayta yuklang va urinishni takrorlang.
 - Ushbu qurilmani qayta yuklang va urinishni takrorlang.
 - Barcha bog'langan qurilmalarni olib tashlang, bog'lanishni bajaring va urinishni takrorlang.

• Baland aloqa rejimida qo'ng'iroqlar ovozi balandligi va ularning sifati mobil telefonning modeliga bog'liq holda o'zgarib turishi mumkin.

- Avtomobil harakatda bo'lgan vaqtida Bluetooth qurilmalarni bog'lash va Bluetooth funksiyasini qo'llash qo'llab-quvvatlanmaydi. Iltimos, avval o'z avtomobilningizni to'xtab turishga joylashtiring.
- Kontaktlarni yuklash jarayoni mobil telefonning modeliga bog'liq holda o'zgarib turishi mumkin.

Mazkur qo'llanmada yoritilmagan holatlarning yuzaga kelishi holatida mobil telefon ishlab chiqaruvchining foydalanuvchi qo'llanmasiga murojaat qiling.

- Bluetooth simsiz ularish 10 metrgacha ta'sir aylanasisiga ega bo'lishi mumkinligi sababli, sizning Bluetoothli qurilmangiz tizimga avtomatik ularishi mumkin, hattoki, agar u avtomobildan tashqarida joylashgan bo'lsa ham. Buni, ayniqsa, boshqa Bluetooth qurilmalari erishimli masofada joylashgan bo'lishi mumkin bo'lgan vaqtida axborot-ko'ngi洛char tizimga Bluetoothli qurilmani biriktirishda yoki ularshda hisobga olish kerak bo'ladi.
- Ushbu qurilmada katta bo'lmagan buzilishlar yoki ularsiz tovushning maksimal aniqligini ta'minlovchi shovqin va aks-sadonni susaytirishning eng yangi raqamli tizimi qo'llaniladi, ammo ba'zi sharoitlarda

- avtomobil ichkarisida hanuzgacha aks-sado va shovqin his etilishi mumkin. Maksimal natijaga erishish uchun baland aloqa orqali so'zlashayotganda avtomobilning oynalarini yopiq holatda ushlab turishni tavsija qilinadi.
- Ushbu qurilmada Bluetoothning quyidagi profillari qo'llaniladi:
 - Telefon kitobiga kirish profili (PBAP)
 - Baland aloqa profili (HFP)
 - Takomillashtirilgan audiotaqsimlash profili (A2DP)
 - Audio- va videoqurilmalarni masofadan boshqarish profili (AVRCP)
- Agar Bluetooth profillari mos kelmayotgan bo'lса, tizim display ekranida "Harakat ushbu qurilma tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi" sizib chiquvchi darchasi aks ettiriladi (masalan, qurilma MENUni boshqarish qobiliyatiga ega emas).
- Nosoz qurilmani ularshda tizim noto'g'ri ishlashi mumkin.

Bluetooth musiqiy rejimni qo'llashdan avval

- Bluetooth Audio rejimini faqat, agar Bluetooth Audioga ega bo'lgan qurilma ulangan bo'sagina qo'llash mumkin.
- Agar musiqa oqimli audio (Bluetooth Audio) rejimiga o'tishdan keyin yoki mobil qurilmasining o'zida "Play" (ijro etish) tugmasi

- bosilgandan keyin sizning mobil qurilmangizda ijro etilmasa, qayta "Play" tugmasiga bosib, musiqaning ijro etilishini ishga tushirishga urinib ko'ring.
- Oqimli audio rejimiga o'zgartirishdan keyin Bluetoothga ega bo'lgan qurilmadan musiqa ijro etilayotganligini tekshiring. Ba'zi mobil telefonlar oqimli audio funksiyasini qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.
- Agar Bluetoothga ega bo'lgan telefon Bluetooth Audio rejimi faol bo'lib turgan vaqtligi paytda o'chayotgan bo'lsa, musiqa ham ijro etishdan ox'taydi.
- Ba'zi mobil telefonlar Bluetooth orqali oqimli audioni qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.
- Agar Bluetooth indikatori aks ettirilmayotgan bo'lsa, bu Bluetoothga ega bo'lgan qurilma ulanmaganligini yoki ulanish sifati qoniqsiz ekanligini anglatadi.
- Ushbu qurilma 10 tagacha Bluetoothga ega bo'lgan qurilmalarning ulanishiga ruxsat beradi.

Bluetoothni ularsh

Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani ro'yxatdan o'tkazish

Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani axborot-ko'ngi洛char tizimga ularsh uchun uni ro'yxatdan o'tkazing. Birinchidan, boshqa qurilmalar Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani izlanishini bajarishi mumkin bo'lishi uchun Bluetooth sozlamalar menyusiga ulanish uchun Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani sozlang.

Telefon ilovasi rejimiga kirish uchun "PHONE" bosing.

Biriktirishni tanlash uchun – tugmasini bosing. Ekranda "Nomi: qurilma nomi/ PIN-kod: 0000" ma'lumot paydo bo'ladi, so'ngra biriktirish jarayoni boshlanadi.

• Agar telefon ulanmagan bo'lsa, maqom maydonida "Biriktirilgan qurilmalar yo'q" yozuvini aks ettiriladi.

• PIN-kodni o'zgartirish uchun, -ni bosing va biriktirish menyusida "New Pin" (Yangi PIN-kod) tanlang. PIN-kodni o'zgartirish uchun "MENU"ni aylantiring va ushbu tugmani bosing. Bluetoothga ega bo'lgan qurilma yordamida ushbu qurilmani izlanishini bajaring va biriktirishni bajaring.

1. O'z telefoningizda Bluetoothni yoqing.
2. Bluetooth menyusida "Qurilma nomi"ni toping va uni tanlang.

3. Ushbu bandni o'z telefoningizda kiriting. Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani izlash va uni biriktirish haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun o'zingizni Bluetoothga ega bo'lgan qurilmangizni foydalanuvchi qo'llanmasiga murojaat qiling. Bir qancha vaqt o'tgandan keyin Bluetoothga ega bo'lgan qurilma avtomatik ro'yxatdan o'tkaziladi.

- Agar tizimga ulanish uchun qurilmani ro'yxatdan o'tkazish muvaffaqiyatlari o'tgan bo'lsa, display ekranida "Bluetooth Connected" (Bluetooth ulangan) xabari paydo bo'ladi.

- Biriktirish yakunlanganidan keyin sizning mobil telefoningizga kontaktlarni yuklashga so'rov yuborilgan bo'ladi. Iltimos, o'z telefoningizni tekshiring va yuklashga so'rovni qabul qiling, agar bu zarur bo'lsa. Ikkinci qurilma bilan biriktirishda yuqorida ta'riflangan qadamlarni takrorlang.
- Agar Bluetoothga ega bo'lgan qurilma ulangan bo'lsa, yangi qurilma bilan biriktirish bajarilishi mumkin emas. Agar siz yangi telefonni ulashni xohlasangiz, avval ulangan Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani o'chirib qo'ying.
- Ushbu qurilma 10 tagacha Bluetoothga ega bo'lgan qurilmalarning ulanishiga ruxsat beradi.

**Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani
qo'shish/ulash/uzish/o'chirib yuborish**

Birinchidan, boshqa qurilmalar Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani izlanishini bajarishi mumkin bo'lishi uchun Bluetooth sozlamalar menyusiga ulanish uchun Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani sozlang.
 "PHONE" bosing > telefonlar ro'yxati menyusiga kirish uchun Bluetooth qurilmasini tanlash uchun "MENU" tugmasini bosing > qurilmalar ro'yxati elementiga o'tish uchun "MENU" tugmasini aylantring > menyuning kerakli elementini tanlash uchun -ni bosing.

- "Qo'shish"ni tanlang: Ekranda "Nomi: qurilma nomi/ PIN-kod: 0000" ma'lumot paydo bo'ladi, so'ngra biriktirish jarayoni boshlanadi.
- "Ulash"ni tanlash: Bir qancha vaqt o'tgandan keyin Bluetoothga ega bo'lgan qurilma avtomatik ulangan bo'ladi, va ekranda "Bluetooth Connected" xabari paydo bo'ladi.
- "Uzish"ni tanlash: "Telefonlar ro'yxati" menyusidan ulangan Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani uzib qo'ying.
- "O'chirib yuborish"ni tanlash: Telefonlar ro'yxati menyusidan ro'yxatdan o'tkazilgan Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani o'chirib yuboring.

Bluetooth musiqiy pleer

Bluetooth musiqiy pleerni ulash
 Musiqiy fayllar saqlanuvchi Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani ulang.

Artist Name	12:34
File Name	❖
	30°

4769847

Bluetooth musiqiy rejim "Bluetooth Music"ni tanlash uchun "**MEDIA**"ni bir necha marta bosing.

- Bluetoothga ega bo'lgan qurilmadagi audiofayl display ekranda "Bluetooth Music" aks ettirilishi bilanoq avtomatik ijro etilishni boshlaydi.

- Agar musiqa oqimli audio (Bluetooth Music) rejimiga o'tishdan keyin yoki mobil qurilmasining o'zida "Play" (ijro etish) tugmasi bosilgandan keyin sizning mobil qurilmangizda ijro etilmasa, qayta "Play" tugmasiga bosib, musiqaning ijro etilishini ishga tushirishga urinib ko'ring.

Oldingi yoki keyingi treknini tanlash uchun ijro etish vaqtida ◀ yoki ▶ ni bosing.

- Ushbu funksiya faqat 1.0 yoki undan yuqori versiyadagi audio- va videoqurilmalarni masofadan boshqarish profilini (AVRCP) qol'lab-quvvatlovchi Bluetoothga ega bo'lgan qurilmalar bilan ishlaydi. Bluetoothga ega bo'lgan qurilmaning parametrleriga bog'liq holda ba'zi qurilmalar dastlabki ulanishda audio- va videoqurilmalarni masofadan boshqarish profilini (AVRCP) aks ettirishi mumkin.

- Agar Bluetoothga ega bo'lgan qurilma Bluetooth Music rejimi faol bo'lib turgan vaqtida paytda o'chayotgan bo'lsa, musiqa ham ijro etishdan to'xtaydi.

Bundan so'ng, Bluetooth Music ijro etish funksiyalari USBdan ijro etish bilan o'xshash hisoblanadi.

Bluetooth Music menyusining qo'llanilishi
 Ijro etish vaqtida Bluetooth Audio menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing. Kerakli elementga o'tish uchun "MENU"ni aylantiring, so'ngra esa muvofiq elementni tanlash yoki elementning batafsil menyusiga kirish uchun "MENU"ni bosing.

- "Qurilma nomi"ni ko'rish: Ko'rish uchun nomlar ro'yxatida ro'yxat elementini tanlang. Agar Bluetooth profili mos kelmayotgan bo'lса, tizim "**Harakat qurilmalar bilan qo'llab-quvvatlanmaydi**" xabarini aks ettiradi.

Qo'llab-quvvatlash profili versiyasi: 1.4 va undan yuqori audio- va videoqurilmalarni masofadan boshqarish profili (AVRCP).

- Tasodifyt tartib: Tasodifyt tartibda ijro etish funksiyasini yoqing yoki o'chiring.
- Bluetoothga ega bo'lgan qurilmalarni boshqarish: Telefonlar ro'yxati menyusiga kiring.

Shoshilinch chaqiruv

Ogohlantirish: barcha holatlarda ularishni o'rnatish kafolatlanishi mumkin emas. Ushbu sabab bo'yicha hayotiy muhim xabar (masalan, shoshilinch tibbiy yordam zarurati haqida) haqida so'z borayotgan vaqtida faqat mobil telefonga ishonib qolish yaramaydi.

Ba'zi tarmoqlarda mobil telefonga SIM-kartaning muvofiq o'rnatilishi talab etilishi mumkin. Ogohlantirish: Agar mobil telefon yetarlicha kuchli signalga ega bo'lgan xizmat ko'stish zonasida bo'lib turgan bo'lса, uning yordamida qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va ularni qabul qilishingiz mumkinligini yoda tuting. Muayyan holatlarda shoshilinch chaqiruvlarni mobil aloqaning barcha tarmoqlarida ham bajarish imkonini mavjud bo'lmaydi; telefonning muayyan tarmoq xizmatlari va/yoki funksiyalari faol bo'lgan vaqtida ularni bajarish imkoniyatini bo'lmasligi ehtimoli mavjuddir. Bu haqidagi ma'lumotlarni siz mahalliy tarmoq operatorlaridan olishingiz mumkin.

Shoshilinch chaqiruv raqami mintaqaga va mamlakatga bog'liq holda farq qilishi mumkin. Sizga muvofiq mintaqaga uchun shoshilinch chaqiruvning tegishli raqamini oldindan bilib olishingiz kerak bo'ladi.

Shoshilinch chaqiruvni bajarish

Shoshilinch chaqiruv raqamini tering (masalan, 112).

Shoshilinch yordam markazi bilan telefon aloqasi o'rnatilgan. Favqulodda vaziyat haqida xizmat ko'stavchisi xodimlarning savollariga javob bering.

Ogohlantirish: Chaqiruvni toki shoshilinch yordam markazi sizni bu haqda iltimos qilmagunicha yakunlamang.

Siri funksiyasining qo'llanilishi (agar u ko'zda tutilgan bo'lса)


Siri funksiyasidan foydalanish uchun, iPhone axborot-ko'ngilochar tizimga Bluetooth orqali ulangan bo'lishi kerak.

iPhone ulangan vaqtida, Siri funksiyasini faollashtirish uchun rul chambaragidagi audiotizmni boshqarish panelida "PHONE" yoki b bosing va ushlab turing.

- iOS 4.0 yoki undan kechroq versiyani qo'llab-quvvatlovchi iPhone qurilmalari bilan mos keluvchanlik.

- Ushbu qurilma bilan mos keladigan Siri buyruqlari iPhone orqali raqamni terish, qo'shiqlarni tanlash va iPhone musiqiy proigrivatelidan ijro etish buyruqlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Boshqaruv



5034240

Kiruvchi qo'ng'iroqlar

Bluetooth orqali ulangan mobil telefonga telefon qo'ng'iroq'i kelib tushayotgan vaqtida, trek ijro etilishi uziladi, muvofiq ma'lumotlarni aks ettiragi holda telefon jiringlaydi.

Qo'ng'iroqni qabul qilish uchun, faol chaqiruv ekraniga o'tish uchun rul chambaragidagi audiotizimni boshqarish panelida ⏪ ni bosing yoki javob berish funksiyasini tanlash va faol chaqiruv ekraniga o'tish uchun – tugmasini bosing.

Chaqiruvni bekor qilish uchun, rul chambaragidagi audiotizimni boshqarish panelida ⏪ ni bosing va ushlab turing yoki "Bekor qilish"ni tanlash uchun – ni bosing.

- Bekor qilingan chaqiruv ovozli pochta qutisiga yuboriladi, qo'ng'iroq musiqasi to'xtaydi, ogohlantirish o'chadi, va display oldingi ekranga qaytadi.
- Agar chaqiruv bekor qilinmasa yoki u ovozli pochta qutisiga o'tkazilguniga qadar unga javob berilsa, ogohlantirish o'chadi, ekan oldingi rejima qaytadi, qo'ng'iroq musiqasi esa ijro etishni to'xtatadi.

Chaqiruvni kutish

Agar sizga siz telefon orqali so'zlashayotganingizda boshqa odam qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsa, tizim ikkinchi kiruvchi qo'ng'iroq bilan sizib chiquvchi darchani aks ettiradi. 1-qo'ng'iroq va 2-qo'ng'iroq o'rtasida o'tish uchun rul chambaragidagi audiotizimni boshqarish panelida "PHONE" yoki ⏪ ni bosing. Agar ikkala qo'ng'iroqlar ham faol bo'lsa (chaqiruvni kutish rejimi), chaqiruvni kutish haqidagi xabarnoma aks ettirilmaydi.

Telefonning ovoz balandligini sozlash

Faol telefon chaqirubi vaqtida telefonning ovoz balandligini sozlash uchun ⏴ ni burang (masalan, ovoz balandligi bosqichlari yordamida 0 ~ 63).

Diqqat: mobil telefonning modeliga bog'liq holda qo'ng'iroq musiqasini ko'chirib o'tkazish mumkin. Agar ovoz balandligi juda past bo'lsa, mobil telefonning ringtonini balandligini sozlang.

Siz muayyan minimal ovoz balandligidan boshlab qo'ng'iroq musiqasi ijro etilayotgan vaqtida rington ovozining balandligini sozlash uchun ovoz balandligi sozlagichidan foydalanishingiz mumkin. Ovoz balandligi darajasi 3 dan maksimal ko'satgichgacha o'zgaradi.

Chaqiruv vaqtida

Faol chaqiruv vaqtida Faol chaqiruv ekranida faol chaqiruvga taalluqli bo'lgan ma'lumot aks ettiriladi.

Cathy Thomason	00:12:34
5867911327	
End	Mute
Handset	Keypad
5034241	

Yakunlash: Faol chaqiruvni yakunlash. Chaqiruv yakunlangan vaqtida, tizim chaqiruvgacha faol bo'lgan ekranga qaytadi.

Ovozni yoqish/o'chirish: Tugmaga bosib, faol chaqiruv vaqtida avtomobilidagi mikrofonni o'chirib qo'ying.

Agar mikrofon o'chirilgan bo'lsa, nishon "Yoqish"ga o'zgaradi. Mikrofonni yoqish uchun tugmani yana bir marta bosing.

Telefon/baland aloqa: – tugmani bosib, baland aloqa rejimidan telefon rejimiga o'ting.

- Agar telefon rejimida telefon qo'ng'iroqiga javob berilsa, nishon baland aloqa nishoniga o'zgaradi.

- Tugmani bosish telefon so'zlashuvini baland aloqa rejimiga o'tkazadi.

- Baland aloqa rejimi chaqiruvni tashabbuslashda dastlabki bo'yicha o'rnatiladi.

- Chaqiruvni foydalanuvchining so'rovi bo'yicha baland aloqa yoki telefon rejimiga o'tkazish imkonisizligi vaqtida muammo yuzaga kelishi holatida, o'tkazishni bajarisht imkonib o'limgaganligi haqida foydalanuvchi uchun xabar aks ettiriladi. Iltimos, urinishni takrorlang.

Klaviatura: Klaviatura ekraniga kiring.

Chaqiruvni yakunlash

Agar tizim chaqiruv faol chaqiruv ekranidan tashqari har qanday boshqa ekranни aks ettirib turgan paytda yakunlanayotgan bo'lsa, chaqiruv yakunlanganligi haqida xabar paydo bo'ladi.

- Chaqiruv liniyaning boshqa tomonidagi odam tomonidan, Bluetoothga ega bo'lgan portativ qurilmadan yoki rul chambaragidagi

audiotizimni boshqarish pultidagi  tugmani bosish bilan yakunlanishi mumkin.

- 5 sekund o'tganidan keyin display oldingi ekranga qaytadi.

Chaqiruvni takroran terish

Agar telefon qo'ng'irog'i bekor qilingan bo'lsa, siz displayda "Takroriy terish" yozuvni ostidagi – tugmani bosib, kutish vaqtı tugagunga qadar raqamni takroran terishingiz mumkin.

Chaqiruvlar jurnalidan raqamni chaqirish

Telefonlar ro'yxati menyusiga kirish uchun "PHONE" bosing > Oxirgi chaqiruvlarni tanlash uchun "MENU"ni aylantiring > "MENU"ni bosing > O'tkazib yuborilgan chaqiruvlar, Qabul qilingan chaqiruvlar yoki Yuborilgan chaqiruvlarni tanlash uchun "MENU"ni aylantiring, so'ngra esa "MENU"ni bosing. Yaqindagi chaqiruvlar ro'yxatida oraliq menu aks ettiriladi, unda o'tkazib yuborilgan chaqiruvlar, qabul qilingan chaqiruvlar va yuborilgan chaqiruvlar taqdim etilgan.

Telefon nomini yoki raqamini tanlash uchun

"MENU" tugmasini aylantiring, va chaqiruvni amalga oshirish uchun "MENU"ni bosing. Telefon kitobidan raqamni terish. Telefonlar ro'yxati menyusiga kirish uchun "PHONE" bosing > Kontaktlarga kirish uchun

"MENU"ni bosing > "MENU"ni bosing > telefon nomi yoki raqamini tanlash uchun "MENU"ni aylantiring, va qo'ng'iroqni amalga oshirish uchun "MENU"ni bosing.

Oxirgi chiquvchi chaqiruv manbai, agar bu telefon qurilmasi ulangan va qo'ng'iroq undan amalga oshirilgan bo'lsa, o't oldirishning keyingi siklida saqlanib qoladi.

Telefon kitobini yuklash

Agar Bluetoothga ega bo'lgan qurilma telefon kitobini sinxronlashtirish funksiyasini qo'llab-quvvatlasa, telefon kitobi ularish o'nratilganidan keyin automatik yuklanadi.

- Chaqiruvlar tarixini Bluetoothga ega bo'lgan qurilmadan yuklab olish mumkin.
- Vaqt bo'yicha qo'ng'iroqlar tarixini saralash qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Qo'ng'iroqlar tarixini hattoki boshqa harakatni bajarishda ham yuklab olish mumkin.
- Agar Bluetoothga ega bo'lgan qurilmada chaqiruvlar tarixini yuklash funksiyasi o'chirib qo'yilgan bo'lsa, yuklash jarayonini boshlash imkonsiz bo'ladi.
- Biriktirish yakunlanganidan keyin sizning mobil telefoningizga kontaktlarni yuklashga so'rov yuborilgan bo'ladi. Ba'zi telefonlar qo'shimcha tasdiqlashni talab qiladi. Iltimos, o'z telefoningizni tekshiring va yuklashga so'rovni qabul qiling, agar bu zarur bo'lsa.
- Agar biriktirilgan telefon o'chirib yuborilgan bo'lsa, uning chaqiruvlar tarixi ham tizimdan o'chirib yuboriladi.

- Tizim faqat UTF-8 formatida kodlangan ma'lumotlarni qo'llaydi.

Klaviatura yordamida raqamni terish

Telefonlar ro'yxati menyusiga kirish uchun "PHONE" bosing > Klaviaturani tanlash uchun "MENU"ni aylantiring va klaviatura ekraniga o'tish uchun "MENU"ni bosing.

- Foydalanuvchi telefoning bosh ekranida Klaviaturani tanlaganidan keyin ekranda raqamni terish klaviaturasi aks ettiriladi.

- Foydalanuvchilar terish uchun kerakli raqamni ajratish uchun tutqichni aylantiradi, va uni tanlash uchun tutqichga bosiladi.

Terish uchun kerakli raqamni ajratish uchun "MENU" tugmasini aylantiring, va uni tanlash uchun "MENU"ni bosing.

Maksimal 24ta raqamni kiritish mumkin.

- Agar foydalanuvchi tutqichni aylantirishni davom ettiradigan bo'lsa, u klaviaturaning oxiriga yetgan vaqtda klaviaturaning boshqa tonomiga o'tkazish amalga oshadi.

- Raqamlar ularni kiritish chorasi bo'yicha raqamli ekranda aks ettiriladi.

- Toki foydalanuvchi raqamni kiritmagunicha chaqiruv tugmasi nofaol qoladi.

- Foydalanuvchi istalgan telefon raqamini kiritgandan keyin ushbu raqamning chaqirilishini bajarish uchun – tugmani bosish zarur.

- Biriktirish o'rnatilgandan keyin, tizim faol chaqiruv ekranini aks ettiradi.
- Agar foydalanuvchi telefon raqamini kiritishda xatolikka yo'l qo'yan bo'lsa, "O'chirib yuborish" funksiyasini ajratib ko'rsatish uchun "MENU" tugmasini aylantirish va oxirgi kiritilgan raqamni o'chirib yuborish uchun tutqichni bosish zarur bo'ladi.
- Toki O'chirib yuborish tugmasi ajratib ko'rsatilguniga qadar standart vaqt davomida tutqichning bosilishi va ushlab turilishi maydonagi barcha raqamlarni o'chirib yuboradi.

Bluetoothga ega bo'lgan qurilmalarni ko'zdan kechirish

Telefonlar menyusiga kirish uchun "**PHONE**" bosing > Bluetoothga ega bo'lgan qurilmani tanlash uchun "**MENU**"ni aylantiring va telefonlar ro'yxati menyusiga kirish uchun "**MENU**"ni bosing.

- Ro'yxat tizim bilan biriktirilgan Bluetoothga ega bo'lgan barcha qurilmalarning nomini saqlaydi.
- Agar qurilmaning olingan nomi bo'sh hisoblansa, Noma'lum qiymati aks ettiriladi.
- Bluetoothga ega bo'lgan qurilmalar ro'yxati menyusida foydalanuvchi qurilmani qo'shishi (biriktirilishini bajarishi), qurilmani o'chirib yuborishi va qurilmani ulashi mumkin.



ESLATMALAR

7

IQLIMNI NAZORAT QILISHNI BOSHQARISH ORGANLARI

-
- IQLIM NAZORATI TIZIMLARI 7-2
 - VENTILYATSIYA TESHIKLARI 7-5
 - XIZMAT KO'RSATISH 7-6

7-2 IQLIMNI NAZORAT QILISHNI BOSHQARISH ORGANLARI

IQLIM NAZORATI TIZIMLARI

XAVFLI

Konditsioner yoki isitish tizimi yoqilgan holatida avtomobil ichida uxlamang.
Bu havoda kislород yetishmay qolishi va/yoki tana harorati tushib ketishi sababli salomatlikka jiddiy zarar yetkazishi yoki o'lim holatiga olib kelishi mumkin.


Eslatma

Bu qurilma siz yashayotgan mamlakatda yoki avtomobil modelida bo'lmasligi mumkin.

Old o'rindiqlari isitgichli avtoulovlardan uchun:



Old o'rindiqlarida isitgich bo'lмаган avtoulovlardan uchun:



Quyidagiлarni boshqarish elementlari:

- Harorat (A)
- Ventilyator aylanish tezligi (B)
- Havoni taqsimlash (C)
- Sovitish (D)
- Orqa oynani isitish (E)
- Havoni qayta aylantirish (F)
- Terlash, muzlashlarni yo'qotish

Havoni taqsimlash kallagi (C) muzdan eritish holatida turganda, havoni qayta aylantirish (F) funksiyasini yoqib bo'lmaydi, chunki bunday holatda, namlikni yo'qotish uchun salondagi yo'lovchilar bo'lmasiga toza havo kiritish va bu orqali old oynadan muzni ketkazishni tezlashtirish zarurati tug'iladi.

Harorat

(A) kallakni buragan holda haroratni sozlaysiz.
Qizil : Iliq (o'ngga buralsa iliqroq)
Ko'k : Sovuq (chapga buralsasovugroq)

Isitish

- Isitish uchun haroratni boshqarish kallagini (A) qizil hoshiya tomon buraysiz.
- Havoni taqsimlash kallagini (C) kerakli holatga burang.
- Ventilyatorni boshqarish kallagini (B) keraklik tezlik holatiga burang.

Maksimal isitish

Tez isitish uchun maksimal isitish rejimidan foydalaning

- Maksimal isitish uchun haroratni boshqarish kallagini (A) qizil hoshiya tomon oxirigacha burang.
- Ventilyatorni boshqarish kallagini (B) maksimal tezlik holatiga burang.

Eslatma

Maksimal isitish rejimini uzoq vaqt ishlatmang. Bu avtohalokatga sabab bo'lishi mumkin, chunki avtomobil salonida havo turib qolishi va oynalarini ter qoplashi, oqibatda esa haydovchining atrofnii ko'rish imkoniyati cheklanib qolishi mumkin.

Havo taqsimlanishi

- (C) kallakni buragan holda quyidagi havo purkaladigan yo'naliishlarni tanlang:
- : Bosh va oyoq tomonga
 - : Oyoq tomonga
 - : Sozlanadigan ventilyatsiya tirqishlari orqali bosh tomonga
 - : Old oyna va oyoq tomonga
 - : Old oyna va old eshiklar oynalariga, bundan kamroq miqdordagi havo yon ventilyatsiya tirqishlariga yo'naltiriladi.

Ventilyator aylanish tezligi

Ventilyator kallagini (B) kerakli tezlik holatiga o'tkazish orqali havo oqimini boshqarasiz. Ventilyatorni o'chirish uchun ventilyatorni boshqarish kallagi (B) 0 holatiga burang.

Oynalardagi ter, muzni yo'qotish

- Havoni taqsimlash kallagini (C) holatga burang va garchi tugma svetodiod indikatori yonmasada, sovitish avtomatik tarzda yoqiladi. Havoni taqsimlash kallagi (C) holatida turganda va ventilyator yoqilgan holatda turganda, sovitish yoqilgan holatda qolaveradi.
 - Haroratni boshqarish sozlagichini (A) kerakli harorat darajasiga ornating.
 - Orqa oynani isitishni (E) yoqing.
 - Zarurat tug'ilganda yon ventilyatsiya tirqishlarini oching, ularning deflektorlarini eshik oynalariga qaratting.
- Qarang: Orqa oynani isitish tizimi ⇨ 1-13.

Havoni qayta aylantirish tizimi

Havoni qayta aylantirish rejimi (F) tugmasi yordamida yoqilada va o'chiriladi. Avtomobil salonidagi havoni tezroq sovitish va maksimal sovitish maqsadida havoni qayta aylantirish tizimidan foydalilanadi. Shuningdek, **c h a n g y o k i b a d b o ' y y o ' l l a r d a** harakatlanayotganda avtomobil saloniga chang zarralari va badbo'y hidlar kirishini oldini olish uchun ham bu funksiyasidan foydalilanildi.

XAVFLI

Avtomobilda havoni qayta aylantirish rejimida uzoq muddat harakatlanish uyquni keltirishumkin.

Tashqaridan toza havo kirib turishi uchun vaqt-vaqt bu rejimini o'chirib turish zarur. Havoni qayta aylantirish rejimida avtomobil saloniga tashqaridan kiradigan toza havo hajmi kamayadi. Agar sovitishsiz havoni qayta aylantirish rejimi yoqilgan bo'lsa, havo namligi ortib, oynalar terlab ketishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan avtomobil salonidagi havo sifati pasayadi va bu salondagi kishilarda uyqu chaqirishi mumkin.

Havoni avtomatik qayta aylantirish tizimi (agar bu funksiya avtomobilda bo'lsa)

Salondagi havoni sovitishni tezlashtirish va ko'zlangan haroratga tezroq erishish uchun havoni qayta aylantirish tizimi quyidagi funksiyalarni tanlagan holda avtomatik tarzda ishga tushadi:

- Havoni taqsimlash kallagi (C) quyidagi holatlarning biriga sozlanadi: yoki yoki
- Vентилятор аylanishi tezligi (B) 3 yoki 4-tezlik holatida.
- Sovitish (D) rejimi yoqilgan.

kallak svetodi od chirog'i yonadi.

Ko'zlangan harorat ta'minlangandan so'ng, havoni qayta aylantirish rejimini havoni qayta aylantirish tugmasi (F) bosgan holda yoki ventilyator aylanish tezligini (B) 1 yoki 2-holatga qaytargan holda istalgan paytda o'chirib qo'yish mumkin.

Agar havoni qayta aylantirish rejimi foydalanuvchi tomonidan o'chirib qo'yilmasa, avtomobil saloniga yana bir bor tashqaridan toza havo kirishini ta'minlash uchun rejim 30 daqiqadan so'ng avtomatik tarzda o'zi o'chadi.

Sovitish

Konditsionerni ishga tushirish yoki o'chirish uchun tugmani bosing. Konditsioner dvigatel va ventilyator ishlab turgan bo'lsagina ishlaydi. Konditsioner tizimi faqat tashqaridagi harorat nol gradusdan sal yuqori bo'lgandagina havoni sovitidi va oynalar terlashini ketkazadi (havoni quritadi). Shu sababli, kondensat hosil bo'lib, avtomobil tagidan tomchilishi mumkin.

Agar havoni sovitish yoki quritish zarurati bo'lmasa, yonilg'ini tejash maqsadida bu tizimni o'chirib qo'yish tavsija etiladi.

Ventilyatorni boshqarish kallagi (B) 0 holatda turganda, konditsioner ishlamaydi.

Garchi konditsioner (D) yoqilgan holatda bo'lsa ham, agar haroratni boshqarish kallagi qizil hoshiya tomonga buralgan bo'lsa, avtomobil iliq havo beradi.

Konditsionerni o'chirish uchun tugmasini yana bosing yoki ventilyator tezligi kallagini (B) 0 holatga burang.

Agar sovitish tizimi (D) yoqilgan bo'lsa va siz ventilyator tezligi kallagini (B) 0 holatga buragan bo'lsangiz, to ventilyator tezligini boshqarish kallagi 0 holatda bo'lar ekan, sovitish tizimi yoniq qolaveradi, biroq ishlamaydi.

DIQQAT!

Faqat tavsija qilingan sovitish agentidan foydalaning.

XAVFLI

Avtomobil iqlim nazorati tizimlariga xizmat ko'rsatish uchun faqat Chevrolet servis markazi yoki vakolatli ta'mirlash ustaxonalariga murojaat qilish tavsija qilinadi. Noto'g'ri usullar bilan xizmat ko'rsatish turli jarohatlarga olib kelishi mumkin.

Odatiy sovitish

- Konditsioner tizimini (D) ishga tushiring.
- Haroratni boshqarish kallagini (A) ko'k hoshiya tomonga burang.
- Havoni taqsimlash kallagini (C) kerakli holatga burang.
- Ventilyator tezligini boshqarish kallagini (B) kerakli holatga burang.

Maksimal sovitish

Issiq havo tez chiqib ketishi uchun oynalarni sal oching.

- Sovitishni (D) yoqing.
- Havoni qayta aylantirish tizimini (F) yoqing.
- Havoni taqsimlash kallagini (C) holatga burang.

VENTILYATSIYA TESHIKLARI


- Haroratni boshqarish (A) tugmasini eng sovuq darajaga o'rnatiting.
- Barcha ventilyatsiya tirkishlarini oching.
- Ventilyator tezligini (B) eng yuqori darajaga o'rnatiting.

Sozlamalar indikatorlari

Tanlangan funksiyalar ularni yoqadigan tugmalarni ostidan yortuvchi svetodiod chiroqlarning yonishi bilan ko'ssatiladi.



Havo oqimini yo'nalishini sozlash uchun pardachalarini qiyalating va buring hamda g'ildirakchalarni burang.



Yon tarafidagi ventilyatsiya tirkishlarini ochish uchun pardachalarini tepaga buring va yo'naltiruvchi g'ildirakchalarni o'ng yoki chapga buragan holda kerakli yo'nalishni tanlang. Agar oqim purkaliishi kerak emas bo'lsa, pardachalarni pastga burib qo'ying.

OGOLANTIRISH!

Ventilyatsiya tirkishlari pardachalari ustiga hech qanday yot jismlarni yopishtirmang. Chunki avtohalokat sodir bo'lganda shikastlanish va jarohat yetish xavfi bor.


XIZMAT KO'RSATISH

Sozlanmaydigan havo ventilyatsiya teshiklari



Qo'shimcha ventilyatsiya tirqishlari old oyna va eshik oynalari tagida, shuningdek, oyoq qo'yadigan tokchalarda joylashgan.

Havo tortish



Yetarli darajada havo oqimi kirishini ta'minlash uchun dvigatel bo'lmasida, old oyna pastki qismida joylashgan havo tortish tirqishlari ochiq turishi zarur. Tirqishlar ustiga tushgan barg, loy va qorlardan tozalab tashlang.

Konditsionerning muntazam ishlashi

Uning samarali ishlashini ta'minlash uchun yil fasllari va obhavoning qandayligidan qat'i nazar, oyda bir marta kamida 10 daqiqaga sovitish tizimini ishlatib qo'yish kerak. Tashqaridagi harorat past bo'lsa, sovitish rejimini ishga tushirib bo'lmaydi.

8

AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH

-
- AVTOMOBILNI BOSHQARISH
 - HAQIDA MA'LUMOT 8-2
 - ISHGA TUSHIRISH VA BOSHQARISH 8-12
 - DVIGATEL ISHLANGAN GAZLARI 8-15
 - AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI 8-16
 - MEXANIK UZATMALAR QUTISI 8-19
 - TORMOZLAR 8-20
 - YOQILG'I 8-22

8-2 AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH

AVTOMOBILNI BOSHQARISH HAQIDA MA'LUMOT

Avtomobilni haydash shart-sharoitlari



General Motors kompaniyasi atrofmuhitni muhofaza qilish bo'yicha choratadbirlarni takomillashtirish ustida muntazam ravishda ish olib boradi va o'z avtomobillarini loyihalash va yig'ishda ekologik jihatdan zararsiz va ikkilamchi materiallardan imkon qadar keng foydalanadi.

Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan usullar ham atrofmuhitni muhofaza qilish talablariga javob beradi. Kompaniya asbest va kadmiy kabi xavfli moddalardan foydalanishni to'xtatgan. Avtomobilning kondisjoner tizimidagi sovituvchi agent tarkibida xlortoruglerodlar mavjud emas. Chiqindi gazlardagi atmosferani ifloslovchi moddalar foizi kamaytirildi.

General Motors kompaniyasining atrofmuhitni muhofaza qilish bo'yicha siyosati

"General Motors kompaniyasi chiqindilar hajmini kamaytirish, qonun va qoidalarga amal qilish, tabiat ifloslanishini oldini olish va jamiyat bilan ma'lumot almashishini yaxshilash nuqtai nazaridan kompaniyaning atrofmuhitni muhofaza qilish bo'yicha faoliyati natijalarini yanada yaxshilashga qaratilgan maqsad va vazifalarni belgilab olgan holda atrofmuhit va tabiiy resurslarni saqlab qolishga sobitqadamlik bilan harakat qiladi."

Eslatma

- Moylashda ishlataladigan moylardan foydalanish davomida uning xususiyati borgan sari yomonlashib boradi va bu holatni, jumladan, unda kanserogen xususiyatlariga ega bo'lgan smolalar hosil bo'lishida kuzatishimiz mumkin.
- Moylashda ishlatib bo'lingan moylarning tuproqqa yoki suv havzalariga to'kish qonun tomonidan taqiqlangan bo'lib, atrof-muhitga sezilarli darajada ziyon keltiradi.
- Bunday moylarni nazorsatz yoqib yuborish atrof-muhitga zararli gazlarning chiqarilishiga olib keladi.
- Bunday chiqindilarni maxsus korxonalarda ikkilamchi qayta ishslash ko'zda tutladi.

Ikkilamchi qayta ishslashga qo'yiladigan talablar

Moylovchi moyni almashtirish uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz.

Yonilg'i tejagan holda avtomobil boshqarish

Yonilg'inini tejash bo'yicha muhim tavsiyalar:

- Keskin tezlik olishlardan saqlaning. Tezlikning keskin o'zgartirish holatlalari yonilg'i sarfini oshiradi.
- Shinalardagi past havo bosim ularning ish samaradorligini pasaytirgan holda yonilg'i sarfini oshiradi va shinalarning muddatdan oldin yeyilishiga olib keladi.
- Past sifatli yonilg'idan foydalanish dvigatelning shikastlanishiga olib keladi va yonilg'i sarfini ko'paytiradi.

Avtomobilni xavfsiz boshqarish

Avtomobilni himoyaviy uslubda boshqarish eng yaxshi tavsiyadir. Dastavjal, xavfsizlik kamarini taqing. Avtomobilni himoyaviy uslubda boshqarish deganda, har qanday oldindan ko'rib bo'lmadigan holatlarga tayyor bo'lish tushuniladi. Sizdan boshqa barcha haydovchilar va piyodalar e'tiborsiz yoki istalgan payt xato qilishlari mumkin, degan fikri doim yodda tutib harakatlaning. Boshqa haydovchilarning harakatini oldindan baholashga harakat qiling va istalgan ehtimoliy xatolar bo'lishini hisobga oling.

Eng ko'p sodir bo'ladigan avtohalokatlar avtomobilning orqa tomoniga kelib urilishlar bilan bog'liq bo'ladi. Xavfsiz masofani saqlash avtomobillar to'qnashuvining oldini olishga imkon beruvchi yana bir choradir.


Shahar va qishloq joylarda eng maqbul usul – bu avtomobilni himoya viy uslubda boshqarishdir. Oldinda ketayotgan avtomobil haydovchisining kutilmagan harakati keskin burlish yoki keskin to'xtashga olib kelishi mumkin.

Avtomobilni boshqarish

Avtomobil harakatlanayotganda zinhor dvigatelni o'chirmang

Bunday vaziyatda avtomobilning aksariyat tizimlari ishlamaydi (masalan, tormoz va rul boshqaruv) tizimlarining kuchaytirigichlari. Avtomobilni bunday boshqarish o'zingiz va atrofdagilar uchun xavflidir.

Tepkilar



Tepkilar atrofida ularni bemalol bosilishiga xalaqit qiladigan to'shamalarning bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Pol to'shamalari

⚠ OGOHLANTIRISH!

- Pol to'shamalari tepkilarga xalaqit bermayotganligiga ishonch hosil qiling.
- Doimo o'lchami loyiq keladigan pol to'shamalaridan foydalaning va ularni to'g'rilab soling, aks holda u tezlik, tormoz va ilashish tepkilari harakatiga xalaqit qilishi mumkin. Usbu tepkilarga xalaqit berish natijasida esa avtomobil bexosdan tezlashib ketishi, tormoz yo'llining oshishiga olib kelishi yoki bir uzatmasan boshqa uzatmalarga o'tkazishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin, oqibatda esa turli to'qnashuv va jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.
- Avtomobilingiz bilan kelgan pol to'shamalari aynan shu turdag'i avtomobillar uchun mo'ljallangan. Agar ularni almashtirish zarurati tug'ilsa, asl Chevrolet pol to'shamalarini tanlang. Avtomolingiz uchun mo'ljallanmagan pol to'shamalari loyiq kelmasligi va tepkilarning harakatiga xalaqit berishi mumkin.


Pol to'shamalaridan foydalinish bo'yicha yo'riqlarga amal qiling.

- Pol to'shamalari tepkilarning harakatiga xalaqit bermayotganligini tekshirib turish shart.


- Pol to'shamalarini yuza tarafini tepaga qilgan holda soling. Uni orqa tarafini tepaga qilgan holda solmang.

- Haydovchi tomoniga faqat bir qavat pol to'shamasi solinishi zarur. Bir pol to'shamasi ustiga boshqasini solmang.

Tezlik tepksi




Keskin tezlanish yonilg'i sarfini oshiradi. Dvigatel aylanishlar soni tegishlichcha oshib borishi bilan keyingi tezlik uzatmasiga o'tishga harakat qiling.

Ilashish tepkisi**Eslatma**

Harakatlanayotganda oyog'ingizni ilashish tepkisi ustiga qo'yib turmang. Bu kabi odat ilashish muftasi tizimi va dvigatearning shikastlanishiga, shuningdek, yonilg'i sarfining ortishiga olib kelishi mumkin.

 D/İQQAT!

Sirpanchiq yo'lida harakatlanayotganda dastakni birdan past tezlik uzatmasiga o'tkazmang. Bu yetaklovchi g'ildiraklarning tormozlanishi va avtomobilning sirpanib ketishiga olib kelishi mumkin.

Tormoz tepkisi

Tormoz tepkisi bosilganda orqa to'xtash ishorasi chiroqlari va yuqoridagi to'xtash ishora chiroqlari yonadi.

 OGOHLANTIRISH!

- Tormoz tepkisini ohista va bosish kuchini asta-sekin oshirib borgan holda bosing. Tormozni keskin bosmang, chunki bu xavfli sirpanib ketishga olib kelishi barobarida shinalarning yeyilishini ham oshiradi. Qarang: Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS) signalizatori ⚫ 4-12.
- Tormoz tizimidagi nosozliklarni ko'rsatuvchi indikatorga e'tiborli bo'ling.
- Dvigateini o'chirib qo'ygan holda harakatlanmang, bunda tormoz tizimining servokuchaytirgichi ishlamaydi, shu bois,

 OGOHLANTIRISH!

tormozlanish uchun ko'proq kuch talab etiladi.

- Agar avtomobil harakatlanayotgan vaqtida dvigatel to'xtab qolsa, tormoz tepkisini bosib turgan holda odatiyicha tozmozlaning, bunda tormoz tepkisini ko'p martalab bosishga harakat qilmsin, aks holda, bu tormoz tizimi kuchaytirgichidagi vakuumning yo'qolishiga olib keladi va tormozni kuchaytirish funksiyasi ishlamaydi. Oqibatda tormoz tepkisini to'liq bosish uchun ko'proq kuch talab etiladi, tormozyo'l esa ortadi.
- Agar tormoz tepkisini qo'yib yuborganda, u dastlabki holatiga qaytmasa yoki tormoz pedalining bosilish masofasi ortsas, bu tormoz tizimida nosozlik borligidan dalolat beradi. Darhol Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.
- Tormoz suyuqligi bakchasiyidagi tormoz suyuqligi sathini muntazam tekshirib turish zarur.
- Tormoz chiroqlarini muntazam tekshirib turish lozim.

DIQQAT!

Qiylalidan pastga harakatlanayotganda o't oldirish tizimini yoqilgan holatda qoldiring va tegishli uzatmani qo'shing. Neytral uzatmaga o'tkazgan holda yoki o't oldirish tizimini o'chirgan holda harakatlanish juda xavflidir. Bunig natijasida tormoz tizimiga tusha-digan yuklama ortadi. Ular qizib ketadi va samaradorligini yo'qtadi.

Tormozlash

Tormozlardan foydalanish

Tormozlanish jarayoni qaror qilish vaqtি va reaksiya vaqtlarini o'z ichiga oladi. Dastavval siz tormoz tepkisini bosishga qaror qilishningiz kerak. Bu qaror qilish vaqtidir. So'ngra, oyoq bilan tepkini bosishingiz kerak bo'ladi. Bu reaksiya vaqtidir. Reaksiya vaqtি o'ttacha taxminan 3/4 soniyani tashkil qiladi, lekin bu faqat o'ttacha ko'rsatkich xolos. Ba'zi haydovchilarda bu ko'rsatkich kamroq, boshqalarida esa ikki soniyagacha bo'lishi mumkin. Haydovchingin yoshi, jismoniy holati, diqqatilik darajasi, koordinatsiya va ko'reish qobiliyatli, shuningdek, spirlli ichimliklar va turli dori vositalari qabul qilish reaksiya vaqtga ta'sir qiluvchi omillar sanaladi. Biroq, hatto, o'sha 3/4 soniyada ham 100 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtomobil 20 metrgacha tormozlanib harakatlanadi. Favqulodda vaziyatlarda tormozlanish masofasi juda katta bo'lishi mumkin, avtomobilingiz va boshqa

avtomobililar o'rtaida yetarlicha oraliq masofani saqlash juda muhim. Bundan tashqari, tabiiyki, tormozlanish masofasi ko'p jihatdan yo'l qoplamasи (qattiq qoplama yoki shag'al), yo'l holati (ho'l, quruq), shinalar protektori va tormoz tizimi holatiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, ba'zi haydovchilar tormoz tizimini zo'riqtirgan holda tormozlardan note'o'g'ri foydalananadilar.

Quyidagi qoidalarga amal qiling

- Tormoz tepkisi harakatini to'sib qo'yamang.
- Keraksiz vaziyatda kuchli tormozlanishdan saqlaning – ba'zi haydovchilar transport oqimi bilan bir maromda harakatlanish o'rniغا keskin tezlashib, keskin sekinlashib – siltanib yurishga moyil bo'lishadi. Bu noto'g'ri xatti-harakatdir. Ha deb kuchli tormoz beraverish tormoz tizminining tez ishdan chiqishiga olib keladi. Shuningdek, bunda xatarli tarzda sirpanib ketishxayfi ham ortadi.
- Tormozlarning xizmat muddatini uzaytirish uchun transport oqimi bilan bir maromda harakatlanishga intiling, keraksiz vaziyatda tormozlanishdan saqlaning va xavfsiz masofani saqlab harakatlaning. Agar harakatni sekinlashtirish uchun tormozdan foydalanishga to'g'ri kelib qolsa, ohista va uzuksiz kuch berib tormozlaning.
- Dvigatelni o'chirgan holda harakatlanmang. Bunday rejimda tormoz tizminining kuchaytirgichi ishlamaydi, shuning uchun ham tormozlanish uchun ko'proq kuch talab etiladi.

- Agar avtomobilingiz harakatlanayotganida dvigatel o'chib qolsa, odatiy tarzda tormozlaning, bunda tormoz tepkisini ko'p martalab bosishga harakat qilmang, aks holda bu tormoz tizimi kuchaytirgichidagi vakuumning yo'qolishiga olib keladi va tormoz tepkisini bosish qiyinlashib, tormoz yo'lli uzunligi ortib ketadi.

- Ba'zi vaziyatlarda yoki iqlim sharoitlarida garchi tormoz salgina bosilganda ham yoki undan ilk bor foydalanganda, tormozlar vaqt-vaqt bilan chiyillashi mumkin. Bu uning nosozligidan darak bermaydi.

Tormoz tepkisi bosilish yo'lli

Agar tormoz tepkisini bosib, qo'yib yuborganda dastlabki holatiga qaytmasa yoki tormoz tepkisini bosish yo'lli ortgan bo'lса, avtomobilingizni darhol Chevrolet servis markaziga olib boring. Bu tormoz tizmining nosozligidan darak bo'lishi mumkin.

Favqulodda holatlarda tormozlanish

Ushbu yo'riqlar ABS bilan jihozlanmagan avtomobilarga mo'ljallangan. ABS bilan jihozlangan avtomobillar uchun Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS) ⇨ 8-20 ga qarang. Har bir haydovchi ham favqulodda tormozlanishga to'g'ri keladigan holatga tushadi. Bunday vaziyatlarda avtomobil rul yo'naltirgan tomonga yurmay qolishi va g'ildiraklar qulflanishdan oldin qaysi yo'naliishda bo'lса, o'sha yo'naliish bo'yicha harakatlanishda

davom etishi mumkin. Oqibatda avtomobilingiz yo'ldan chetga chiqib ketishi mumkin. Tormozga sekin-asta ortib boruvchi kuch bilan bosing. Bu maksimal tormozlanish va maksimal rul boshqaruvini ta'minlaydi. Tormoz tepkisi sekin-asta, tobora kuch berib bosing. Favqulodda holatda tormoz tepkisini kuch bilan bosish zarur va bunda g'ildiraklarni blokirovkalab qo'ymaslik kerak. G'ildiraklar sirpanib ketayotganini sezsangiz yoki eshitsangiz, tormoz tepkisini qo'yib yuboring. Bu rul boshqaruvini saqlab qolishga yordam beradi.

Rul boshqaruvi

Favqulodda vaziyatlarda rulni boshqarish

Ba'zi holatlarda rulni boshqarish tormozlanishdan ko'ra ko'proq samara berishi mumkin.

Masalan, agar siz tepalikka tomon yaqinlashayotgan bo'l sangiz va siz kelayotgan qatorda yuk mashinasi to'xtab turganini ko'srangiz yoki yo'lda kutilmaganda qayerdan avtomobil paydo bo'lib qolsa yoki to'xtab turgan avtomobillar orqasidan yo'lingizga bir bola to'satdan yugrib chiqib qolsa.

Bu vaziyatlarda, agar o'z vaqtida to'xtashga muvaffaq bo'l sangiz, tormoz tepkisini bosish orqali vaziyatdan chiqish mumkin, albatta. Biroq ba'zida yetarlicha masofa bo'l magani uchun buning iloji bo'l maydi. Bu vaziyatda dadil harakat qilib, to'siqni aylanib o'tish kerak bo'ladi.

Dastavval, tormozlarni bosing, lekin g'ildiraklarni to'xtatib qo'yadigan darajada qattiq bosmang. To'qnashuv xavfi tug'ilganda, doim avval tezlikni pasaytirish tavsya qilinadi. So'ngra rul boshqaruvi yordamida o'ng yoki chap tarafdagagi bo'sh joyga avtomobilni burib, to'siqni aylanib o'ting. Yuqorida tasvirlangandek, favqulodda vaziyatlarda haydovchidan maksimal diqqat va tez qaror chiqarish talab etiladi.

Agar rul chambaragini tavsya qilingandek, ya'ni soat millari soat to'qqiz va uch bo'lganini ko'rsatadigan nuqtalardan ushlab turgan bo'l sangiz, qo'lingizni ruldan uzmagagan holda 180°ga tez burilishni bema'lol amalga oshirishingiz mumkin. Lekin buning uchun chaqqon harakat qilish, rulni tez boshqarish va to'siqdan o'tib oq rulni dastlabki holatiga keltirishingiz kerak bo'ladi. Favqulodda holatlar istalgan paytda ro'y berishi mumkin, shuning uchun ham himoyaviy uslubda haydashni mashq qilib turish va xavfsizlik kamariдан to'g'ri foydalanish tavsya etiladi.

Yo'l chetidan transport yuradigan yo'Iga qaytish

O'ng tomondag'i g'ildiraklar yo'ldan chiqib, yo'l yoqasiga o'tib qolish holatlari yuz berishi mumkin. Agar yo'l yoqasi sathi yo'l qoplamasidan biroz past bo'lsa, bunday holatda avtomobilni yo'l chetidan asosiy yo'Iga qaytarish juda oson. Agar oldindan boshqa avtomobillar yo'q bo'lsa, tezlik tepkisini qo'yib yuboring va rul chambaragi yordamida avtomobilingizni yo'Iga qaytaring.

Avtomobilning old g'ildiraklari yo'lning qirrasiga chiqishi uchunrulni ¼ aylanish burchagiga buring. So'ng avtomobilni to'g'rilash uchun rulni buring.

1. Yo'l cheti.
2. Tormoz bering.
3. Rulni taxminan ¼ aylanish burchagiga buring.
4. To'g'ri chiziq bo'ylab harakatni davom ettiring.

Og'ir yo'l sharoitlarida harakatlanish

Yo'liszlik sharoitlarida haydashdan oldin

Avtomobilni yo'liszlik sharoitlarida haydashdan avval ba'zi choralarini ko'rish kerak bo'ladi. Jumladan:

- Ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha ishlar bajarilganiga ishonch hosil qiling.
- Yoniq'i sathini tekshiring.
- Zahira g'ildirakdagagi shina bosimini ushbu q'llanmaning texnik ma'lumotlar bo'limida ko'rsatilganidek ekanini tekshirib ko'ring.
- Suyuqliklar sathi avtomobilga qarash bo'limida ko'rsatilganidek ekanligini tekshiring.

Avtomobilni yo'liszlik sharoitlarida haydagandan keyin

Avtomobilning pastki qismi, shassi va kapot ostini yaxshilab tozalang. U yerlarda to'planib qolgan yot jismlar yonuvchan bo'lishi mumkin. Avtomobilda loy yoki qumda harakatlangandan so'ng tormozning ustki qismlarini tozalang va tekshirib ko'ring.

Loy va qum tormozlanishga xalaqit berishi va tormoz ustki qismalarining siliqlanib qolishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kuzov, rul boshqaruvi tizimi, osma, g'ildiraklar, shinalar, chiqingiz gazlarni chiqarish tizimi, yonlig'i quvur yo'llari va sovitish tizimlarini ham tekshiring. Yo'lizlik sharoitida harakatlananish avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni ko'proq talab qiladi.

Yo'lizlik sharoitlarida harakatlanish qoidalarini o'rganing

Bunday sharoitdagi yo'llarda harakatlanishdan oldin uyingizdan uzoq bo'limgan xavfsiz joyda mashq qilish tavsiya etiladi. Yo'lizlik sharoitlarida harakatlanish yangi va noodatiy malaka va ko'nikmalarни talab etadi, masalan, atrof-muhitdagи turli belgilarni fahmlash va payqash qobiliyati. Misol uchun, yo'l ustida turli to'siqlar chiqib qolish mumkinligini doim kuzatib borishingiz kerak bo'ladi. Shinalar va dvigateldan chiqadigan turli noodatiy shovqinlarni sezishga harakat qiling.

Qo'llar, oyoqlar va tanangiz avtomobil vibratsiyasi va harakati ta'siriga javob berishi lozim. Yo'lizlik sharoitlarida harakatlanishda eng asosiyisi avtomobilni boshqarishdir. Avtomobil boshqariluvchanligini ta'minlash eng yaxshi yo'l esa tezlikni cheklashdir. Bir necha qoidalarni esda tutish zarur. Yuqori tezlikda harakatlanganda:

- Siz to'siqlarga tezroq yaqinlashasiz va yo'l holatini ko'zdan qochirmaslikka vaqtningiz kam bo'ladi.

- Siz javob harakat qilishingiz uchun vaqt kam bo'ladi.
- To'siqlardan o'tayotganda avtomobil kuchliroq tebranadi.
- Sizga uzoqroq tormoz yo'li kerak bo'ladi, ayniqsa, turoq yo'llarda harakatlanganda.

⚠ DIQQAT!

Yo'lizlik sharoitlarida harakatlanishda keskin silkinish yoki manyovr natijasida rul boshqaruvi ustidan nazoratni yo'qtib qo'yish mumkin. Bu to'qnashuvga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababdan ham, avtomobil yo'llari bo'ladi, yo'lizlik sharoitida bo'ladi, bundan qat'i nazar, siz va yolovchilar haringiz xavfsizlik kamarlarini taqib olishlarining kerak.



Tumanda harakatlanish

Havo namligi darajasining yuqori bo'lishi va qattiq ayoz tushganda ko'rish imkoniyatini juda yomonlashtiradigan tuman tushish ehtimoli ortadi.

Tumanda harakatlanganda haydovchi tezlikni pasaytiishi va oldindan ketayotgan avtomobil bilan xavfsiz oraliq masofani saqlashi kerak bo'ladi. To'qnashuvlarga yo'liqmaslikni ta'minlash uchun tuman qalinligidagi o'zgarishlarga yetarlicha baho bera olish kerak. Eng yaxshisi, tuman qalinligiga avtomobil faralari nuriga qarab baho bergan ma'qul.

Tumanda harakatlanish bo'yicha maslahatlar

- Hatto kunduzgi payt bo'lsa ham, oldindi tumanga qarshi chiroqlarni yoki yaqin masofani yorituvchi chiroqlarni yoqing.
- Uzoq masofani yorituvchi chiroqlarni yoqmang.
- Orqa oyna isitkichini ishga tushiring. Vaqt-vaqt bilan old oyna tozalagichlari va yuvgichini bir necha soniyaga ishga tushiring. Oynaning tashqi yuzasidagi namlik tumandek bo'lib ko'rinishi mumkin.
- Agar tashqarida deyarli hech nima ko'rinxmasa va to'xtashga to'g'ri kelsa, biroq yo'lida ekanigizga ishonchning komil bo'lmasa, faralarni va avariya tumani chiroqlarini yoqing va vaqt-vaqt bilan yoki qarshingizda avtomobil yaqinlashganda tovushli signalni chaling.

- Tumanda harakatlanayotganda oldindagi vaziyatni yaxshi ko'rmay turib yoki qilmoqchi bo'lgan harakatingiz xavfsiz ekaniga ishonch hosil qilmay turib avtomobilarni quvib o'tmang. Quvib o'tishga harakat qilayotganda qarama-qarshi tomonidan avtomobil chiqib qolsa, orqaga qaytishga tayyor turing.

Loy yoki qumda harakatlanish



Loy yoki qumda quyi uzatma bilan harakatlaning.

Chunki, shinalaring yo'l yuzasi bilan ilashuvchanligi yo'qolganda, rulni boshqarish, tezlanish va tormozlanish qiyin kechadi. Juda bo'sh qumda harakatlanayotganda ilashuvchanlik yaxshiroq bo'lishi uchun shinalar bosimini ozroq kamaytiring.

Eslatma

Loy yoki qumda harakatlangandan so'ng tormozning ustki qismlarini tozalang va ko'zdan kechiring. Bu ish qilinmasa, bu tormozlanishga xalaqt berishi va tormoz ustki qismlarining silliqlanib qolishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kuzov, rul boshqaruvi tizimi, osma, g'ildiraklar, shinalar, ishlangan gazlarni chiqarish tizimlarini ham tekshiring.

Ho'l yo'llarda harakatlanish

Suv bosgan yo'llardan harakatlanish

Har qanday qilib bolsa ham suv bosgan yo'llardan harakatlanishdan saqlanish kerak. Suv bosgan yo'l haydovchiga yo'l holatini to'g'ri baholash imkonini bermaydi. Avtomobil dvigatel va boshqa qismlariga suv kirishi oqibatida yuzaga keladigan nosozliklar avtomobilga beriladigan kafolat doirasiga kirmaydi.



Suv bosgan yo'llarda past tezlikda harakatlaning va suv sathi g'ildirakning markazidan yuqori emasligiga ishonch hosil qiling.



Baribir suv bosgan yo'ldan o'tishga to'g'ri kelsa, u holda sekin, taxminan 10 km/soat tezlikda, bиринчи узатма holatiga o'tkazgan holda harakatlaning.

Yaqiningizda ketayotgan yuk avtomobilariга e'tibor qiling, kattaroq suv to'lqinlаридан ehtiyyot bo'ling – ular avtomobilning shikastlanish ehtimolini oshiradi. Suv bosgan yo'llardan o'tayotganda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan eng jiddiy muammo bu havoso'rgich orqali dvigatelga suv kirishidir.

Buni boshqaча qilib "gidravlik zarba" deb ataladi. Suv porshenlarning harakatlanishiga to'sqinlik qiladi va buning oqibatida dvigatel qismalriga shikast yetadi. Bu holatda dvigatelga jiddiy zarar yetadi va zararning qandayligiga qarab avtomobil darhol yoki sal vaqt o'tib to'xtab qoladi. Dvigatelni yana ishga tushirishga harakat qilmang.

Bu avtomobildagi shikastlanish darajasini oshirib yuborishi mumkin.

Suv kirishi oqibatida yuzaga kelgan nosozliklar avtomobilga berilgan kafolat doirasiga kirmaydi.

DIQQAT!

Suv oqimlaridan harakatlanish xavfli bo'lishi mumkin. Suv avtomobilni oqizib ketishi va oqibatda u cho'kib ketishi mumkin. Hatto bir necha santimetrlı oqimda ham shinalarining yer bilan kontakti yomonlashishi mumkin va bu shinalarini yo'lg'a ilashishining yo'qlishiga va avtomobil ag'darilib ketishiga olib kelishi mumkin. Suv oqimlaridan harakatlanmang.

Yomg'ir yog'ayotkanda harakatlanish

Yomg'irda va ho'l yo'llarda harakatlanish qo'shimcha xavflarni keltirib chiqaradi. Ho'l yo'lda harakatlanganda to'xtash, tezlashish yoki burilish qiyin kechadi, chunki shinalarning yo'lga ilashuvchanlik darajasi quruq yo'ldagidek yaxshi bo'lmaydi va agar shinalar protektori yeyilgan bo'lsa, ilashuvchanlik darajasi yanada p a s a y a d i . A v t o m o b i l d a harakatlanayotganingizda yomg'ir yog'ishni boshlasa, tezlikni kamaytirish va diqqatni oshirish lozim.



Sizning reaksiyangiz quruq yo'lda harakatlanish holatidagidek qolavishi barobarha yo'l ho'l bo'lib bo'lgan bo'lishi mumkin. Yomg'ir qancha kuchli bo'lsa, ko'rish imkoniyati shuncha pasayadi. Garchi old oyna tozalagichlar holati yaxshi bo'lsa ham, kuchli yomg'ir sharoitida yo'l belgilari va yo'l holati

to'g'risidagi e'lolnarni, yo'l chiziqlarini, yo'l chetlarini va hatto piyoda yo'lovchilarni ko'rish qiyinroq bo'lishi mumkin. Avtomobillar g'ildiraklari sachratadigan suvlar ko'rish imkoniyatini yomg'irdan ham ko'proq yomonlashitiradi, ayniqsa, loy yo'llarda.

Oyna tozalagichlarni yaxshi holatda saqlash va oyna yuvvgichlarning suv bakchasinini to'la bo'lishini ta'milash qat'i tarzda tavsiya qilinadi. Old oyna tozalagichlar cho'tkalarida eskirish alomatlari bo'lsa yoki ular oynada kir chiziqlar qoldirishni boshlasa yoki oyna artganda uning rezina tilimchalarini cho'tkadan ajralib ketishni boshlasa, oyna tozalagichlar cho'tkalarini almashtiring. Suv tormozlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Suv bosgan yo'llardan yurishdan saqlanining, biroq buning iloji bo'lmasa, yo'lning suv bosgan qismiga yetib kelgunga qadar tezlikni pasaytiring. Ho'l bo'lgan tormozlar baxtsiz hodisalarini keltirib chiqarishi mumkin. Avtomobil keskin tarzda to'xtatilganda ular yaxshi ishlamaydi va avtomobil yon tomonga siranib ketishi mumkin. Natijada, avtomobil boshqaruvini yo'qotib qo'yishingiz mumkin.

Suv bosgan yo'llardan harakatlangandan so'ng yoki avtomobilni yuvib bo'lgandan so'ng, tormoz tepkisini normal holatda ishlagunga qadar sekin bosing.

Yomg'irli ob-havoda harakatlanish bo'yicha bir nechta maslahatlar

- Hatto kunduzgi payt bo'lsa ham, yaqinni yorituvchi chiroqlarni yоqing.
- Oyna yozalagichlarni ishga tushiring.
- Tezlikni pasaytirib, ehtiyyotkorlikni oshiring.

- Oldindagi avtomobil bilan oraliq masofani oshiring.
- Zarurat tug'ilsa, orqa oyna isitkichini ishga tushiring.

Eslatma

Yomg'ir yog'ayotganda shinalar va oyna tozalagichlarga ko'proq yuklama tushadi. Shu sababli, doimo shinalar va oyna tozalagichlarni yaxshi holatda saqlang.

Akvaplanlanish



Shunday holat ham bo'ladiki, shinalar ostida SUV qatlami paydo bo'ladi va avtomobil amalda suvda yerdan uzilgan holda yuzadi. Bu juda xavfli.

Bu holat yo'l anche ho'l va avtomobil ancha yuqori tezlik harakatlanayotganda ro'y berishi mumkin. Avtomobil akvaplanlanish vaziyatiga tushsa, shinalar va yo'l orasidagi kontakt deyarli yoki umuman yo'qoladi.

Siz akvaplanlanish holatini payqamasligingiz va shinalar yo'lga tegmayotganligini sezmag'an holda bir muddat harakatni davom ettirib ketaverishingiz mumkin. Tezlikni pasaytirishga, burilishga, qatorni almashtirishga harakat qilganingizda, boshqa avtomobilni quvib o'tayotganda yoki avtomobilning kuchli shamolga yo'liqkan vaqtida akvaplanlanish holati sodir bo'layotganini sezib qolishingiz mumkin.

Agar shinalar protektori yeyilgan bo'lsa yoki bir yoki bir nechta shinallardagi bosim past bo'lsa, bu holat kuzatilishi mumkin. Shuningdek, yo'l ustini ko'p miqdorda SUV bosgan bo'lsa ham bu hol kuzatilishi mumkin. Agar yo'lida daraxtlar, simyog'ochlar yoki boshqa avtomobillar aksi ko'rinsa yoki SUV ustida yomg'ir tomchilaridan hosil bo'lgan halqachalarni ko'rayoutgan bo'lsangiz, akvaplanlanish yuz berishi mumkin. Odatda akvaplanlanish yuqori tezlik yurganda sodir bo'ladi.

Bu holatni bartaraf etish uchun qat'iy va oddiy qoida yo'q. Eng yaxshi maslahat – yomg'ir yog'ayotganda tezlikni pasaytirish va diqqatni oshirish.

Tunda harakatlanish



Haydovchi tunda harakatlanar ekan, quyidagi larni bajarishi zarur:

- Avtomobilni himoyaviy uslubda boshqarish.
- Spirlli ichimliklар iste'mol qilgandan so'ng avtomobilni haydama silik.
- Tezlikni pasaytirish va boshqa avtomobil bilan oraliq masofani oshirish.
- Aholi kam yashaydigan hududlarda yo'lдан jonorvolar chiqib qolishidan ehtiyoj bo'lish.
- Agar charchagan bo'lsangiz, xavfsiz joyga avtomobilingizni to'xtatib, dam oling.
- Old oyna va barcha boshqa oynalar ichki tomonidan ham, tashqi tomonidan ham toza bo'lishini ta'minlash. Oynalardagi kirlar tungi vaqtida ko'zga shu'lа tushishini sezilarli darajada oshiradi. Oynalarning ichki tomonida ham chang qatlami hosil bo'lishi mumkin. Tamaki tutuni oynaning ichki tomonini xiralashtirishi tunda ko'rish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

- Yodda tutingki, buriish vaqtida faralar yo'lning juda kam qismini yoritadi.

Tepalik va tog'lardagi yo'llar

Avtomobilida tik tepaliklar va tog'larda harakatlanish tekis yo'llarda harakatlanishdan farq qiladi. Agar muntazam tarzda tog'li hududda harakatlanishga to'g'i kelsa yoki bunday hududga borishni rejalashtirayotgan bo'sangiz, ehtiyyotkor choralarini ko'rishingiz kerak bo'ladi.

Safaringizni xavfsiz va yoqimli bo'lishi uchun:

- Avtomobilingizning texnik holatini yaxshi saqlang. Barcha suyuqliklar sathini, shuningdek, tormoz tizimi, shinalar va sovitish tizimlarini tekshiring.
- Tepalikdan pastga harakatlanishni o'rganing. Faqat tormozning o'ziga ishonib qolmang. Sekinlatish ishning ma'lum qismini dvigatelga yuklang. Uzatmalar dastagini quyi uzatma holatiga o'tkazing, chunki shu yo'l bilan siz tormoz tizimiga ortiqcha zo'r bermasdan tezlikni pasaytirishingiz mumkin.

⚠ DIQQAT!

Agar uzatmalar dastagini quyi uzatma holatiga o'tkazmasangiz, tormozlar juda qizib ketishi va yaxshi ishlamasligi mumkin. Uzun tik qiyalik bo'ylab tushishda dvigatel tormozlanishga yordam berishi uchun uzatmalar dastagini quyi uzatma holatiga o'tkazing.

⚠ DIQQAT!

Neytral uzatmaga o'tkazgan holda yoki o't oldirish tizimini o'chirgan holda harakatlanish juda xavflidir. Bunig natijasida tormoz tizimiga tushadigan yuklama ortadi. U qizib ketadi va ish samaradorligi pasayadi. Qiyalikdan pastga harakatlanayotganda o't oldirish tizimini yoqilgan holatda qoldiring va tegishli uzatmani qo'shing.

- Tepalik bo'ylab yuqoriga qanday harakatlanishni o'rganing. Uzatmalar dastagini quyi uzatma holatiga o'tkazing. Dvigatel sovishi uchun uzatmalar dastagini ko'zlangan tezlikda yurish imkonini beruvchi eng quyi uzatma holatiga o'tkazing, shunda dvigatel ham qizib ketmaydi. Tepaliklar yoki tog'li hududlardagi ikki qatorli yo'llarda harakatlanayotganda, o'z qatoringizdan chetga chiqmay harakatlaning. Qaramaqarshi qatorga chiqib ketmang yoki yo'l markazi bo'ylab harakatlanmang. O'z qatoringizda qolish imkonini beradigan tezlikda harakatlaning. Bu qarama-qarshi tomondan kelayotgan avtomobilarni ko'rish imkonini beradi. Tepalikka chiqish vaqtida quvib o'tish ko'proq vaqt talab etadi. Avtomobilarni quvib o'tayotganda xavfsiz oraliq masofani saqlang. Boshqa avtomobilarning sizni quvib o'tishini osonlashtiring.
- Tepaga chiqish vaqtida turli avtohalokatlar yoki o'chib qolgan avtomobillar sabab yuzaga keladigan to'siqlardan ogoh bo'ling.

- Tog' yo'llarida maxsus belgilarni ko'rishingiz mumkin. Masalan: uzun nishablik, quvib o'tish taqiqlangan hudud, tosh tushishi xavfi bor hudud, egribugri yo'l kabi belgilari. Diqqatli bo'ling va tartibli harakatlaning.

Agar avtomobil botib qolsa

Agar avtomobilingiz botib qolgan bo'lsa, g'ildiraklarni siljimasdan aylantirmang. Tebratish usuli deb ataladigan usul avtomobilini botib qolgan joydan chiqarishga yordam berishi mumkin, lekin ehtiyyot bo'lib harakat qiling.

⚠ DIQQAT!

Avtomobil o'z joyida turgan holatda g'ildiraklarni katta tezlikda aylantirish shinalarning yorilib ketishiga, sizga va boshqalar jarohat yetishiga sabab bo'lishi mumkin. Uzatmalar qutisi yoki boshqa qismlar ortiqcha qizib ketishi mumkin. Avtomobilingiz botib qolgan vaziyatda g'ildiralarni imkon qadar kamroq aylantiring. Ularni aylantirishda spidometr ko'rsatkichi 55 km/soat tezlikdan oshib ketmasin.

Eslatma

Avtomobil o'z joyida turgan holatda g'ildiraklarni aylantirish avtomobilingiz ehtiyyot qismlariga, shuningdek, shinalariga shikast yetkazishi mumkin. Avtomobil o'z joyida turgan holatda g'ildiraklarni katta tezlikda orqaga yoki oldinga aylantirish uzatmalar qutisining buzilishiga olib kelishi mumkin.

ISHGA TUSHIRISH VA BOSHQARISH

Avtomobilni tebratish yo'li bilan botgan joydan chiqarish

Avtomobil botib qolganda tebratish uslubi yordam berishi mumkin. Buning uchun haydovchi qilishi kerak bo'lgan harakatlar quyidagicha:

1. Rul chambaragini o'ng va chapga buring.
2. Uzatmalar dastagini birinchi, ikkinchi va orqaga yurish holatlariiga almaslab o'tkazing va o'tkazish paytida tezlik tepkisini qo'yib yuboring.
3. Uzatmalar dastagi biror uzatma holatiga o'tkazilgandan so'ng, tezlik tepksini sal bosing.
4. Agar bir necha shunday urinishlardan so'ng ham avtomobilingiz botib qolgan joydan chiqarib bo'lmasa, uni shatakk olish kerak bo'ladi.


Yangi avtomobilni chiniqtirish

Avtomobilning texnik holatini yaxshilash va uning xizmat muddatini uzayтириш учун дастлабки бир неча ўз километр масофани босиб о'tishda quyidagi tavsiyalarga amal qiling:

- Gazni to'liq ochgan holda keskin ishga tushirishlar saqlaning.
- Dvigatelni haddan tashqari yuqori aylanish tezligida ishlatmang.
- Favqulodda vaziyat bo'lmasa, keskin tormozlanishdan saqlaning. Bu qoidaga amal qilish tormozning to'g'ri ishlashini ta'minlaydi.
- Dvigatel shikastlanishini oldini olish va yonil'i sarfini kamayтириш, maqsadida dvigatelin birdan ishga tushirish, keskin tezlanish va u z o q m u d d a t y u q o r i t e z l i k d a harakatlanishdan saqlaning.
- Quyi uzatma holatida tezlik tepkisini to'liq bosmang.
- Boshqa avtomobilarni shatakk olmang.

O't oldirish qulfida kalit holatlari

O't oldirish qulfi holatlari



O't oldirish qulfida to'rt holat mavjud:

0 : Qulf / O'ch.

Bu holatda dvigatel o'chiriladi, o't oldirish tizimi qulflanadi va rul chambaragi qulfi bilan jihozlangan avtomobilarda, bu holat rul chamba ragini ham qulflaydi.

Avtomat uzatmali avtomobillarda, bu holat uzatmani ham qulflaydi. Faqat ushbu holatdagi kalitni chiqarib olish mumkin. Agar avtomobil rul chambaragi qulfi bilan jihozlangan bo'lsa, g'ildiraklar yon tomoniga buralgan holda o'chirilgan va o't oldirish qulfida kalit shu holatga buralgan bo'lsa, rul chambaragi qotib qolishi mumkin, zero bul holat avtomobilni o't oldirishga

[yoki kalitni chiqarib olishga] yo'l qo'ymaydi. Agar shunday holat sodir bo'lsa, kalit Aksessuar holatiga buragan holda rul chambaragini o'ngdan chapga buring. Agar bu ham ish bermasa, unda avtoulovni ta'mirga ko'rsatish zarur.

1 : Aksessuar

Bu holatda dvigatel o'chiq turgan holatda axborot-ko'ngilochar tizim va old oyna artgichlari kabi funksiyalarni ishlatalish mumkin. Bu holatda, shuningdek, rul chambaragi qulfdan ochiladi va avtomobil avtomat uzatmali bo'lsa, uzatma ham qulfdan ochiladi. Avtomobilni itarish yoki shatakka olish kerak bo'lganda, kalitni shu holatga burang.

2: Yoq. / Ishga tushirish

Kalit bu holatga buralganda, dvigatel ishga tushadi va aylanadi. Shuningdek, dvigatel o'chiq bo'lganda kalit bu holatga burash orqali elektr aksessuarlarni ishlatalish va priborlar panelidagi ayrim ogohlantirishlarni va indikator chiroqlarini ko'rsatish ham mumkin. Kalitni bu holatga buragan holda, shuningdek, xizmat ko'rsatish va diagnostika ishlarini bajarish va nosozlik indikatori chirog'i to'g'ri ishlayotganligini tekshirish ham mumkin, zero bu tekshirish ishlangan gazlar chiqishini tekshirish maqsadida talab qilinishi mumkin.

Agar avtomobil rul chambaragi qulfi bilan jiozlangan bo'lsa, kalitni bu holatga buraganda, rul chambaragi qulfdan ochiladi. Avtomat uzatmali avtomobilarda kalitni bu holatga buraganda, uzatma qulfdan ochiladi. Agar dvigatel o'chiq holatida kalit Aksessuar yoki Yoq/Ishga tushirish holatida qoldirilsa, akkumulator batareyasi quvvati tugab qolishi mumkin. Agar akkumulator batare-yasidan uzoq vaqt davomida quvvat sarf bo'lgan bo'lsa, avtomobil o'tolmasligi mumkin.

3 : Ishga tushirish

Bu holat dvigatelni ishga tushiradi. Dvigatel ishga tushganda, kalitni qo'yoring. Kalit avtomobilni haydash uchun Yoq. / Ishga tushirish holatiga qaytadi.

"P" (Parkovka) holatidan chiqarish — agar bo'lsa

"P" (Parkovka) holatidan chiqarish uchun Yoq. / Ishga tushirish yoki Aksessuar holatiga buralgan va tormoz pedali qo'shilgan bo'lishi kerak.

Dvigatelni o'chirish

Avtomobil to'xtatilgan holatda bo'lganda, kalitni rul chambaragi tomonga itaring va dvigatelni o'chirish uchun kalitni Qulf / O'ch. holatiga burang.

Avtomobil harakatlanayotganda dvigatelei o'chirmang. Bu tormoz va rul tizimlaridagi kuchaytirgichning yo'qolishi va havo yostiqchasining faolsizlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar avtomobil favqulodda holatda harakatlanib ketayotganda avtomobilni yo'l chetiga olib to'xtatib bo'lmasa va dvigatelni o'chirish kerak bo'lsa:

1. Kalitni rul ustuni tomonga kirgizing va kalitni Aksessuar holatiga burang.

2. Tormozni qattiq va og'ishmas kuch bilan bosing. Tormozni bosib sal qo'yvorish va yana bosib sal qo'yvorish harakatlarini qilmang. Bu kuchaytirgich ta'sirini kamaytiradi va natijada tormoz pedalini yanada kuchliroq bosish talab qilinadi.

3. Avtomobilni N (neytral) holatga o'tkazish. Avtomobil harakatlanib ketayotgan vaqtini buni amalga oshirish mumkin. N (neytral) holatga o'tkazgach, tortmozni mahkam bosing va avtomobilni xavfsiz joyga oling.

4. Avtomobilni to'liq to'xtating. Avtomat uzatmali avtomobil bo'lsa, uzatmani "P" (parkovka) holatiga o'tkazing, avtomobil mexanik uzatmali bo'lsa, uzatmani Neytral holatga o'tkazing. Kalitni rul ustuni tomonga kirgizing va so'ng, kalitni Qulf/O'ch. holatiga burang.

5. Qo'l tortmozini ko'tarib qo'ying. To'xtash tormozi \diamond 8-21 ga qarang.

Tavsiya: Avtomat uzatmali avtomobil bo'lsa, kalitni Qufl/O'ch. holatiga burashdan avval uzatma richagini "P" (parkovka) holatiga o'tkazing.

XAVFLI


Avtomobil harakatlanayotgan vaqtida dvigatelni o'chirish tormoz va rul tizimlаридаги кучатиргичнинг yo'qolishi va havo yostiqchasingin faolsizlanishiga olib kelishi mumkin. Harakatlanib ketayotganda faqat favqulodda holat bo'lsagina dvigatelni o'chiring.

DIQQAT!

To'g'ri keladigan kalitdan foydalaning, — dvigatelni o'chirayotganda kalit to'liq tiqilganligiga ishonch hosil qiling — kalitni faqatgina qo'lingiz bilan burang.

Dvigatelni ishga tushirish

O't oldirish kaliti yordamida dvigatelni ishga tushirish



- Kalitni 1 holatiga burang.
 - Quflangan rul chambaragini qufldan ochish uchun rul chambaragini sal burang.
 - Mehanik uzatmalar qutisi: ilashish tepkisini bosing.
 - Avtomatik uzatmalar qutisi: tormoz tepkisini bosing va uzatmalar dastagini P yoki N holatiga o'tkazing.
 - Tezlik tepkisini bosmang.
 - Kalitni 3 holatiga burang.
- Qayta ishga tushirishdan oldin yoki dvigatelni o'chirish uchun kalitni 0 holatiga qaytaring.

DIQQAT!

Starterni bir martada 10 soniyadan ortiq ishlatmang. Bu starterni ishdan chiqarishi yoki akkumulyator batareyasini quvvatsizlantrishi mumkin.

Avtomobilni to'xtab qoldirish

- Avtomobilingizni yonib ketishi oson bo'lgan yuzaga qo'y mang. Bu holatda, ishlangan gazlarni chiqarish tizimida haroratning ortib ketishi yong'inni keltirib chiqarishi mumkin.
- Qo'l tormozini tortib qo'yganda, uni quifdan bo'shatuvchi tugmani bosmang. Tepalikdan tushish yoki chiqish joylarida qo'l tormozini imkon qadar kuchliroq tortib qo'ying. Qo'l tormoziga tushadigan kuchni kamaytirish uchun, uni tortgan paytda tormoz tepkisini ham bosish tavsiya etiladi.
- Dvigatelni va o't oldirish tizimini o'chiring. Rul chambaragini quflangunga qadar burang.
- Agar avtomobil tekis joyda yoki yuqoriga yo'nalgan qiyalikda turgan bo'lsa, o't oldirish tizimini o'chirishdan oldin uzatmalar dastagini birinchi uzatmaga o'tkazing (uzatmalar qutisi mehanik bo'lgan avtomobilarda) yoki uzatmalar dastagini P holatiga o'tkazing (uzatmalar qutisi avtomatik bo'lgan avtomobilarda). Tepaga yo'nalgan qiyalikda avtomobilni to'xtatgandan so'ng oldindi gildiraklarni yo'l to'siq toshidan boshqa tomonga buring.

DVIGATEL ISHLANGAN GAZLARI

- Agar avtomobil pastga yo'nalgan qiyalikda turgan bo'lsa, o't oldirish tizimini o'chirishdan oldin uzatmalar dastagini orqaga harakatlanish uzatmasiga o'tkazing (uzatmalar qutisi mexanik bo'lgan avtomobilarda) yoki uzatmalar dastagini P holatiga o'tkazing (uzatmalar qutisi avtomatik bo'lgan avtomobilarda). Oldingi g'ildiraklarni to'siq toshi tomonga buring.
- Oynalarни yoping.
- Avtomobilni quflab, o'g'irlanishga qarshi signalizatsiyani yoqing.

Avtomobilni yonayotgan sathda qoldirish

Avtomobilni biror joyga to'xtatib qoldirishdan avval o'sha joyda o'tlar, butalar, yonilg'i tomchilari va shu kabi oson alangalanadigan narsalar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Dvigate

ishlangan gazlarni chiqarish tizimi qismlari qizigan bo'ladi va shuning ta'sirida yong'in kelib chiqishi mumkin.

DIQQAT!

Yonuvchan materiallar avtomobilingiz tagidagi ishlangan gazlarni chiqarish tizimi qismlariga tegib yonib ketishi mumkin. Qog'oz, barg, quruq o'tlar yoki boshqa yonuvchan narsalar ustiga avtomobilni qoldirmang.

XAVFLI

Dvigatelning ishlangan gazlari tarkibida rangsiz va hidsiz zaharli is gazi mavjud bo'lib, uni hidlash o'lim holatlariga olib kelishi mumkin. Agar ishlangan gazlar avtomobil saloniga kirib qoladigan bo'lsa, oynalarni ohib tashlang. Avtomobilлarni ta'mirlash ustaxo-nasiga borib, bu nosozlikning sababini bartaraf qiling. Yukxona bo'lmasi eshigii ochiq holda harakatlanish mumkin emas, chunki bunday vaziyatda avtomobil saloniga ishlangan gazlar kirish xavfi bor.

Katalitik neytralizator

Katalitik neytrallashtirgich ishlangan gazlar tarkibidagi zararli moddalarni kamaytiradi.

OGOLHLANTIRISH!

Yopiq joyda dvigatelning manyovr qilishga yetadigan muddatdan uzoqroq ishlab turishiga yo'l qo'y mang, chunki rangsiz va hidsiz is gazidan (CO) o'lim holatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan zaharlanish xavfi bor.

Sovuq holatdan dvigatelni ishga tushirgandan so'ng duch kelinadigan nosozliklar yoki dvigatelning baqaror ishlamasligi, dvigatel quvvatining sezilarli darajada yo'qolishi yoki boshqa normal bo'lmagan holatlar sababi o't oldirish tizimining nosozligi bo'lishi mumkin.

AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI

Bunday holatda avtomobilni shatakka olishga to'g'ri keladi. Shunday vaziyatda Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Katalitik neytrallashtirgichga qarash:


Katalitik neytrallashtirgich ichiga yonishga ulgurmagan yonilg'ining kirib qolishi bu qismning qizib ketishi va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan ham quyidagi holatlardan saqlaning:

- Agar avtomobil yaxshi ishga tushmayotgan bo'sa, uni qaytaqayta ishga tushirishga urinmang.
- Avtomobilni uzoq vaqt ishga tushirmang. Ishlangan gazlarni chiqarish qurviga suv kirishi katalitik neytrallashtirgichning ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, chunki bu qism yuqori haroratda ishlaydi.
- Avtomobil ostki qismiga qandaydir materiallarni surishidan saqlaning. Ba'zi kimyoiy moddalar yonib ketish ehtimolini oshiradi.

Muayyan sharoitlarda tarkibida oltingurgurt miqdori yuqori bo'lgan yonilg'idan foydalanganda paydo bo'ladigan, garchi xavfsiz bo'sada, noxush hidrlarga e'tibor qaratish zarur. Atmosferani ifloslovchi moddalarini chiqarishning past darajasini ta'minlash va katalitik neytrallashtirgichning xizmat muddatini uzaytirish maqsadida barcha ko'satiladigan texnik xizmatlar Chevrolet servis markazida amalga oshirilishi kerak.

Avtomatik uzatmalar qutisi uzatmalarga mexanik tarzda (qo'l bilan o'tish rejimi) o'tish yoki avtomatik tarzda (avtomatik rejim) o'tish bilan boshqarilishi mumkin.

Uzatmalar displayi



Rejim yoki tanlangan uzatma uzatmalar qutisi displayida aks ettiriladi.



P : Avtomobilarni to'xtatib qo'yish holati, g'ildiraklar quflanadi, bu uzatma holatiga faqat avtomobil to'xtab turganda va qo'l tormizi tortib qo'yilganda o'tkazish mumkin.

R : Orqaga yurish uzatmasi, faqat avtomobil to'xtab turganda bu uzatmaga o'tkazish mumkin.

N : Neytral uzatma holati

D : Barcha uzatmalarni o'z ichiga oluvchi avtomatik rejim

M : Qo'lda o'tkazish rejimi

Uzatmalar qutisi holatlarining biridan ikkinchisiga o'tishda o'tkazish dastagi yon tonomidagi qulfdan ochish tugmasini bosing.

Dastakni **P** holatidan chiqarish uchun tormoz tepkisini va qulfdan bo'shatish tugmasini bosing.

P, M va **R** holatlariiga o'tish uchun qulfdan bo'shatish tugmasini bosing.


Dvigatelni ishga tushirish uchun uzatmalar dastagini **P** yoki **N** holatida bo'lishi kerak.

Dastakni bir uzatmadan ikkinchi uzatmaga o'tkazayotganda tezlik tepkisini bosmang. Hech qachon tezlik va tormoz tepkilariini baravariga bosmang.

Biror uzatma qo'shilgan bo'lganda, tormoz tepkisi qo'yib yuborilganda avtomobil sekinasta harakatlana boshlaydi.

DIQQAT!

Avtomobiil harakatlanayotgan paytda neytral uzatmaga o'tkazmang. Bu avtomobilningiz uzatmalar qutisiga zarar yetkazishi yoki jarohatga olib kelishi mumkin.



Qo'l rejimi

O'tkazish dastagini **M** holatiga o'tkazing. Dastakda joylashgan uzatmalarga o'tkazish tugmasini bosing.

TEPAGA (+) : bitta uzatmaga yuqoriga o'tkazish

PASTGA (-) : bitta uzatma pastga o'tkazish

Avtomobilning xavfsizligi va uning ish ko'rsatkichlarini talab qilingan darajada bo'lishini ta'minlash uchun uzatmalar dastagi ma'lum uzatmalarga o'tkazilganda tizim ushbu uzatmalarga o'tishni bajarmasligi mumkin.

Qo'lda o'tkazish rejimida avtomobil sekinlaganda quyi uzatmalarga o'tish avtomatik tarzda amalga oshadi. Avtomobil to'xtaganda

esa, 1-uzatmaga avtomatik tarzda o'tiladi.

Favqulodda holatlarda dvigatelning aylanish momentini oshirish uchun ba'zida quyi uzatmaga o'tish tezlik tepkisini to'liq bosgan holda ham amalga oshiriladi. Shuningdek, dvigatelning aylanish momenti ruxsat etilgan maksimal qiymatga chiqqanda yuqori uzatmaga o'tishi mumkin.

DIQQAT!

Yo'l shart-sharoitlariga qarab mos uzatmaga o'tkazing.

Dvigatel yordamida tormozlanish

Qiyalikda pastga qarab harakatlanayotganda dvigatel yordamida tormozlanish effektidan foydalаниш uchun quyi uzatmani tanlash kerak bo'ladi.

Avtomobilni tebratib joyidan siljitimish

Avtomobil qum, loy yoki qorga botib qolganidagina uni tebratib joyidan siljitimishga ruxsat etiladi. Uzatmalar dastagini navbatmanavbat **D** va **R** holatga o'tkazing. Dvigatelni haddan tashqari yuqori aylanish tezligida ishlatmang.

To'xtatib qoldirish (parkovka)

Qo'l tormozini torting, o'tkazish dastagini P holatiga o'tkazing va o't oldirish kalitini sug'urib oling.

Elektron avtomobil haydash dasturlari

- Dvigatelni sovuq holatdan ishga tushirishdan so'ng, ishchi haroratga yetkazish dasturi katalitik neytrallashtirgichni talab qilingan haroratga tez yetkazish uchun dvigatel aylanish tezligini oshiradi.
- Neytral holatga avtomatik tarzda o'tkazish dasturi, agar oldinga yurish uzatmasi qo'shilgan, ammo avtomobil to'xtab turgan bo'lsa, avtomatik tarzda salt yurish holatiga o'tkazadi.

"Kickdown"

Agar tezlik tepkisi to'liq bosilganda, dvigatel aylanish tezligiga bog'liq holda uzatmalar qutisi nisbatan quyiroq uzatma holatiga o'tadi.

Nosozlik

Nosozlik yuz beradigan bo'lsa, nosozlik indikatori  yonadi. Uzatmalar qutisi ma'lum uzatma holatida blokirovka bo'lib qoladi va avtomatik rejimda ham, qo'l rejimda ham boshqa uzatmaga o'tmaydi.

Chevrolet servis markaziga murojaat qilib, bu nosozlikning sababini bartarafe eting.


Elektr ta'minoti uzilib qolishi

Elektr energiyasi ta'minoti vaqtincha uzilib qolganda, uzatmalarga o'tkazish dastagini P holatdan boshqa holatga o'tkazib bo'lmaydi. O't oldirish kalitini ham joyidan olib bo'lmaydi.


Agar akkumulyator batareyasi quvvatsizlangan bo'lsa, dvigatelni boshqa akkumulyator batareyasi yordamida ishga tushiring, qarang: Qo'shimcha akkumulyator batareyasidan ishga tushirish ⚡ 9-35.

Agar nosozlikning sababi akkumulyator batareyasi bo'lmasa, uzatmalar dastagini qulfdan chiqarib, o't oldirish kalitini joyidan sug'urib olish tavsiya etiladi.

Uzatmalar dastagini qulfdan chiqarish



1. Qo'l tormozini torting.



MEXANIK UZATMALAR QUTISI

2. Dastak o'ng tarafida joylashgan qopqoqni oching.
3. Dastak quldan ochilishi uchun teshikka otvyortkani tiqing, dastakni **P** holatdan **N** holatiga o'tkazing.
4. Qopqoqni yoping.



Uzatmalarini almashlab qo'shish dastagi holatlari:

- : Neytral uzatma holati
- 1 - 5 : Birinchi uzatmadan beshinchini uzatmagacha
- R** : Orqaga yurish

Oldinga yurish uzatmaları

Ilashish tepkisini bosing va uzatmalar dastagini sxemada ko'rsatilgandek kerakli holatga o'tkazing. Uzatmalar dastagini quyiroq uzatmaga o'tkazayotganda dvigatelni aylanish tezligini juda yuqori oshirmang.

Orqaga yurish

Ilashish tepkisini bosing va uzatmalar dastagini **R** holatiga o'tkazing.

Eslatma

Uzatmalar dastagini avtomobil to'xtab turganda va bir necha soniya davomida ilashish tepkisini bosib turgandan so'nggina **R** (orqaga yurish) uzatmasiga o'tkazing.

Agar bu uzatmaga o'tish osonlikcha amalga oshmasa, uzatmalar dasatagini neutral holatga qaytaring va oyoqni ilashish tepkisidan oling, uni qayta bosing va uzatmalar dastagini o'tkazing.

Eslatma

Elektron modul uzatmalar dastagini joiz bo'limganda quyi uzatmaga o'tkazish oqibatida aylanish tezligining haddan ortiq oshib ketishitufayli yuzaga keladigan shikastlar dvigateli himoya qila olmaydi. Masalan:

- 4-uzatmadan 5-uzatmaga o'tkazishmoqchi bo'lib, adashgan holda 3-uzatmaga o'tkazib qo'ydingiz.
- Siz pastga yo'nalgan uzun qiyalikdan neytral uzatmada harakatlanmoqdasisiz, so'ngra dastakni quyi uzatmaga o'tkazdingiz. Bunday vaziyatlarda, elektron modul qanday ishlashidan qat'i nazar va purkalayotgan yonilg'i miqdoriga bog'liq bo'limgan holda dvigatelning aylanishlar soni keskin ortadi. Aylanishlar soni me'yordan ortib ketishi mumkin, bu esa dvigatelning ichki qismlariga jiddiy zarar yetkazadi.

TORMOZLAR

Tormoz tizimi ikkita mustaqil tormoz konturini o'z ichiga oladi.

Agar tormoz tizimining bir konturi ishdan chiqsa, ikkinchi kontur yordamida avtomobilni tormozlash mumkin. Biroq tormoz tepkisini oxirigacha bosilsagina tormozlanish samarasiga erishish mumkin. Buning uchun esa anche ko'p kuch ishlatish talab etiladi. Tormozlanish yo'lli uzunligi esa ortadi. Bunday holatda harakatlanishni davom ettirishdan avval Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Dvigatel ishlarayotgan holatda tormoz tizimining kuchaytirgichlari tayanchi tormoz tepkisini bir yoki ikki marta bosgandan so'ng yo'qoladi. Tormoz effekti yo'qolmasada, tormozlash uchun ko'proq kuch talab etiladi. Buni, ayniqsa, avtomobil shataffa olinganda esda tutish zarur.

DIQQAT!

Bir tormoz konturi ishlaray qolsa, tormoz tepkisini bosish uchun ko'proq kuch talab etiladi va tormozlanish yo'lli uzunligi ortadi. Chevrolet servis markazida tormoz tizimini tekshiriting va ta'mirlating. Agar tormoz pedalini bosishda tormoz tepkisi bosilish uzunligi odatdagidan ko'r uzunroq bo'lsa, tormoz ta'mirlab bo'lishi mumkin. Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

DIQQAT!

Avtomobilda harakatlanayotganda, agar zarurat bo'lmasa, oyog'ingizni tormoz tepkisi ustida qo'yib turmang. Bu tormoz tizimi qismlarining tez eskirishiga olib keladi. Bundan tashqari, tormozlar qizib ketadi, bu esa oqibatda tormoz yo'lli uzayib, harakat xavfsizligi pasayishiga olib keladi.

OGohlantirish!

Chuqur ko'lmaklardan harakatlanish, avtomobilni yuvishdan so'ng yoki tik qiyalikdan tushishda intensiv tormozlash amalga oshirilganda, so'ng tormozlar samaradorligi vaqtincha pasayishi mumkin. Bu holat tormoz mexanizmi qismlaridagi namlik yoki ularning qizib ketishi bilan izohlanadi.

Qizib ketish natijasida tormoz tizimining samaradorligi vaqtincha yo'qolganda quyidagicha harakat qiling. Qiyalikdan pastga tusha yotganda uzatmalar dastagini quyiroq uzatmaga o'lazing. Uzoq tormozlanishga yo'lli yo'ymang.

Tormoz tizimi samaradorligi tormoz mexanizmlari qismlaridagi namlik natijasida vaqtincha yo'qolib qolganda quyidagi harakatlar u tizimning me'yoriy faoliyatga qaytishiga yordam beradi:

1. Orqada avtomobillar boryo'qligini tekshiring.

OGohlantirish!

2. Xavfsiz tezlikda va orqada hamda yoningizda ketayotgan avtomobillar bilan masofani saqlagan holda harakatlanishda davom eting.
3. Normal tormozlanish tiklangunga qadar tormozni asta sekinlik bilan bosing.

OGohlantirish!

Maxsus manevrler vaqtida rul chambargining oxirgi nuqtasiga aylantirganda (o'ng yoki chap tomon oxirgi nuqtasigacha) va konditsioner yoqilganda, haydovchi tormoz pedalini bosganda, pedalning qattiqligini sezishi mumkin. Bunday hollarda tormoz pedalida kuchni oshirish kerak. Tormoz pedalining harakatini yengillashtirish uchun, rul chambargini to'liq oxirigacha burmaslik tavsiya etiladi. Ushbu amaliyot boshqa avtomobil ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham q'llaniladi.

Qarang: Tormoz va ilashish tizimi haqida ogohlantirish indikatori ⇨ 4-12.

Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS) (Agar mavjud bo'lsa)

Qulflashga qarshi tormoz tizimi (ABS) g'ildiraklarni quflanib qolishdan saqlaydi.

G'ildiraklar qulflanishga moyillikni namoyon qilgani zahoti ABS tormoz mexanizmlarini boshqara boshlaydi. Hatto o'ta keskin tormozlanishda ham avtomobilni boshqarish mumkin bo'lib qolaveradi.

Avtomobilda harakatlanayotganda tormoz pedalida seziladigan impuls va boshqaruv jarayonida chiqadigan xarakterli tovush orqali ABS tizimi ishga tushganligini bilish mumkin. Optimal tormozlanish uchun tormoz-lanish jarayonida tormoz pedalida sezilayotgan impulslarga qaramay uni to'lq bosishga harakat qiling. Tormoz pedaliga berilayotgan bosimni pasaytirmang.

ABS tizimi ishlashi vibratsiya va shovqin bilan kechadi.

Tormoz pedaliga berilayotgan bosim kuchini susaytirmang.

O't oldirish tizimini yoqqandan so'ng, avtomobilni ishga tushirganda mexanik tovushlar eshitilishi mumkin. Bu ABS tizimi ishga tushishi jarayonidagi normal holat hisoblanadi.

Qarang: Tormozlar antiblokirovka tizimi (ABS) signalizatori ⚫ 4-12.

To'xtash chiroqlari moslashuv tizimi

To'lq tormozlanish jarayonida ABS tizimi ishlab turgan paytda barcha tormoz chiroqlari yonib o'chadi.

Nosozlik


⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar ABS tizimi nosoz bo'lsa, g'ildiraklar me'yoriydan ko'rta keskinroq tormozlanishda qulflanib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda ABS tizimi imkoniyatlardan foydalanib bo'lmaydi. Keskin tormozlanish jarayonida avtomobil boshqaruvi yo'qolishi va yo'lidan chetga chiqib ketishi mumkin.

Favqulodda intensiv tormozlanishda avtomobil boshqa haydovchilarni ogohlantirish uchun barcha tormoz chiroqlarini yonib o'chirishi mumkin.

Chevrolet servis markaziga murojaat qilib, bu nosozlikni bartaraf eting.

To'xtash tormozi



⚠ DIQQAT!

Avtomobil harakatlanayotgan paytda zinhor qo'l tormozini tortmang. Bu avtomobilning surib ketishi va turli jarohatlanishlarga olib kelishi mumkin.

Favqulodda tormozalashni yengillatish tizimi

Agar haydovchi tormoz pedalini keskin va kuch bilan bosadigan bo'lsa, tormoz avtomatik tarzda eng yuqori kuch bilan ishlay boshlaydi (to'lq tormozlanish).

To'lq tormozlanish talab qilingunga qadar tormoz pedalini uzluksiz bosib turishda davom eting. Tormoz pedali qo'yib yuborilganda maksimal tormozlanish kuchi avtomatik tarzda pasayadi.

YOQILG'I

Tavsiya etiladigan yonilg'i

Tarkibidagi etanol 10% dan ko'p bo'lмаган yonilg'iдан foydalanish mumkin.

Yonilg'i turi siz yashayotgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq bo'lishi zarur.

RON oktanlar soni 91 dan kam bo'lgan benzindan foydalanganda dvigatel quvvati va aylanish momenti pasayadi va yonilg'i sarfi biroz ortadi.

DIQQAT!

Oktanlar soni kam bo'lgan benzindan foydalanganda yonish jarayoni nazoratdan chiqishi va dvigatelga shikast yetishi mumkin.

Yonilg'i quyish

XAVFLI

Yonilg'i quyishdan avval dvigateli va o'z isitish kamerlariga ega bo'lgan tashqi isitkichlarni o'chirib qo'ying. Barcha mobil telefonlarni o'chirib qo'ying.

Avtomobilga yonilg'i quyish davomida yonilg'i quyish shoxobchasingin ko'ssatmalari va xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qiling.

XAVFLI

Yonilg'i tez yonuvchan va portlashga moyil moddadir. Chekilmasin. Ochiq alanga va uchqun chiqishiga yo'l qo'y mang.

Avtomobil salonida yonilg'i hidini sezsangiz, Chevrolet servis markaziga murojaat qilib, bu nosozlikni darhol bartaraf qiling.

DIQQAT!


Agar siz sifatsiz yonilg'iidan foydalansangiz yoki yonilg'i bakiga noto'g'ri yonilg'i qo'shimchalarini solsangiz dvigatel va katalitik neytrallashtirgichga jiddiy zarar yetishi mumkin.

Yonilg'i quyayotganda avtomobilingizga mos yonilg'iidan foydalananayotganingizga ishonch hosil qiling.

DIQQAT!

Yonilg'i uzatish tizimida nosozlik kuzatilsa, o't oldirish tizimini yoqmang.


Yonilg'i quyish baki og'zining qopqog'i avtomobilning o'ng tomonida joylashgan.



Eshik qulflari elektrlashtirilmagan avtomobilarda yonilg'i baki qopqog'i kalit bilan ochiladi.

Yonilg'i baki qopqog'inining to'sqichini tortib oching.

Eshik qulflari elektrlashtirilgan avtomobilarda yonilg'i baki qopqog'inining to'sqichi markaziy qulflash tizimidagi yoki masofadan boshqaradigan pultidagi tugmasini bosgan holda bo'shatiladi va tortib ochiladi.



DIQQAT!

Toshib ketgan yonilg'ini darrov artib tashlash kerak.

Yonilg'i baki qopqog'i

Yonilg'i bakingin faqat asl qopqog'i eng samarali hisoblanadi.

Shikastlanishlardan saqlanish

Sifati talabga javob bermaydigan, shuningdek, tarkibida marganets asosidagi metal qo'shimchalar bor yonilg'ilardan zinhor foydalanmang. Avtomobilingiz yonilg'i bakiga hech qachon boshqa turdag'i yonilg'ilar uchun mo'ljallangan qo'shimchalarni solmang, chunki bu dvigatel, yonilg'i purkagichlari, katalitik

neytrallahsingich va ifloslanishga qarshi tizimning barcha datchiklariga shikast yetkazishi mumkin va bu avtomobiliga berilgan kafolat doirasiga kirmaydi.

Purkagichlar

Chevrolet kompaniyasining avtomobilari o'zini-o'zi tozalovchi purkagichlar bilan jihozlangan va ularni vaqt-vaqt bilan tozalab turish talab etilmaydi.

Yonilg'i filtri

Yonilg'i filtrlarini "Texnik xizmat ko'rsatish" rejasida tavsiya qilingan muddatga muvofiq almashtiring.

Eslatma

Yonilg'ini purkash tizimlari oddiy tizimlarga qaraganda yuqoriroq bosimda ishlashini hisobga olib, ularga vaqt-vaqt bilan texnik xizmat ko'rsatish zarur.

Yonilg'i filtri va shlanglarni almashtirayotganda faqat GM kompaniyasining asl ehtiyoj qismlaridan foydalaning.

Yonilg'i qo'shimchalari

Benzin tarkibida dvigatel va yonilg'i tizimida paydo bo'ladigan cho'kmalarning oldini oluvchi tozalovchi qo'shimchalar bo'lishi zarur. Toza yonilg'i purkagichlari va kiritish klapanlari otqinlar chiqarishni nazorat qilish tizimining me'yoriy ishlashini ta'minlaydi. Ba'zi benzinlar

tarkibida yonilg'i purkagichlari va kiritish klapanlarini toza saqlash uchun yetarli miqdordagi qo'shimchalar bo'lmaydi. Tozalash vositalarining yetishmovchiligi o'rnnini to'ldirish uchun har 15 000 km yo'l bosib o'tilganda yoki har motor moyi almashtirayotganda yonilg'i bakiga PLUS yonilg'i tizimini tozalash vositasini qo'shing.

Bu vositani sizga xizmat ko'sratuvchi servis markazidan topishingiz mumkin.

Benzinli dvigatellar uchun yonilg'i



Aynan shunday texnik tavsifga ega bo'lgan va tarkibidagi etanol 10% dan ko'p bo'lмаган standart turdag'i yonilg'idan foydalanishga ruxsat etiladi.

Quyidagi manbada tavsiya qilingan oktanlar soniga ega benzindan foydalaning: Dvigatel ko'satkichlari ⇨ 11-3.

⚠ OGOLANTIRISH!

Oktanlar soni kam bo'lgan benzindan foydalanganda yonish jarayoni nazoratdan chiqishi va dvigatelga shikast yetishi mumkin.

Taqiqlangan yonilg'ilar

Ba'zi shaharlarda tarkibida efir va etanol kabi kislorodga boyitilgan moddalar bor bo'lgan benzinlar, shuningdek, tarkibi o'zgartirilgan benzinlar mavjud. Agar bu kabi benzinlar avval aytib o'tilgan texnik tavsifga mos kelsa, ulardan foydalanish mumkin. Biroq E85 (85% etanol) va tarkibida etanol 15% dan yuqori bo'lgan boshqa yonilg'ilaridan faqat etanolga ham, benzinga ham moslangan (FlexFuel) avtomobilarda foydalanish mumkin.



OGOHLANTIRISH!

Tarkibida metanol bo'lgan yonilg'iidan foydalanmang. Bu yonilg'i tizimidagi metal qismlarni zanglashiga, shuningdek, plastmassa va rezina qismlarning shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday shikastlanishlar avtomobil uchun berilgan kafolat doirasiga kirmaydi.

Ba'zi benzinlar, asosan, tarkibidagi oktanlar soni yuqori bo'lgan benzinlar tarkibida metilsiklopentadinil marganets trikarbonil (MMT) deb atalgan oktanni kuchaytiruvchi qo'shimchalar bo'lishi mumkin. Tarkibida MMT bo'lgan benzin va yonilg'i qo'shimchalardan foydalanmang, chunki ular o't oldirish shamchasining yondirish davrini kamaytirishi va chiqindi gazlarni nazorat qilish tizimining ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nosozlikni ko'rsatuvchi indikator yonib qolishi

mumkin. Agar shunday holat sodir bo'lsa, uni ta'mirlash uchun servis markaziga murojaat qiling.

9

AVTOMOBILNI PARVARISH QILISH

-
- UMUMIY MA'LUMOT 9-2
 - AVTOMOBILNI TEKSHIRISH OBYEKTTLARI 9-4
 - LAMPANI ALMASHTIRISH 9-17
 - ELEKTR TIZIMI 9-22
 - AVTOMOBIL QUROLLARI 9-28
 - G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR 9-28
 - QO'SHIMCHA AKKUMULYATOR BATAREYASIDAN ISHGA TUSHIRISH 9-35
 - SHATAKKA OLISH 9-36
 - TASHQI KO'RINISHIGA QAROV 9-38
 - ESLATMALAR 9-42

UMUMIY MA'LUMOT

Yordamchi qismlar va modifikatsiyalar



Aynan sizdagi avtomobil turiga mo'ljallangan asl ehtiyoj qismlar, aksessuarlar va zavod tomonidan foydalanim mumkinligi ma'qullangan detallardan foydalanim tavsiya etiladi. Garchi boshqa turdag'i mahsulotlar rasman biror sertifikatga ega bo'lsa ham, biz ulardan foydalanimsga ruxsat bermaymiz va ularga kafolat ham bermaymiz.

Elektr qurilmalar tizimini modifikatsiya qilish mumkin emas, masalan, elektron boshqaruv bloklarini o'zgartirish(komponentlarni almashtirish yoki dasturiy ta'minotini modifikatsiya qilish).

DIQQAT!

Hech qachon avtomobilna modifikatsiya qilmang. Bu avtomobil ish sifati, xizmat ko'rsatish muddati va uning xavfsizligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin, shuningdek, bu kabi o'zgartirishlar sababli yuzaga kelgan nosozliklarni uchun avtomobilga berilgen kafolat doirasida xizmat ko'rsatilmaydi.


Chevrolet servis markazlari



Shuni yodda tutingki, avtomobilingizda yuzaga keladigan har qanday nosozlikni bartaraf qilish uchun kafolat muddati tugagan yoki tugamaganligidan qat'ti nazar, istalgan Chevrolet servis markaziga murojaat qilishingiz mumkin. Sizga yuqori malakali mutaxassislar xizmat ko'rsatadi. Agar sizga biror qo'shimcha tushuntirishlar zarur bo'lsa, xizmat ko'rsatish bo'yicha menejeriga murojaat qiling.

DIQQAT!


Avtomobilni yaratishda jarayonida boshqa jihatlar bilan bir qatorda uning barcha yo'lovchilarining to'liq xavfsizligini ta'minlash talabları ham hisobga olingan. Shu sababli ham avtomobilni yig'ishda boltlarga ularni siljitmaydigan yelim surtilgan. Agar biror sabab bilan boltlarni yechish zarurati tug'ilsa, ular o'rniga aynan shu koddagi asl boltlar qo'yilishi zarur. Bundan tashqari, boltning yaxshi burab qotirilishi va yelimning yangi bolt bilan samarali tarzda fizikkimyo'viy jihatdan o'zaro ta'sirlanishi uchun siljitmaydigan yelim surtiladigan bolt qotiriladigan detalni ham yaxshilab tozalash juda muhim hisoblanadi. Shunday qilib, avtomobilning xavfsizligiga aloqador tizimlar (tormoz, o'rindiqlar, osma, xavfsizlik kamarlari va boshqalar) va bunday tizimlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tizimlarni faqatgina Chevrolet servis markazlari tarmogi yoki vakolatlari ta'mirlash ustaxonalarida ko'rikdan o'tkazish qat'iy tavsiya qilinadi. Batafsil ma'lumot uchun Chevrolet servis markazi yoki vakolatlari ta'mirlash ustaxonalariga murojaat qiling.

Avtomobilni ko'tarish

Rasmda ko'targich yoki domkrat tirkaklarini qayerga o'rnatish kerakligi ko'satilgan.

Eslatma

Agar ko'targich yoki domkrat tirkaklarining tiraladigan uchlari metalldan yasalgan bo'lsa, avtomobilga zarar yetmasligi uchun rezina qistirmalardan foydalanish zarur.

Akkumulyator batareyasi uzgichi**Uzib qo'yish**

1. Kapotni oching.
2. Barcha elektr tizimlar, jumladan, audio tizimlar, faralar, o'g'irlanishga qarshi signalizatsiya va akcessuarlar o'chirilganiga ishonch hosil qiling. Avtomobil o't oldirish tizimi o'chiq holatda ekanini tekshiring va avtomobil kalitini o't oldirish quflidan sug'urib oling.
3. Avtomobilning barcha eshiklarini yoping va o'g'irlanishga qarshi signalizatsiyani yoqmang.
4. Akkumulyator batareyasi qopqog'ini olib qo'ying (agar mavjud bo'lsa).
5. Akkumulyator batareyasining manfiy klemmasi gaykasini bo'shating.
6. Manfiy klemmani akkumulyator batareyasidan uzing.

Ulash

1. O't oldirish tizimi o'chirilganligi va avtomobil kaliti undan sug'urib olinganligiga ishonch hosil qiling. Kapotni oching va akkumulyator batareyasining manfiy klemmasini joyiga o'rnatiting.
2. Akkumulyator batareyasining klemmasi gaykasini qotiring.
3. Akkumulyator batareyasi qopqog'ini joyiga o'rnatting (agar mavjud bo'lsa)
4. Kapotni yoping.

Avtomobilni saqlash**Uzoq muddat davomida saqlash**

Agar avtomobil bir necha oy davomida saqlab qo'yiladigan bo'lsa:

- Avtomobilni yuvинг va unga mum pastasi surib chiqing.
- Rezina zichlagichlarni tozalang va himoyalang.
- Dvigatel moyini almashtiring.
- Oyna yuvish suyuqligi bakchasin bo'shating.
- Sovutuvchi suyuqlikning muzlashdan va zangdan himoyalanganlik holatini tekshiring.
- Shinalardagi bosimni avtomobilning toliq yuk ortilgan holatga mo'ljallangan bosimga keltiring.
- Avtomobilni quruq, havo yaxshi aylanadigan joyga qo'ying. Avtomobil o'zidan-o'zi siljib ketmasligining oldini olish uchun almashlab qo'shish dastagini birinchi uzatmaga yoki orqaga yurish uzatmasiga yoki P" (parkovka) holatiga o'tkazib qo'ying.

- To'xtash tormozini qo'shmang.
- Akkumulyator batareyasini "Akkumulyator batareyasini uzish" bo'limida ko'rsatilgan tartibda uzib qo'ying.
- Qarang: Akkumulyator batareyasi uzbekchi \diamond 9-3.
- Kapotni yoping.

Avtomobilni foydalanishga qaytarish

Avtomobilni foydalanishga qaytarish vaqtiga kelganda:

- Akkumulyator batareyasini "Akkumulyator batareyasini uzish" bo'limida ko'rsatilgan tartibda ulang.
- Shinalar bosimini tekshiring.
- Oyna yuvgich suyuqligi bakchasinini to'ldiring.
- Dvigatel moyi darajasini tekshiring.
- Sovituvchi suyuqlik sathini tekshiring.

Otqinlar haqida ma'lumot

- Dvigatel salt rejimda aylangan vaqtidagi va o't oldirish tizimi yoqilgan vaqtidagi (qo'zg'alish paytida) atmosferaga chiqariladigan CO (uglerod oksidi) otqinlarning ruxsat etilgan maksimal darajasi 0,5% ni tashkil qiladi. Bu qiymat atmosferaga chiqariladigan otqinlarni o'lchash uchun qo'llaniladigan standart yonilg'iqa taalluqli.
- Avtomobilning har qanday holatida ham dvigatel karteridan atmosferaga otqinlar umuman chiqmasligi kerak.

- Avtomobil transporti atmosferani ifloslashini oldini olish maqsadida ushbu avtomobil u ishlab chiqarilgan sanagacha amalda bo'lgan qonunchilik hujjatlarda otqinlar uchun belgilangan limitlarga oid talablarga javob beradi.
- Dvigatel salt aylanishlari qiymati sozlanmaydi. Dvigatejni boshqarish moduli (ECM) CO foizi va salt aylanishlami to'g'rilashni hisoblab beradi.
- Yonilg'i quyish shaxobchalarida sotiladigan tarkibida qo'shimchalar bo'lgan yonilg'idan foydala-nish tavsiya qilinadi.

Eslatma

Ko'zda tutilganidan boshqa turdagи yonilg'idan foydalanish avtomobil ishlasini yomonlashtirishi, yonilg'i purkash tizimiga zarar yetkazishi mumkin, shu bilan birga, dvigatela zarar yetkazishi mumkin. Avtomobil uchun berilgan kafolat bu turdagи ishdan chiqishlar uchun amal qilmaydi.

AVTOMOBILNI TEKSHIRISH OBYEKLARI

Texnik xizmat ko'rsatish ishlarini mustaqil bajarish



OGohlantirish!

Dvigatel bo'lmasini tekshirish vaqtida o't oldirish tizimini o'chirib qo'yish shart. Radiator ventilatori avtomobil o't oldirish tizimi o'chgan holatida ham ishlab turishi mumkin.

Xavfli

O't oldirish tizimida o'ta yuqori kuchlanishdan foydalaniladi. Bu tugunlarga qol'tekkizmang.

Kapot**Ochish**

Ochish dastagini torting va uni boshlang'ich holatiga qaytaring.




Saqlovchi lo'kidonni chapga bosing va kapotni oching.

 OGOHLANTIRISH!

Dvigatel qizib turgan paytda teri kuyishidan saqlanish uchun avtomobil kapoti tiragichining faqt plastmassa qoplamasidan ushlang.

Qarang: Havo tortish ⇨ 7-6.



Kapotni ochib qo'yish uchun tiragich uchini kapot teshigiga tiqing.

Yopish

Kapotni yopishdan oldin tiragichni qisqichiga qistiring.

Kapotni tushirib, lo'kidonga qulflanishi uchun qo'yib yuboring. Kapot lo'kidonga qulflanib yopilgani tekshiring.

⚠ OGOLANTIRISH!

Doimo quyidagi ehtiyyot choralariga rioya qiling:


- Harakatni boshlashdan oldin kapotning old chetini tortib ko'rgan holda uning ochiq emasligiga ishonch hosil qiling.
- Avtomobil harakatlanayotganda kapotni ochish dastagini tortmang.
- Kapot ochiq holida avtomobil bilan harakatlanmang. Kapot ochiq bo'lsa, haydovchining ko'rishini to'sib qo'yadi.
- Kapot ochiq holida avtomobilda harakatlanish to'qnashuvga olib kelishi, natijada, avtomobilga yoki boshqa biror moddiy zarar yetishiga, jarohat yoki hatto o'lim holatlariiga sabab bo'lishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Kapot tiragichi tirab qo'yilganda uni kuch bilan pastga tortmang.



Dvigatel bo'lmasi umumiy ko'rinishi



1.5 litrli benzинli dvigateл

1. Dvigatel havo filtri ⇨ 9-11
2. Dvigatel moyini quyish teshigi qopqog'i.
Qarang: Dvigatel moyi ⇨ 9-8
3. Tormoz suyuqligi bakchasi. Qarang: Tormoz mexanizmlari suyuqligi ⇨ 9-14.
4. Akkumulyator batareyasi. Qarang: Akkumulyator batareyasi ⇨ 9-15
5. Dvigatel bo'lmasidagi elektr saqlagichlar bloki. Qarang: Dvigatel bo'lmasidagi saqlagichlar bloki ⇨ 9-23
6. Oyna yuvgich suyuqligi bakchasi. Qarang: Yuvgich suyuqligi ⇨ 9-14.
7. Rul boshqaruvi kuchaytirgichi suyuqligi bakchasi. Qarang: Rul boshqaruvi kuchaytirgichi suyuqligi ⇨ 9-14.
8. Dvigateli sovituvchi suyuqlik bakchasi. Qarang: Dvigatel sovitish suyuqligi ⇨ 9-11.
9. Dvigatel moyi sathini o'lchash tayoqchasi. Qarang: Dvigatel moyi ⇨ 9-8.

Dvigatel moyi

Dvigatel moyini qachon almashtirish kerak

Moyni almashtirish dvigatel qiziganda bajariladi. Agar avtomobil «og'ir sharoitlarda» foydalaniladigan bo'lsa, har bir 5000 km yoki 3 oy o'tganda, qaysi muddat oldin kelishiga qarab, moyni almashtiring. (TXK Reglamentiga qarang)

Eslatma

Moyni foydalanish muddatiga yoki o'tilgan yo'lga bog'liq holda almashtiring, chunki moy nafaqat dvigatelning ishlashi tufayli, balki eskirishi tufayli ham asta-sekin o'z xususiyatlarini yo'qotadi. Kerakli turdag'i moyni quyish, va shu bilan dvigatelning detallari soz ishlashini ta'minlash uchun, Chevrolet servis markazida moy almashtirish tavsiya etiladi. Mos kelmaydigan turdag'i moydan foydalanish tufayli kelib chiqqan shikastlanishlar yuzasidan kafolat amal qilmaydi.

Moyning sathini har hafta, shuningdek uzoq saqarga borishdan avval tekshiring.


Har bir 1000 km o'tilgan yo'l uchun 0,18 l gacha moy sarflanishi normal deb hisoblanadi.

Moyning sathi avtomobil gorizontal holatda bo'lginga, va dvigatel o'chirilganda (u normal ish haroratiga ega bo'lishi lozim) tekshiriladi.


Moyning sathini tekshirishdan avval, ishslash vaqtida dvigatelda bo'lgan moy karterga qaytib oqib tushishga ulgurishi uchun, dvigatelning to'xtaganidan keyin kamida 10 daqiqa kutib turing.

Agar moy sovuq bo'lsa, oqib tushishi uchun ko'proq vaqt talab etilishi mumkin.

Dvigatel moyi sathini tekshirish



Moy sathini tekshirish uchun o'lchash tayoqchasini joyidan sug'urib oling.



Uni tozalab arting va joyiga oxirigacha tiqib qo'ying, so'ngra, yana su'gurib oling va moy sathini tekshiring.

Uning sathi tayoqchaning quyi (MIN) va yuqori (MAX) belgilari oralig'ida bo'lishi kerak.

Moy sathi o'lchash tayoqchasining eng quyi (MIN) darajasiغا yoki undan ham pastga tushib qolgan bo'lsa, kamiga moy qying. Bunda bir martada quyladigan moy 1 litrdan oshmasligi kerak va undan so'ng, moy sathini yana tekshiring.

⚠ DIQQAT!

Hech qachon sifati turilcha bo'lgan moylarni aralashtirmang.

Faqat qo'llanmada ko'rsatilgan sifatdagi va quyushqoqlig darajasidagi motor moyidan foydalaning. Ko'zda tutilganidan boshqa


⚠ DIQQAT!

turdagi motor moyidan foydalinish dvigatelga zarar yetishiga va avtomobil uchun berilgan kafolatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Chevrolet servis markazi yoki vakolatlari ta'mirlash ustaxonasidan ushbu moyning Dexos 1 texnik tavsifiga mos kelishini tekshirib oling.

Moy sathi o'lchash tayoqchasining eng yuqori (MAX) belgilidan oshib ketmasligi kerak. Agar oshib ketsa, bu moy sarfining oshib ketishi, o't oldirish svechasining izolyatsiyalanishiga va qurumning haddan ortiq ko'p miqdorda hosil bo'lishi kabi holatlarga olib keladi.

⚠ DIQQAT!

To'lib toshgan ortiqcha moy chiqarib tashlanishi yoki tortib olinishi zarur.



Qarang: Hajmlari va texnik xarakteristikalar
d 11-9.

Qopqoqni tekis qo'ying va mahkamlang. Avtomobil dastlabki bir necha ming kilometr yo'Ini yurgandan keyin moy sarfi barqarorlashadi. Shundan keyingina amaldağı moy sarfini aniqlash mumkin.

⚠ OGohlantirish!

Motor moyi qo'zg'ovchi modda hisoblanadi va agar u ichga yutilsa, zaharlanishga yoki o'lim holatiga olib kelishi mumkin.

Uni bolalar qo'l yetmaydigan joyda saqlash zarur.

Motor moyini muntazam tarzda yoki uzoq muddat teringizga tegishidan saqlaning.

Tanangizing motor moyi tekkan joylarini sovun yoki maxsus qo'l yuvish vositasi bilan yuvib tashlang.

Motor moyini chiqarib tashlash vaqtida juda ehtiyoj bo'lish talab etiladi, chunki u tanani kuydiradigan darajada qaynoq bo'lishi mumkin.

To'g'ri keladigan dvigatel moyini tanlash

To'g'ri keladigan motor moyini tanlash moyning texnik tavsifiga va uning qovushqoqligiga bog'liq.

Motor moyi texnik tavsifi

- Dexos 1, Dexos 2

Texnik tavsif

Dexos sertifikatlash belgisi va tegishli lizenziyaga ega motor moyidan foydalaning va shunday moyni talab qiling. Mazkur avtomobil talab qiladigan motor moyi Dexos kompaniyasi ma'qullagan sertifikatlash belgisiga ega bo'lishi zarur. Bu sertifikatlash belgisi ushbu moyning Dexos texnik tavsifiga ko'ra ma'qullanganligini bildiradi.

Avtomobilingiz dvigateliga uni ishlab chiqargan zavod tomonidan Dexos ma'qullagan sertifikatlash belgisiga ega moy quyligan.

Faqat Dexos texnik tavsifiga ko'ra maq'ullangan yoki shunga mos qovushqoqlik darajasiga ega bo'lgan muqobil motor moyidan foydalaning. Tavsiya qilingan yoki unga muqobil bo'lgan motor moyidan foydalanaslik natijasida dvigatelga zarar yetganda, buning uchun avtomobilga berilgan kafolat doirasiga xizmat ko'rsatilmaydi.

Agar siz tanlagan moy Dexos texnik tavsiflariga mos ekanligiga ishonchingiz komil bo'limasa, bu haqida avtomobilga texnik xizmat ko'rsatuvchidab ma'lumot oling.

Agar avtomobilingiz dvigateli turini bilmasangiz, sizga xizmat ko'rsatuvchi vakolatlari ta'mirlash ustaxona-sidan bu haqida ma'lumot oling.

Motor moyining quyushqoqlik darajasi

SAE quyushqoqlik darajasi moyning quyuqligi haqida ma'lumot beradi.

Universal moy ikki ko'rsatkich raqam bilan ko'satiladi:

Birinchi ko'rsatkich raqam W harfi bilan birga ko'satiladi va u quyisi haroratdagi quyushqoqlikni bildirsa, ikkinchi ko'rsatkich raqam yuqori haroratdagi quyushqoqlikni anglatadi.

SAE 0W-20 avtomobilingiz uchun quyushqoqlik darajasi eng maqbul bo'lgan moydir. Quyushqoqlik darajasi boshqacha bo'lgan SAE 10W-30, 10W-40, 20W-50 kabi moylardan foydalananmang.

Sovuq haroratda foydalinish

Agar avtomobilingiz -25°C dan pasayib ketadigan keskin sovuq sharoitda ishlaydigan bo'lsa, quyushqoqlik darajasi SAE 0W-xx bo'lgan moydan foydalinish kerak bo'ladi. Bunday quyushqoqlik darajasidagi moy keskin sovuq havoda dvigateli oson o't olishini ta'minlaydi.

Tegishli quyushqoqlik darajasiga ega bo'lgan moyni tanlashda doimo Dexos texnik tavsifiga mos keladigan moy tanlayotganingizga ishonch hosil qiling.

- -25°C gacha bo'lgan harorat uchun: 5W-20, 5W-30.
- -25°C va undan past harorat uchun: 0W-20, 0W-30.

Motor moyi qo'shimchalari/Motor moyi tizimini yuvish

Moga hech narsa qo'shmang. Dvigatelning yaxshi ishlashi va himoyasi uchun Dexos texnik tavsifiga ega bo'lgan va Dexos sertifikatlash belgisi aks ettilrilgan motor moylari talab etiladi. Motor moyi tizimini yuvib tashlash tavsisi qilinmaydi va bu dvigatelga zarar yetishiga olib keladi va bu zarar avtomobilga beriladigan kafolat doirasiga kirmaydi.

Motor moyi kamini to'ldirish

Agar motor moyiga oid ko'zda tutilgan talablariga (texnik tavsifi va quyushqoqlik darajasi) javob bersa, turli ishlab chiqaruvchilar va savdo belgilari motor moylarini aralashti-rish mumkin.

Agar talab qilingan sifatdagi motor moyi topilmasa, API SM/SN, ACEA A3/B4, ACEA A3/B3 yoki ACEA C3 sifatidagi moylardan maksimum 1 litr quyish mumkin (har bir moy almashtirish oraliqlari o'tasida faqat bir marta). Quyushqoqlik darajasi to'g'ri keladigan motor moyi bo'lishi kerak.


Faqat ACEA A1/B1 yoki ACEA A5/ B5 sifatidagi motor moylaridan foydalanish taqiqlanadi, chunki bu avtomobil ishlatalidigan muayyan sharoitlarda dvigatelning uzoq muddatga ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Moy filtrini almashtirish

Har gal moy almashtirilganda filtr ham almashtirilishi kerak.

Moy filtrini Chevrolet servis markazida almashtirish tavsiya qilinadi.

Dvigatel havo filtri



Filtrlovchi elementni tozalash

- Kapotni oching.
- Mahkamlash ashyolarini bo'shating.

- A konnektor fiksatorini ehtiyojkorlik bilan oching.
- A fiksatorni ajratgandan so'ng A fiksator prujinasini bosib turib, konnektorni tashqariga torting.
- Shlangdagi metall xomutni bo'shating.
- Shlangni yechib oling.
- Havo filtri bloki qopqog'ini ehtiyojkorlik bilan oling.
- Havo filtrining filtrlovchi elementini chiqarib oling va uni yengil chertib tozalang.
- Shuningdek, havo tozalagichning ichlarini ham tozalang.

Dvigatel sovitish suyuqligi


Sovituvchi suyuqliknini almashtirish

Dvigatel sovitish tizimi radiatorning xizmat davrini uzaytiruvchi sovitish suyuqligi (etilenglikol asosidagi) bilan to'dirligan bo'lub, u mushlash, qaynash va zanglashdan tegishlichcha himoyani ta'minlovchi xususiyatga ega. Sovituvchi suyuqlik har 5 yilda yoki avtomobil har 150 000 km masofani bosib o'tgandan so'ng almashtirilishi lozim.

OGohlantirish!

Kengaytirish bakchasi qopqog'ini ochishdan oldin dvigatel sovishini kuting. Bosimni sekin bo'shatgan holda qopqoqni ehtiyojkorlik bilan oching.

Sovituvchi suyuqlik sathi.



Agar sovitish tizimi sovuq bo'lsa, sovituvchi suyuqlik sathi to'dirish chizig'idan yuqorida bo'lishi kerak. Agar uning sathi past bo'lsa, sovitish suyuqligi kamini to'diring.

Buning uchun kengaytirish bakchasiغا mineraliszantirilgan SUV va radiatorlar uchun AC Delco qo'shimchasi (uzoq xizmat muddati – apelsin rang) aralashmasini (qo'shimcha miqdori 50% nisbatda) quying.

Eslatma

Radiatorlar uchun qo'shimchani (uzoq xizmat muddati – apelsin rang) standart qo'shimchalar (yashil rang) yoki emulsiyalı C moyi singlar boshqa materiallar bilan aralashirmslik lozim. Bunday aralashmalar cho'kindilar hosil qilgan

holda reaksiya beradi va bu tizimning iflosalishiga olib keladi, natijada bu u dvigatelning qizib ketishiga sabab bo'ladi. Ushbu qo'shilma turini o'zgartirganda tizimni yaxshilab yuvib tashlash kerak.

Qopqoq'ini zich yoping. Chevrolet servis markazida sovituvchi suyuqlik konsentratsiyasini tekshirtiring va ushbu suyuqlik yo'qolib borishiga olib kelayotgan sabablarga barham bering.

Dvigatelning ortiqcha qizib ketishi

Avtomobil sovituvchi suyuqligi haroratini ko'rsatuvchi indikator chiroq'i priborlar panelida joylashgan.

Bu chiroqcha sovituvchi suyuqlik harorati oshib ketganligini ko'rsatadi.

Eslatma

Agar dvigatel sovituvchi suyuqliksiz ishlaydigan bo'lса, avtomobilga jiddiy zarar yetishi mumkin. Bunday holat yuza bersa, avtomobilga beriladigan kafolat bu nosozlikni qamrab olmaydi.

DIQQAT!

Kengaytirish bakchasi qopqoq'i va kengaytma bakachada burab mahkamlashni chekllovchi moslama mavjud. Qopqoqni yopishda uni sekin burang va burash davomida qarshilik sezishingiz bilan burashni to'xtating. Agar qarshilik nuqtasiga yetgandan keyin ham qopqoqni burashda davom etsangiz, qopqoq

DIQQAT!

ham, kengaytirish bakchasi ham ishdan chiqadi, bu esa sovitish tizimida nosozlik paydo bo'lishiga olib keladi va dvigatelga zarar yetishiga ham olib kelishi mumkin. Bu nosozliklar avtomobilga berilgan kafolat doirasiga kirmaydi.

Dvigatelning bug' chiqmasdan qizib ketishi

Agar dvigatel qizib ketganini haqida xabar ko'rinsayu, bug' chiqishi kuzatilmasa, muammo unchalik jiddiy emas. Quyidagi hollarda dvigatel qizib ketishi mumkin:

- Avtomobil havo harorati yuqori bo'lgan sharoitda tikka ko'tarilib boriladigan qiyalikda harakatlanayotgan bo'lса.
- Avtomobil yuqori tezlikda harakatlanib, to'xtaganidan so'ng.
- Uzoq yo'l yurish davomida avtomobil dvigateli past aylanishda ishlagan bo'lса.

Agar biror o'zgarish bo'lmasa yoki bug' chiqish alomatlari bo'lmasa, taxminan 1 daqiqa davomida quyidagi jarayonni bajaring:

1. Konditionerni o'chiring (agar mavjud bo'lса)
2. Dvigatelga tushadigan yuklamani saqlab turishga harakat qiling (dvigatel sekin aylanadigan uzatmaga o'tkaizing).

Agar dvigatel qizib ketgani haqidagi ogohlantirish yo'qolsa, avtomobilda harakatlanishni davom ettirish mumkin. Xavfsizlik maqsadida, taxminan 10 daqiqa

sekin harakatlaning.

Agar haroratni ko'rsatuvchi indikator me'yoriy darajaga tushsa, harakatlanishni davom ettirir.

Agar sovitish suyuqligining harorati pasaymasa, darhol dvigateli to'xtating va avtomobilni to'xtating.

Agar bug' ko'rinsayu, avtomobil to'xtab turgan holatda dvigateli 2 yoki 3 daqiqacha salt aylanish holatida ishlating va dvigatel qizib ketgani haqida ogohlantiruvchi chiroq o'chgan yoki o'chmaganini tekshiring.

Agar dvigatel qizib ketgani haqida ogohlantiruvchi chiroq o'chmasa, dvigateli o'chirib, salondagi yo'llovchilardan avtomobilni tark etishlarini so'rang va dvigatel sovishini kuting. Sustaql tarzda dvigatel bo'lmasini ochishingiz ham mumkin, biroq darhol texnik yordamga murojaat qilish lozim. Agar dvigatel bo'lmasini ochsangiz, kengaytirish bakchasi-dagi sovituvchi suyuqliknini tekshiring.

DIQQAT!

Agar kengaytirish bakchasi-dagi sovituvchi suyuqlik qaynab ketgan bo'lса, ortiqcha harakat qilmay, uning sovishini kuting.

Sovituvchi suyuqlik sathi ko'rsatilgan belgi darajasida bo'lishi zarur. Agar uning sathi pasayib ketgan bo'lса, bu radiator shlanglari, isitkich shlanglari, radiatorining o'zi yoki suv nasosida suyuqlik sizib chiqish holati bo'lishi mumkinligini bildiradi.

 DIQQAT!

- Isitkich shlanglari, radiator shlanglari, shuningdek, dvigatelning boshqa qismlari qizigan bo'lishi mumkin. Ularga tegmang, aks holda, kuyib qolishingiz mumkin.
- Agar biror joydan suyuqlik sizib chiqayotgan bo'lsa, dvigateli ishga tushirmang, aks holda bor sovituvchi suyuqlik ham oqib ketishi va bu kuyish holatlari sabab bo'lishi mumkin. Avtomobil bilan harakatni boshlashdan oldin suyuqlik oqayotgan joylarni ta'mirlash zarur.

Bug' chiqqan holda dvigatel qizib ketishi** DIQQAT!**

- Dvigatel qizib ketishidan ajralib chiqadigan bug', garchi siz dvigatel bo'lmasini ozgina ochsangiz ham, jiddiy kuyishga sabab bo'lishi mumkin. Agar bug' ajralib chiqayotganini ko'rib qolsangiz, dvigatela yaqinlashmang. Dvigateli o'chiring. Agar nosozlikning sababi aniqlanmasa, biroq sovituvchi suyuqlik sathi maksimal darajadan past bo'lsa, ichimlik suvi radiator uchun ACDelco qo'shilmasi (uzoq xizmat muddati – apelsin rang) aralashmasini (qo'shilma 50% bo'lgan nisbatda qo'shiladi) kengaytirish bakachasi quying. Sovituvchi suyuqlik sathi maksimal daraja belgisiga yetgandan so'ng dvigateli ishga tushiring. Agar dvigatel qizib ketgani haqda ogohlantiruvchi chiroq hamon o'chmagan bo'lsa, Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

 DIQQAT!

- Avtomobil qizib ketgan dvigatel bilan harakatlanishda davom etsa, yuqori bosim sabab barcha suyuqliklar oqib ketishi mumkin. Haydovchi va yo'lovchilar jiddiy kuyishi mumkin. Qizib ketgan dvigateli o'chiring, avtomobildan tushing va uning sovishini kuting.

Dvigatel ventilatori

Agar suyuqlik oqish belgilari bo'lmasa, dvigatel ventilyatorini tekshiring. Avtomobilingzga elektr ventilyator o'nratilgan. Dvigateldagi harorat me'yordan oshib ketsa, ushbu ventilyator ishga tushadi. Agar ventilyator ishga tushmasa, uni ta'mirlash zarur. Dvigateli o'chiring. Agar nosozlikning sababi aniqlanmasa, biroq sovituvchi suyuqlik sathi maksimal darajadan past bo'lsa, ichimlik suvi radiator uchun ACDelco qo'shilmasi (uzoq xizmat muddati – apelsin rang) aralashmasini (qo'shilma 50% bo'lgan nisbatda qo'shiladi) kengaytirish bakachasi quying. Sovituvchi suyuqlik sathi maksimal daraja belgisiga yetgandan so'ng dvigateli ishga tushiring. Agar dvigatel qizib ketgani haqda ogohlantiruvchi chiroq hamon o'chmagan bo'lsa, Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

 DIQQAT!

Ventilyatorlar va dvigatelning boshqa harakatlanuvchi qismlari jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin. Dvigatel ishlab turgan paylda qo'llingiz va kiyimingizni dvigatelning harakatlanuvchi qismlaridan uzoq tuting.


 DIQQAT!

- Sovitish tizimidagi qaynash tufayli undan chiqadigan bug'lar va qaynoq suyuqliklar portlashi va jiddiy kuyishga olib kelishi mumkin. Ular katta bosim ostida bo'ladi va agar kengaytirish bakasi qopqog'i hatto qisman ochiladigan bo'lsa ham, uning ichidagi bug' katta tezlikda otilib chiqishi mumkin. Hech qachon dvigatel va sovitish tizimi qizib turganda kengaytirish bakchasi qopqog'inı olmang. Agar kengaytirish bakchasi qopqog'inı ochish zarurati tug'ilsa, dvigatel sovishini kuting.
- Sovitish tizimining xizmat muddatini uzaytirishga mo'ljallangan qo'shilma zaharli bo'lib, undan ehtiyoj bo'lib foydalinish talab qilinadi.

Eslatma

Avtomobilga zarar yetishiga (yonilg'i bug'lanishi hisobiga) yo'l qo'ymaslik va dvigatel qizigan paytda o't olishini osonlashtirish maqsadida, garchi avtomobil muayyan vaqt davomida o'chirib qo'yilgan bo'lsa ham, atrof-muhit harorati va dvigatel haroratidan kelib chiqib dvigateli shamollatish tizimi ishga tushirilishi mumkin.

Rul boshqaruvi kuchaytirgichi suyuqligi



Rul boshqaruvi kuchaytirgichi suyuqligi sathi **MIN** (eng quyi) va **MAX** (eng yuqori) ko'rsatkichlari oraliq'ida bo'lishi kerak. Agar suyuqlik sathi juda past bo'lsa, Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

DIQQAT!
Juda oz miqdordagi kirlanish ham rul boshqaruvi tizimini izdan chiqarishi va uning to'g'i ishlamasligiga sabab bo'lishi mumkin. Bakcha qopqog'i ichki tarafiga, o'lchash tayoqchasiga yoki bakcha ichiga kirlar tushib qolishiga yo'l qo'yang.

Yuvgich suyuqligi



Oyna yuvish uchun mo'ljallangan suyuqlikdan tegishli miqdorda solib aralashtirilgan toza suvni quying.

Oyna yuvgich suyuqligi bakachasini to'ldirish uchun:

- Bu maqsadda faqat oyna yuvish uchun mo'ljallangan suyuqlikdan foydalaning.

- Suv quvur yo'lidan keladigan suvdan foydalamanng. Chunki suv quvur yo'lidan keladigan suv tarkibida mavjud bo'lgan minerallar old oyna yuvgich suyuqlik sepadigan teshiklarini tiiqinlab bekitib qo'yishi mumkin.

- Agar havo harorati nol darajadan tushib ketishi kutilayotgan bo'lsa, old oynani yuvish uchun tarkibida muzlashga qarshi suyuqlik yetaricha bor oyna yuvish suyuqligidan foydalaning.


Tormozlar

Tormoz kolodkalar qoplamasini yupqalashganda, tormozlanish davomida chiyillash eshitiladi. Harakatni davom ettirish mumkin, lekin imkon qadar tezroq tormoz kolodkasi qoplamlarini almashtirish shart. Yangi tormoz kolodkasi qoplamlarini o'rnatgandan so'ng dastlabki bir nechta safarlar davomida tormozni ortiqcha keskinlik bilan bosmang.

Tormoz mehanizmlari suyuqligi

OGOLHLANTIRISH!

Tormoz suyuqligi zaharli va korroziya chaqiradi. Uning ko'zga, teriga, kiyimga va bo'yalgan yuzalarga tegib qolishidan saqlaning.



Tormoz suyuqligi sathi **MIN** (eng quiy) va **MAX** (eng yuqori) belgilari oraliq'ida bo'lishi kerak. Kamini to'ldirish uchun tormoz suyuqligi quyayotganda tozalikni maksimal darajada ta'minlang, chunki tormoz suyuqligining kirlanishi tormoz tizimida nosozlik paydo bo'lishi olib kelishi mumkin. Tormoz suyuqligi yo'qolishi sababini bartaraf etish uchun Chevrolet servis markazida murojaat qiling. Faqat avtomobilda qo'llash uchun ruxsat etilgan yuqori sifatlari tormoz suyuqligidan foydalaning.

DIQQAT!

Tormoz suyuqligi bakchasi qopqog'ini olishdan oldin u qopqoq atrofini yaxshilab tozalang.

Tormoz suyuqligi ifloslanishi butun tizim faoliyatini izdan chiqarishi mumkin, buni ta'mirlash esa anch'a qimmatga tushadi.

Tormoz suyuqligi dvigateunga to'ksa, u yonib ketishi mumkin. Tormoz suyuqligi bakchasini liq to'ldirmang.

Dvigateining yonib ketishi jarohatlar, avtomobilga yoki boshqa moddiy zararga olib kelishi mumkin.

DIQQAT!

Ishlatilgan tormoz suyuqligini maishiy chiqindilar bilan birga chiqindiga tashlamang. Buning uchun chiqindilarni utilizatsiya qiluvchi mahalliy mas'ul tashkilotlarga murojaat qiling.

Ishlatilgan tormoz suyuqligi va uning idishlari juda xavfli hisoblanadi. Ular salomatligingizga va atrof-muhitga ziyon yetkazishi mumkin.

Tormoz suyuqligi aggressiv xususiyatga ega bo'lib, u teri va ko'zlarning shilliq pardasiga qichituvchi ta'sir etishi mumkin.

DIQQAT!

Tormoz suyuqligi teringiz yoki ko'zingizga tegishiga yo'l qo'y mang. Agar bunday holat yuz bersa, tormoz suyuqligi tekkan joylarni sovun yoki maxsus qo'l yuvish vositasi bilan yaxshilab yuvib tashlang.

Akkumulyator batareyasi


Avtomobil bilan harakatlanish davomida uning akkumulyator batareyasi yetarli darajada zaryadlanishi sababli unga texnik xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

Avtomobilda qisqa masofaga yurish va dvigatelni tez-tez o't oldirish akkumulyator batareyasining zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin. Elektr quvvati sarflaydigan keraksiz qurilmalardan foydalanishdan tiyiling. 4 haftadan ko'p muddatga avtomobildan foydalananmaslik uning akkumulyator batare-yasi zaryadsizlanishiga olib kelishi mumkin. Akkumulyator batareyasi zaryadsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun uni Akkumulyator batareyasi uzgichi ⇨ 9-3 bo'limida keltirilgan tartibda uzib qo'yning.

⚠ DIQQAT!

- Akkumulyator batareyasi yaqinida gugurt yoqish gaz portlashiga olib kelishi mumkin. Agar siz dvigatel bo'limasida ko'proq yorug'lil kerak bolsa, fonardan foydalaning.
- Hatto germetik mahkamlangan bo'sha ham, akkumulyator batareyasida kuyishga sabab bo'lувчи kislota mavjud bo'лади. Agar bunday kislota teringizga yoki ko'zingizga tomadigan bo'lsa, o'sha joyni oqib turgan suv bilan yuvning va darhol tibbiy yordamga murojaat qiling.
- Bunday eritmalar ko'zga tegishi xavfini kamaytirish uchun akkumulyator batareyasi bilan ishlayotganda himoya ko'zoynagini taqib oling.
- Akkumulyator batareyasidan e'tiborsizlik bilan foydalanish yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida yuzaga kelgan baxtsiz hodisalar uchun General Motors kompaniyasi javobgarlikni o'z bo'yninga olmaydi.

Akkumulyator batareyasini majburiy ravishda chiqindiga chiqarish



Akkumulyatorlar batareyasini tegishli chiqindi yig'ish punktiga topshirish shart. Akkumulyator batareyasini almashtrayotganda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlar va talablariga rivoja qiling.
Almashtirayotganda eski akkumulyator batareyasini ular bilan savdo qiluvchi vositachida qoldiring:

- Har bir xaridor/pirovard foydalanuvchi avtomobilning ishlatalig'an akkumulyator batareyasi ni qaytarishi kerak. U oddiy maishiy chiqindilar bilan birga tashlab yuborilmaslig'i lozim.
- Siz akkumulyator batareyasini sotib oлган Chevrolet servis markazi yoki vakolati ta'mirlash ustaxonasi ishlatalig'an akkumulyator batareyasini qaytib olishi va uni qayta ishlash maqsadida akkumulyator batareyasi ishlab chiqaruvchisiga jo'natishi kerak.

⚠ XAVFLI

Portlashning oldini olish uchun yonib turgan moddalarni akkumulyator batareyasidan uzoqroq tuting. Akkumulyator batareyasi portlasa, bu avtomobilga zarar yetishi va jarohat yoki o'lim holatlari yuz berishiga olib kelishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Kislota eritmasi va qo'rg'oshin tekkanda yuzaga keladigan xavflar:

- Asosiy tarkibiy qismilari: qo'rg'oshin, suyultirilgan oltingugurt kislotosi va plast-massa.
- Akkumulyator batareyasi ichidagi kislota eritmasi va qo'rg'oshin noto'g'ri tarza chiqindiga tashlansa, bu tuproqning, uning ostidagi qatlam va svuning ifloslanishiga, shuningdek, insonlar salomatligi uchun xatar tug'dirishga sabab bo'lishi mumkin.
- Agar bu kabi moddalar beixtiyor ko'zga yoki teriga tegsa, u joylarni darhol oqib turgan suvdva yubiv tashlash va tibbiy yordamga murojaat qilish kerak.
- Akkumulyator batareyasini bir joydan boshqa joyga olayotganda ventilyatsiya teshigidan elektrolit to'kilib ketmasligi uchun uni horizontal holatda ushlang.
- Uni bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlash zarur.
- Ochilgan akkumulyator batareyasini qiyalatmang.
- Portlashni oldini olish uchun yonib turgan moddani akkumulyator batareyasidan uzoqroq tuting.

LAMPANI ALMASHTIRISH

Cho'glanma lampalarni almashtirish

Avtomobil cho'glanma lampalarini Chevrolet servis markazida almashtirish tavsiya qilinadi. Cho'glanma lampalarni almashtirayotganda tegishli elektr zanjir almashtir lab ulagichini o'chirilgan holatga o'tkazib qo'ying. Lampalarni qolgan shishasini qo'lqopsiz ushlamaslikka harakat qiling. Tasodifan kirlanib qolgan lampalarni toza tuksiz lattani spirtda namlab tozalash mumkin. Yangi qo'yiladigan lampaning texnik tavsiyi va quvvati eski lampani bilan bir xil bo'lishi zarur.

Qo'llanilishi	Quvvati (Vt)
Xira yoritish (old tomon o'g'rilikka qarshi signalizatsiya tizimisiz)	10
Xira yoritish (old tomon – o'g'rilikka qarshi signalizatsiya bilan)	5
Qo'lqoplar qutisi	8
Uzoqni yoritsish	60
Yaqinji yoritish	55
Old burilish ishora chirog'i	21
Orqa burilish ishora chirog'i	21
Old fara	5
Yon chiroqlar	21/5

Elektron qismlarlarga zarar yetishini oldini olish


Elektron komponentlarga zarar yetishiga yo'l qo'ymaslik uchun hech qachon dvigatel ishlab turganda akkumulyator batareyasini uzib qo'y mang, akkumulyator batareyasini uzishdan oldin avtomobilni o'chirib, avtomobil kalitini joyidan sug'urib oling.

Har doim akkumulyator batareyasini uzib qo'yishga to'g'ri kelganda, avval uning manfiy simini, so'ngra, musbat simini uzing. Simlar o'nini almashtirib, teskari ulab qo'y mang.

Qayta ularshda esa, avval musbat simni, so'ngra, manfiy simni ulang.

Tozalagich cho'tkasini almashtirish

Old oyna tozalagich cho'tkasi



- Oyna tozalagich dastagini ko'tarining.
- Fiksator dastakchasini bosing va oyna tozalagich cho'tkasini pastga tortib ajratib oling.

Old oyna tozalagich to'g'ri ishlashi yo'l ni yaxshi ko'rish va xavfsiz harakatlanishni ta'minlaydi. Muntazam tarzda oyna tozalagich cho'tkalari holatini tekshirib turing. Dag'allashgan, darz ketgan, singan yoki ishlaganda old oynada kir yo'llar goldiradigan cho'tkalarni almashtiring. Old oynadagi yoki oyna tozalagich cho'tkalardagi yot jismlar tozalash samaradorligini pasaytiradi. Agar cho'tkalar oynani yaxshi artmasa, neytral yuvish vositasini sувга aralashtirib, u bilan old oynani ham, cho'tkalarni ham tozalang. Ularni suv bilan yaxshilab chayib tashlang.


Zarurat bo'lsa, ushbu jarayonni takrorlang. Oynadagi silikon izlarini ketkazishning iloji yo'q. Shuning uchun ham avtomobilingiz old oynalariga silikonli sayqallash vositasini surtmang, aks holda, oynada haydovchining ko'rishiga xalaqtir beruvchi chiziqlar hosil bo'lib goladi.

Oyna tozalagichni tozalashda erituvchilar, benzin, kerosin yoki bo'yoqni suyultiruvchi moddalardan zinhor foydalana ko'rmang. Bular aggressiv moddalar hisoblanib, ular cho'tkalarni hamda bo'yalgan yuzalarga ziyon yetkazishi mumkin.


Qo'llanilishi	Quvvati (Vt)
Tormoz ishora chirog'i / Orqa chiroq tormozlash / to'xtash	21
Old tumanga qarshi chiroqlar	27
Orqa tumanga qarshi chiroqlar	21
Orqaga harakatlanish ishora chiroqlari	21
Raqami belgisi	5
Yukxona bo'lmasi	8

Old faralar**Yaqinни yoritish va uzoqni yoritish hiroqlari**

1. Tarmoqdan keluvchi ulagichni lampadan izing.



2. Himoya qopqog'ini olib tashlang.



3. Prujinali ilgakni bosing va uni ajrating.



4. Qaytargich korpusidan lampani chiqarib oling.

5. Yangi lampani o'rnatayotganda lampa qistirmalarini qaytargich teshiklariga qo'ying.

6. Prujinali qisqich bilan lampani mahkamlang.

7. Faraning himoya qopqog'ini joyiga o'rnatning va mahkamlang. Himoya qopqog'inining to'g'ri holatda o'rnatilganiga e'tibor qiling.

8. Ulagichni lampaga ulang.

Faraning yoritish yo'nalishini sozlash

Yaqinни yoritish yo'nalishini faraning yuqori qismida joylashgan vint bilan sozlash mumkin.

DIQQAT!

Old faralarning yoritish yo'nalishini sozlash zarurati tug'ilganda Chevrolet servis markaziga murojaat qilish tavsiya qilinadi, chunki bu holat xavfsizlik bilan bog'liqdir.

Tumanga qarshi faralar

Lampalarni Chevrolet servis markazida almashtiring.


Old tumanga qarshi faralar yoritish yo'nalishini sozlash

Old tumanga qarshi faralar yoritish yo'nalishi ushbu faralar yuqori qismida joylashgan vint bilan sozlanishi mumkin.

 **DIQQAT!**

Old tumanga qarshi old faralar yoritish yo'nalishini sozlash zarurati tug'ilganda Chevrolet servis markaziga murojaat qilish tavsiya qilinadi, chunki bu holat xavfsizlik bilan bog'liqdir.

Old burilish signal faralari



1. Lampa patronini soat miliga teskari yo'nalishda burang va uni ajraring.




2. Tarmoqdan keluvchi ulagichni lampadan uzing.
3. Lampani patronidan yechib oling.
4. Yangi lampani qo'ying.
5. Ulagichni lampaga ulang.
6. Patronni qaytargich ichga qo'ying.
7. Lampa patronini soat mili yo'nalishi bo'yicha burang va mahkamlang.

Yon gabarit chiroqlar

1. Lampa patronini soat miliga teskari yo'nalishda burang va ajraring.




2. Yon chiroq lampasi patronini qaytargichdan ajratib oling.




3. Tarmoqdan keluvchi ulagichni lampadan uzing.
4. Lampani patronidan yechib oling.
5. Yangi lampani qo'ying.
6. Ulagichni lampaga ulang.
7. Patronni qaytargich ichga qo'ying.
8. Lampa patronini soat mili yo'nalishi bo'yicha burang va mahkamlang.




1. Ikki vintni bo'shatib, har ikki qopqoqni oching.



2. Ikkala shplintni chiqarib oling va (A, B, C) vintlarni bo'shating.



3. Orqa chiroqni yig'ilgan holatda yechib oling. Simlar dastasi o'z ornida qolganligiga ishonch hosil qiling.



4. Tormoz chirog'i (1)

Burilish ishora chirog'i (2)**Orqaga harakatlanish ishora chirog'i (3)****Orqa chiroq (4)**


5. Lampani patronga ohista bosib, uni soat miliga teskari yo'nalishda burang, eski lampani chiqarib oling va uning o'rniغا yangisini o'rnatning.
6. Lampani orqa chiroq yig'masiga qo'ying.
7. Orqa chiroq yig'masini kuzovga o'rnatning va uni mahkamlash elementlarini tortib qo'ying. Qopqoqlarini yopib, ularni mahkamlang.
8. O't oldirish tizimini yoqing, chiroqlarni yoqing va hammasini tekshirib ko'ring.

Yon burilish ishorasi chiroqlari

Yon burilish ishora chiroqlarini Chevrolet servis markazida almashtiring.

Markaziy yuqoridagi stop-signal (CHMSL)

Lampani Chevrolet servis markazida almashtiring.

Raqam belgisi chirog'i

1. Lampani otvyortka yordamida ilib oling.

2. Lampa korpusini pastga tortib oling va bunda uning kabelidan torta ko'rmang.

Lampani ajratib olish uchun lampa patronini soat miliga teskari yo'nalishda burang.

3. Lampani patronidan chiqaring va yangisini qo'ying.

4. Lampa patronini lampa korpusiga o'rnatib, uni soat mili yo'nalishi bo'yicha burang.

5. Lampa korpusini joyiga qo'ying va otvyortka yordamida uni mahkamlang.

Salon chiroqlari**Salon chirog'i**

1. Uning lampasini olish uchun yoqish tugmachaсидан qarama-qarshi tomonдан yassi uchli otvyortka uchini tijib torting. Chiroqning oynasini qirib qo'ymaslik uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qiling.


2. Lampani chiqarib oling.

3. Lampani almashtiring.

4. Chiroqni yig'ilgan holda joyiga o'rnatning.

ELEKTR TIZIMI

Yukxona bo'lmasi chirog'i



1. Lampani otvyortka yordamida ilib oling



2. Lampani prujinali ilgak tomonga ohista bosing va uni burab chiqarib oling.

3. Yangi lampani qo'ying.

4. Yangi lampani o'rnatish.

Saqlagichilar

Yangi elektr saqlagichdagi ma'lumotlar almashtirilayotgan buzuq saqlagichchniki bilan bir xil bo'lishi kerak.

Avtomobilda ikkita elektr saqlagichilar bloki mavjud:

- Dvigatel bo'lmasining old chap tomonida.
- Priborlar panelida, narsalarni saqlash bo'lmasi orqasida.

Asosiy eruvchan saqlagichlarning ba'zilari akkumulyator batareyasi musbat klemmasi ustidagi blokda joylashgan. Ularni almashtirish zarurati tug'ilsa, Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Elektr saqlagichni almashtirishdan avval tegishli almashtlab ulagichni va o't oldirish tizimini o'chiring.

Ishdan chiqqan elektr saqlagichni uning erigan simiga qarab bilish mumkin. Elektr saqlagich kuyishiga sabab bo'lgan nosozlikni bartaraf qilmaguncha saqlagichni almashtirmang.


Ba'zi funksiyalarni himoyalashni bir nechta saqlagichlarda milaydi.

Shuningdek, biror funksiyaga ega bo'lмаган holda ham saqlagichlar qo'yilgan bo'lishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Asl GM saqlagichlarning texnik xususiyatlariga mos kelmaydigan saqlagichlarni o'rnatish yoki ishlatalish xavflidir. Saqlagichlar ishlamay qolishi va yong'inga olib kelishi mumkin. Bu odamlarning jarohatlanishiga yoki o'llimiga olib kelishi mumkin, shuningdek, avtomobilga shikast yetishi mumkin.

Mini saqlagichilar



Priborlar panelini yoritish


Lampalarni Chevrolet servis markazida almashtiring.

Jcase saqlagichlar


30041

Saqlagich ajratgichi



Saqlagich ajratgichi dvigatel bo'lmasidagi saqlagichlar blokida joylashgan.



Saqlagich turiga qarab ajratgich saqlagich tepa yoki yon tomoniga o'rnatiladi va saqlagich sug'urib olinadi.




30042

Dvigatel bo'lmasidagi saqlagichlar bloki

30044

Saqlagichlar bloki dvigatel bo'lmasining old chap tomonida joylashgan.
Uning qopqog'idagi ilgakni bo'shating, qopqoqni tepaga ko'taring va yechib oling.
Ushbu qo'llanmadagi eruvchan saqlagichlar blokiga oid tavsiflarning hammasi ham avtomobilingizga taalluqli bo'lmasligi mumkin.



MINI SAQLAGICHALAR		
Nº	Amper	Vazifasi
1	25A	Ishlatilmaydi
2	7,5A	Ortni ko'rsatuvchi tashqi ko'zgu
3	5A	Ishlatilmaydi
4	25A	Ishlatilmaydi
5	30A	ABS moduli
6	5A	Ishlatilmaydi
7	15A	Ishlatilmaydi
8	15A	Avtomatik uzatmalar qutisi moduli
9	5A	Boshqarish kuchlanishi rostlagichi
10	10A	Old chiroqlar tekisligini to'g'rilash (agar bu funksiya mavjud bo'lsa) /Orqa tomonni ko'rsatuvchikamera (agar bor bo'lsa)
11	20A	Zaxira
12	30A	Orqa oyna terini ketkazish qurilmasi
13	10A	Ishlatilmaydi
14	7,5A	Ortni ko'rish tashqi oynasi isitgichi
15	20A	Ishlatilmaydi
16	25A	Old o'rindiqlar isitkichi (agar mavjud bo'lsa)

MINI SAQLAGICHALAR		
Nº	Amper	Vazifasi
17	10A	Elektr vakuum nasosni o'chirib-yoqish tugmasi
18	10A	Dvigatelni boshqarish moduli / Avtomatik uzatamalar qutisini boshqarish moduli
19	20A	Yonilg'i nasosi
20	15A	Ishlatilmaydi
21	10A	Radiator ventilyatori relesi / konditsioner relesi
22	10A	Ishlatilmaydi
23	10A	Dvigatelni boshqarish moduli
24	10A	Old oyna tozalagich
25	10A	Ishlatilmaydi
26	10A	Dvigatelni boshqarish moduli / Yoppasiga havo sarfi datchigi
27	10A	Ishlatilmaydi
28	10A	Kislород datchigi
29	20A	Dvigatelni boshqarish moduli
30	15A	Yonilg'i purkash va o't oldirish tizimini boshqarish
31	10A	Uzoqni yoritish chirog'i (chap tomon)

MINI SAQLAGICHALAR		
Nº	Amper	Vazifasi
32	10A	Uzoqni yoritish chirog'i (o'ng tomon)
33	15A	Dvigatelni boshqarish moduli
34	15A	Tovushli signal
35	10A	Konditsioner kompressori
36	10A	Old tumanga qarshi fara

JCASE SAQLAGICHALAR		
Nº	Amper	Vazifasi
1	40A	ABS moduli
2	30A	Old oyna tozalagich
3	40A	Isitish, ventilyatsiya va konditsionerni boshqarish relesi
4	30A	Xavfsizlik yostiqchasi / Avtomatik qulfdan ochish / Priborlar paneli / Ilashish muftasi tepkisi / Faraning yoritish yo'naliшини rostlash
5	40A	Ishlatilmaydi

JCASE SAQLAGICHALAR		
Nº	Amper	Vazifasi
6	30A	Ishlatilmaydi
7	40A	Ishlatilmaydi
8	30A	Radiator ventilyatori 1
9	40A	Radiator ventilyatori 2
10	20A	Vakuum nasos
11	30A	Starter


Relelar	Vazifasi
RLY1	Yurish/Ishga tushirish relesi
RLY2	Yonilg'i nasosi
RLY3	Ishlatilmaydi
RLY4	Ishlatilmaydi
RLY5	Kuchli tok uzatish relesi
RLY6	Radiator ventilyatori yuqori tezlikda aylanishi
RLY7	Starter
RLY8	Radiator ventilyatori past tezlikda aylanishi

Priborlar panelidagi saqlagichilar bloki



Saqlagichilar bloki priborlar panelining chap tarafida joylashgan.

1. Bo'lmani oching.
 2. Bo'lmaning quyi qismini olib qo'ying.
Teskari tartibda bo'lmani asl holiga qaytib o'rnatning.
- Ushbu qo'llanmadagi eruvchan saqlagichilar blokiga oid tavsiflarnarning barchasi ham avtomobilingizga taalluqli bo'lmasisligi mumkin. Ushbu ma'lumotlar mazkur qo'llanma nashr qilingan payt holatiga ko'ra aniq hisoblanadi.



Nº	Amper	Vazifikasi
F1 JCcase	-	Ishlatilmaydi
F2 JCcase	-	Ishlatilmaydi
F3 JCcase	-	Ishlatilmaydi
F4 JCcase	-	Ishlatilmaydi
F5 Minifuse	20 A	Xavfdan ogoh qiluvchi yonib o'chuvchi avariya chiroqlari / Orga oynani isitish indikator chirog'i / Tormoz chirog'i / Markaziy yuqorida joylashgan to'xtashni bildiruvchi chirog'i / Avtomobil raqam belgisi chirog'i / Yuvgich tizimi relesini boshqarish / O't oldirish tizimi relesini boshqarish / Dvigatelni boshqarsih moduli uchun o't oldirish signali / Yukxonani qulflash modulini relesini boshqarish / Tormoz tizimini ishga tushirish / Konditsioner tizimi indikator chirog'i

Nº	Amper	Vazifikasi
F6 Minifuse	20 A	Eshiklarni qulflash tizimini boshqarish indikator chirog'i (o'g'rilashga qarshi signalizatsiya o'rnatilgan avtomobillar uchun) / Orqa oyna isitgichi relesini boshqarish / Aksessuarlar elektr ta'minoti relesini boshqarish
F7 Minifuse	30 A	Chap fara yaqinni yorituvchi chirog'i / O'ng orqa chiroq / Chap tormoz chirog'i / Chapga burlish ishora chirog'i / O'ng yon gabarot chiroq

Nº	Amper	Vazifasi
F8 Minifuse	30 A	O'ng fara yaqinni yorituvchi chirog'i / Chap orqa chiroq / O'ng tormoz chirog'i / O'ngga burilish ishora chirog'i / Yukxona bo'lmasi chirog'i / Chap yon gabarit chiroq
F9 Minifuse	25 A	Isitish, ventilyatsiya va konditsioner tizimi indikator chirog'i / Isitish, ventilyatsiya va konditsioner moduli relesini boshqarish
F10 Minifuse	20 A	Priborlar panelini yoritish / Avtomatik uzatmalar qutisi selektori dastagi chirog'i / Orqaga harakatlanishni bildiruvchi chiroq

Nº	Amper	Vazifasi
F11 Minifuse	20 A	Avtomobil saloni chirog'i / Orqa tumanga qarshi chiroq / Avtomatik uzatmalar qutisi almashtlab q'shgichini quflash
F12 Minifuse	30 A	Eshiklarni quflash tizimi va yonilg'i quyish teshigi
F13 JCase	-	Ishlatilmaydi
F14 Minifuse	10A	Yukxonani quflash tizimi
F15 Minifuse	10A	Xavfsizlik yostiqchasi tizimi / Quflni avtomatik ochish
F16 Minifuse	15A	Diagnostik kolodka
F17 Minifuse	2A	O't oldirish tizimi quffi
F18 Minifuse	10A	Isitish, ventilyatsiya va konditsioner moduli
F19 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F20 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F21 Minifuse	-	Ishlatilmaydi

Nº	Amper	Vazifasi
F22 Minifuse	15A	Radio
F23 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F24Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F25 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F26 Minifuse	10A	Priborlar paneli majmui
F27 Minifuse	10A	Xavfsizlik yostiqchasi tizimi / Quflni avtomatik ochish
F28 Minifuse	10A	Priborlar paneli majmui
F29 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F30 Minifuse	10A	Faraning yoritish yo'nalishini sozlash
F31 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F32 Minifuse	10A	Isitish, ventilyatsiya va konditsioner moduli
F33 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F34 Minifuse	2A	Rul chambaragini boshqarish elementlarini yoritish
F35 JCase	25A	Old elektr oyna ko'targich
F36 JCcase	25A	Orqa elektr oyna ko'targichi


Nº	Amper	Vazifikasi
F37 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F38 Minifuse	20A	Rozetka / Sigaret tutatgich
F39 Minifuse	-	Ishlatilmaydi
F40 Minifuse	-	Ishlatilmaydi

Relelar	Vazifikasi
R1	—
R2	—
R3	Yukxonani qulflash tizimi relesi
R4	—
R5	Isitish, ventilyatsiya va konditsioner modulli relesi
R6	Elektr oyna ko'targichlar relesi / Rozetka / Sigaret tutatgich

AVTOMOBIL QUROLLARI

Qurollar

Zaxira g'ildirakli avtomobillar



Domkrat va asboblar yukxona bo'lmasida saqlanadigan zahira g'ildirak ostiga joylashtirilgan.
G'ildiraklar qalpoqlari ⇨ 9-34 dagi "Zahira g'ildirak" bo'limiga qarang.

G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR

Shinalar holati, g'ildiraklar holati

Yo'l chetidan yurganda sekin harakat qiling, imkon qadar u yerlardan to'g'ri burchak ostida o'ting. Yo'lning o'tkir chetlari shina va g'ildirakka ziyon yetkazishi mumkin. Avtomobilni parkovka qilganda shinalar to'siq ustiga chiqmaganini tekshiring.

Shina va g'ildiraklarga zarar yetmaganligini mintazam tekshirib turing. Ularga zarar yetganda yoki ularda noodatiy yeyilish holatlari bo'lqanda Chevrolet servis markaziga yordam so'rab murojaat qiling.

Eslatma

Agar avtomobilga zavodda qo'yilganidan boshqa o'lchamdagи shina va g'ildiraklarni qo'yish zarurati tug'ilsa, Chevrolet servis markazi bilan maslahatlashing. To'g'ri kelmaydigan shinalar va g'ildiraklardan foydalanish avtomobilga berilgan kafolatni bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Qishki shinalar

Ushbu avtomobilga zavodda qishki shinalar qo'yilmagan bo'ladi. Qishki shinalar qor va muz bilan qoplangan yo'llarda shinalarni yo'l bilan ilashish koeffitsiyentini oshirish uchun mo'ljallangan. Agar muz va qor bilan qoplangan yo'llarda ko'pincha yurishga to'g'ri keladigan bolsa, avtomobilga qishki shinalar qo'yish haqida o'ylang.

Qishga tayyorgarlik ko'rish va avtomobilga mos shinalarni tanlash masalalari bo'yicha batafsil ma'lumot uchun sizga xizmat ko'sratuvchi servis markaziga murojaat qiling. Qishki shinalar qo'yilganda quruq yo'lda yurganda shinalar ilashuvchanligi pasayishi, shovqin darajasi oshishi va shinaning yemirilish davri qisqarishi mumkin. Qishki shinalar qo'yilganidan so'ng avtomobilni boshqarish va tormozlanishda bo'ladiqan o'zgarishlarga e'tibor qarating.

Qishki shinalardan foydalanilganda:

- To'rttalal gildirak uchun ham markasi va protektor turi bir xil bo'lgan shinalardan foydalaning.
- Iqlarining radius bo'ylab joylashuvi, o'lchami, yuklama ko'tarish indeksi va tezlik ko'satkichlari zavodda qo'yilgan shinalarniki bilan bir xil bo'lgan shinalardan foydalaning.

Tezlik ko'satkichlari zavodda qo'yilgan shinalarniki bilan bir xil bo'lgan shinalar H, V, W, Y va ZR tezlik ko'satkichlari uchun mos bo'lmasligi mumkin. Agar tezlik ko'satkichi pastroq bo'lgan qishki shinalar tanlab bo'lingan bo'lsa, avtomobilda harakatlanayotganda tezlikni aslo ushbu shina uchun belgilangan eng yuqori tezlikdan oshirmang.

Yozgi shinalar

Avtomobilga yuqori sifatlari yozgi shinalar o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Bu shinalar quruq va ho'l yo'llarda maksimal darajada samarali harakatlanish uchun mo'ljal-

langan maxsus protektor va tarkibiy tuzilishga ega. Bunday protektor va tarkibiy tuzilishga ega shinalar samaradorligi sovuq iqlimda va muzli hamda qorli yo'llarda pasayishi mumkin. Ko'pincha havo harorati taxminan 5°C (40°F) dan pasaygan sharoitda yoki muz yo'qor qoplangan yo'llarda harakatlanishga to'g'ri keladigan bo'lsa, qishki shinalar qo'yish tavsija etiladi. Qarang: Qishki shinalar ⇨ 9-28

Eslatma

Samaradorligi yuqori bo'lgan yozgi shinalar rezina tarkibga ega bo'lib, bu shinalarda havo harorati -7°C (20°F) dan past bo'lganda harakatlanganda ular o'zining elastikligini yo'qtadi va uning protektori yuzasida darz ketish holatlari sodir bo'lishi mumkin. Samaradorligi yuqori bo'lgan yozgi shinalardan foydalananmayog'an bo'lsangiz, ularni doim haroroti -7°C (20°F) dan yuqori bo'lgan yopiq binoda saqlang. Agar shinalar -7°C (20°F) yoki undan past haroratda saqlangan bo'lsa, ularni o'rnatish yoki ular o'rnatilgan avtomobilda harakatlanishdan oldin bu shinalarni kamida 5°C (40°F) haroratda 24 soat yoki undan ko'p muddat davomida isib oling. Shinalarni to'gridan-to'g'ri issiqlik qol'lamang yoki issiq havo purkamang. Shinalardan foydalanimdan avval doim ularni ko'zdan kechiring. Qarang: Shinalarni ko'zdan kechirish ⇨ 9-30

Shinalar markirovkalar

Masalan: 195/65 R15 91H

195 : Shina eni, mm

65 : Kesim nisbati (shina balandligining shina eniga nisbati), %

R : Tasma turi: Radial

15 : Gildirak diametri, dyuym

91 : Yuklama indeksi

H : Tezlik kod indeksi

Tezlik kod indeksi:

Q : 160 km/s gacha

S : 180 km/s gacha

T : 190 km/s gacha


H : 210 km/s gacha

V : 240 km/s gacha

W : 270 km/s gacha

Shinalar bosimi

Sovuq shinalar bosimini har 2 haftada va uzoq safarga chiqishdan oldin tekshiring. Zahira gildirak bosimini tekshirishni ham unutmang.



Old chap eshik ramasidagi tablochadagi Shinalar bosimi ₽11-10 ga qarang.

Shina bosimi haqidagi ma'lumotlar sovuq shinalar uchun keltirilgan.

Zahira g'ildirak shinasini doimo avtomobil to'liq yuk bilan bo'lgan holat uchun talab qilinadigan bosimda damlang.

Shinalardagi bosimning noto'g'riligi harakat xavfsizligiga tahdid solishi bilan birga avtomobilni boshqarish, qulaylik hamda yonilg'i tejashga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, shinalarning yeyilishini tezlashtiradi.



OGOHLANTIRISH!

Agar bosim juda past bo'lsa, shinalar o'ta qizib ketishi va ularning ichki tomoniga zarar yetishi mumkin, bu esa protektorning qatlamlarga ajralishiga olib kelishi mumkin, avtomobilni harakatlanish tezligi yuqori bo'lgan holatlarda esa, hatta shina yorilishi ham mumkin.


Shinalarni ko'zdan kechirish

Shinaning yo'l hoshiya to'sig'iga urilishi oqibatida esa g'ildirak va shinaning ichki tomoniga shikast yetishi mumkin. Shinalardagi bunday tashqaridan ko'rilmaydigan zarar yetganlik holatlari avtomobil yuqori tezlikda harakatlanganda turli baxtsiz hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham, agar yo'l hoshiya to'sig'iga chiqish zarurati tug'ilsa, buni sekin bajaring va chiqayotganda shina imkon qadar to'g'ri burchak ostida bo'lsin. Avtomobilni yo'l chetiga to'xtatib qo'yayotganda uning shinalari hoshiya to'siqqa tiralmaganiga ishonch hosil qiling. Shinalarning yeyilishi (protektor chuqurligi) va unda ko'zga tashlanarli shikast alomatlari boryo'qligini muntazam tekshirib turing. Shuningdek, g'ildiraklarga shikast yetmaganini ham tekshiring.

Agar shinalarda zarar yetish yoki noodatiy yeyilish holatlari kuzatilsa, ularni ta'mirlash, old osmani kalibrlash va rul boshqaruvini rostlash uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Protektor chuqurligi

Protektor bo'rtmalari chuqurligini muntazam ravishda tekshirib turing. Protektor eskirishi indikatoriga muvofiq protektor bo'rtmalar chuqurligi 1,6 mm ga tushganda shinalarni almashtirish lozim.




30055

Qoidalar bilan belgilangan protektor bo'rtmalarining minimal chuqurligi (1,6 mm) protektorlar yeyilish indikatorlari (TWI) ko'rniib qolishiga muvofiq keladi. Indikatorlar joyi shinaning yon tarafida belgilab, ko'rsatib qo'yilgan.

Shinalar foydalanimagan taqdirda ham eskirib boradi. Shinalarni har 6 yilda almashtirish tavsiya etiladi.

Shinalar almashtirish



Old va orqa shinalarga ta'sir qiladigan kuch turlicha bo'lganligi sababli, ularning yeyilishi ham bir-biridan farq qiladi. Shinalarning yeyilishi bir qancha omillarga bog'liq, jumladan, yo'l qoplamasi, avtomobilni haydash tarzi, osmani rostlash, g'ildiraklarni muvozanatlash, shinalardagi bosim va hokazo. Avtomobil egasi uning eskirishini doimo nazorat qilib borishi, jumladan, kamida har 10 000 km masofa bosib o'tilgandan so'ng uning shinalari o'rnnini almashtirib turishi zarur. Shinalar o'rnnini almashtirish ularning protektorining bir xilda yeyilishi va ular uzoq xizmat qilishi uchun juda muhim.

Shinalar o'mini almashtirish tartibi rasmda ko'rsatilgan. Shinalar holati Chevrolet servis markaziga borganda tekshirilishi kerak bo'lgan

jihatlardan biri sanalib, unda avtombilingizning xavsizligini va yaxshi ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shinalar notekis yeyilganligi holatlari aniqlanishi mumkin.

DIQQAT!

- Shina rezinasi vaqt o'tishi bilan eskiradi va o'zining texnik xususiyatlarini yo'qotib boradi. Bu, garchi ishlatalmagan bo'lساда, zahira shinaga ham taalluqli.
- Shinalarning eskirishi ulardan foydalanish bilan bog'liq turli omillariga, jumladan, havo harorati, ularga tushadigan yuklama, shuningdek, damlash bosimiga bog'liq.
- Shinalar eskirishini baholash uchun ularni ishlab chiqaruvchi servis markazida muntazam ko'rlikdan o'tkazish kerak.
- 6 yil davomida foydalilmagan zahira shinadan faqat favqulodda vaziyatlarda foydalanish mumkin. Agar bu shinadan foydalanishga to'g'ri kelsa, avtomobilda past tezlikda harakatlaning.

Qachon eski shinalarni yangisiga almashtirish lozim

Agar shinada tilingen joylar, yon tomonlarda qavarqlar yoki boshqa deformatsiya holatlari bo'lса, u almashtirilishi zarur.



Shuningdek protektor bo'rtmalari chuqurligi ruxsat etilgan TWI indikatoriga yeyilib ulgurgan bo'lса ham ular almashtirilishi kerak. Rasmda protektor bo'rtmasi chuqurligini qayerdan aniqlash mumkinligi ko'rsatilgan.

DIQQAT!

- Protektor chuqurligi 1,6 mm dan katta bo'lishi kerak. Bu mal'umot shinaning yon tarafidagi TWI (Tread Wear Indicators) qisqartmasidan keyin ko'rsatilgan bo'ladi.
- Yeyilgan shinalarda harakatlanganda suv yo'lda sirpanish va toyish xavfi yuqori bo'ladi.

Eslatma

Shinalarni almashtirayotganda doim yangi shinalar eskisi bilan bir xil markada va o'lchamda bo'lishi shart. Iloji bo'lsa, bir ko'prikgagi barcha shinalarni bir vaqtida almashtirgan ma'qul.

Shinalar va g'ildiraklar turlari

OGOHLANTIRISH!

To'g'ri kelmaydigan shinalar yoki g'ildiraklardan foydalanish turli baxtsiz hodislarga sabab bo'lishi va avtomobildan foydalanish ruxsatnomasining bekor qilinishinga olib kelishi mumkin.

OGOHLANTIRISH!

Avtomobilda dastlab o'natilgan shinalardan boshqa turdag'i va o'lchamdag'i shina hamda g'ildiraklardan aslo foydalanmang. Bu avtomobilning xavfsizlig'i va ishlashiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bu boshqaruvning izdan chiqishi yoki avtomobilning ag'darilib ketish va jiddiy jarohatlarga ham olib kelishi mumkin. Shinalarni almashtirayotganda to'rtala shina va g'ildiraklarning o'lchami, turi, protektori chuqurligi, markasi va yuk ko'tarish qobiliyatini bir xil ekanligiga ishonch hosil qiling. Boshqa o'lcham yoki turdag'i shinalardan foydalanish avtomobilda harakatlanshish imkoniyatlari, boshqarish, avtomobil tagi bilan yer

OGOHLANTIRISH!

o'rtaсидаги оралиқ масофа, тормоз ўли узунлиги, кузов ва г'идирак о'ртасидаги оралиқ масофа hamda spidometr ko'rsatkichining ishonchiligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

G'ildiraklar qalpoqlari

Ushbu avtomobil uchun tavsiya qilingan hamda ushbu g'ildirak va shinalar kombinatsiyasi uchun belgilangan barcha talablarga javob beruvchi g'ildirak qalpoqlari va shinalaridan foydalaning.

Agar boshqa turdag'i g'ildirak qalpoqlari va shinalardan foydalanayotgan bo'lsangiz, u shinalarda himoya uchun qalinlashtirish holati bo'lmasligi kerak. G'ildirak qalpoqlari tormozning sovishiga xalaqit bermasligi kerak.

OGOHLANTIRISH!

To'g'ri kelmaydigan shinalar va g'ildirak qalpoqlaridan foydalanish shinalardagi bosimning to'satdan yo'qolishi va shu sababli baxtsiz hodisalar sodir bo'lismiga sabab bo'lishi mumkin.

G'ildiraklarni almashtirish

Barcha avtomobillar zaxira g'ildirak bilan jihozlangan bo'ladi.


Quyidagi tayyorgarlik ishlarini bajaring va quyidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqing.

- Avtomobilni tekis, qattiq va sirpanchiq bo'lмаган joyda to'xtating. Old g'ildiraklar burilmagan, to'g'riga qaragan holda qo'yilishi kerak.
- Qo'l tortmozini ko'taring va uzatma richagini birinchi tezlikka, orqaga yurish holatiga yoki P holatiga o'tkazing.
- Zaxira g'ildirakni oling.
- Hech qachon bir martada birdan ortiq g'ildirakni almashtirmang.
- Shina teshilganda, g'ildiraklarni almashtirish uchun faqat domkratdan foydalaning.
- Agar avtomobil turgan yer yumhsaq bo'lsa, domkrat tagidga qattiq taxta yoki metal bo'la'gini (maksimum 1 sm qalinlikdagi) qo'ying.
- Avtomobil domkrat yordamida ko'tarilgan vaqtda avtomobil ichida odamlar yoki hayvonlar bo'lmasligi kerak.
- Hech qachon domkrat yordamida ko'tarilgan avtomobil tagiga emaklab kirmang.
- Domkrat yordamida ko'tarilish turgan avtomobilni hech qachon o'toldirmang.
- G'ildirakni o'rnatishdan oldin g'ildirak gaykalarini tozalang, rezbalarini toza latta bilan arting.

 OGOHLANTIRISH!


G'ildirak gaykasi va gayka konusini moylamang.

1. Quyma diskli g'ildiraklar va po'lat g'ildiraklar:




Ballon kalitini mahkam o'rnating va g'ildirak gaykalarini yarim aylanaga bo'shating.

2. Domkrat avtomobilning domkrat qo'yish uchun mo'ljallangan joyiga to'g'ri qo'yilganligiga ishonch hosil qiling.



3. Domkratni keraklicha balandlikka ko'taring. Domkratni avtomobil tagidagi mo'ljallangan nuqtaga sirg'alib ketmaydigan qilib qo'ying.




Domkrat dastasini (B) domkratga (A) iling. Ballon kalitini (C) domkrat dastagiga (B) kirgizing va balloon kalitini shina yerdan uzilguncha burang.

4. G'ildirak gaykalarini yechib oling.
5. G'ildirakni almashtiring.
6. O'rnatishdan oldin g'ildirak qalqog'i dagi ventil uchun mo'ljallangan yoriqni shina ventili bilan ustmaust tushiring.
7. G'ildirak gaykalarini mahkam tortib qotiring.
8. Domkratni tushiring.
9. Ballon kalitini gayka ustiga mahkam kiydiring va gaykalarni kesishuv ketmekte ligida birma-bir tortib qotiring. Gaykalarni burab mahkamlash momenti 140 Nm ni tashkil etadi.
10. Almashtirilgan g'ildirak va ishlatalgan asboblarni yig'ishtirib oling.
11. O'rnatilgan shina bosimini va g'ildirak gaykalarini yaxshi mahkamlanganligini tekshiring. Almashtirilgan nosoz shinani yangisiga almashtiring yoki ta'mirlating.

Zaxira g'ildirak

Zaxira g'ildirak avtomobilga o'rnatilgan boshqa g'ildiraklar o'lchami va mamlakatda amalda bo'lgan me'yorlarga bog'liq holda vaqtinchalik zaxira g'ildirak sifatida tasniflanishi mumkin. Zaxira g'ildirak to'g'ini po'latdan.

Avtomobilga o'rnatilgan boshqa g'ildiraklarga qaraganda kichik bo'lgan zaxira g'ildirakdan foydalanish avtomobilning boshqariluvchanligiga ta'sir etishi mumkin. Shinada nuqson bo'lsa, imkon qadar tezroq uni almashtiring.



Zaxira g'ildirak yuk bo'lmasi pol qoplamasining ostida joylashgan. U pol qoplamasi ostidagi chuqurchada quloqli gayka yordamida mahkamlangan bo'ladi.

Zaxira g'ildirak uchun mo'ljallangan chuqurchaga barcha o'lchamdag'i ruxsat etilgan shinalar ham mos tushavermaydi. Agar zaxira g'ildirakdan enliroq bo'lgan g'ildirakni ushbu churuqchaga joylashtirish kerak bo'libi qolsa, yukxona pol qoplamasini sathdan ko'tarilib turgan ushbu enliroq g'ildirak ustiga qo'yish mumkin, bunda pol qoplamasini biroz ko'tarilib turadi.

Vaqtinchalik zaxira g'ildiragi

Vaqtinchalik zaxira g'ildiragidan foydalanish avtomobilning boshqariluvchanligiga ta'sir etishi mumkin. Shinada nuqson bo'lsa, imkon qadar tezroq uni yangisiga almashtiring yoki ta'mirlating.

Faqat bitta vaqtinchalik zaxira g'ildirak o'rnatishing. Tezlikni 80 km/s dan oshirmsandan haydang. Bu g'ildirakdan uzoq vaqt foydalanmang.

Yo'nalishli shinalar

Yo'nalishli shinalarni ular aylanadigan yo'nalishda qilib o'rnatishing. Aylanish yo'nalishi shina yon tomonida belgi (masalan, strelka) bilan ko'rsatilgan bo'ladi.

Shinalarni ularning aylanish yo'nalishiga teskari qilib o'matgan holda foydalanganda, quyidagi yo'riqlarga amal qiling:

- Shunga e'tibor beringki, bu avtomobil boshqariluvchanligiga ta'sir qilishi mumkin. Nosoz shinani imkon qadar tezroq yangisiga almashtiring yoki ta'mirlating.
- Tezlikni 80 km/s dan oshirmsandan haydang.
- Ho'l yo'llarda ayniqsa ehtiyyot bo'lib haydang.

O't o'chirgich uchun joy

O't o'chirgichning joylashish joyi sifatida, avtomobilning yukxona bo'limida joylashgan yuksaltani ishlatish kerak.

O't o'chirgichni Chevrolet dilerlaridan xarid qilishingiz mumkin.

O't o'chirgich yukxona bo'limining chap qismida saqlanishi kerak.

O't o'chirgichdan quyidagi kabi foydalanish lozim:

1. Avtomobilni keyingi xavfsiz joyda to'xtating va darhol dvigateli o'chiring.
2. Qulfn ni bo'shatib o't o'chirgichni yukxalta ichidan chiqaring
3. O't o'chirgichni mos ravishda qo'llash uchun ko'rsatmalariga rioya qiling.

QO'SHIMCHA AKKUMULYATOR BATAREYESIDAN ISHGA TUSHIRISH

Eslatma:

Transport vositasining egasi o't o'chirgich holati uchun javobgardir, shuning uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan davrda yorliqdagi ko'rsatmalarga asosan texnik tekshirish amalga oshirilishi kerak.



⚠ OGOHLANTIRISH!


Qo'shimcha akkumulyator batareyasidan dvigatelni ishga tushirishda juda ehtiyoj bo'lib harakat qiling. Quyida keltrilgan ko'rsatmalarning birortasiga amal qilmastlik akkumulyator batareyasi portlashi va oqibatida jarohat yoki zarar yetishiga olib kelishi va ikkala avtomobilning elektr qurilmalari izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH!

U ko'zga, teriga, kiyimga va bo'yalgan yuzalarga tegib qolishidan saqlaning. Bu suyuqlik tarkibida oltingugurt kislota bo'lib, u bevosita tekkanda jarohat va zarar yetkazishi mumkin.

- Hech qachon akkumulyator batareyasiga olov yoki uchqun tushib qolishiga yo'l qo'y mang.
- Zaryadsizlangan akkumulyator batareyasi 0°C da muzlashi mumkin. Ishga tushirish simlarini ularshdan oldin muzlagan akkumulyator batareyasini muzdan eriting.

- Akkumulyator batareyasi bilan ishlaganda himoya ko'zoynagi taqing va himoya kiyimbosh kiyib oling.
- Kuchlanishi bir xil bo'lgan (12 volt) akkumulyator batareyasidan foydalaning. Uning sig'imi (Amper-soat) zaryadsizlangan akkumulyator batareyasining sig'imidan kam bo'lmasligi lozim.
- Ishga tushirish simlari klem masi izolyatsiyalangan bo'lishi va kesimi kamida 16 mm² bo'lishi kerak.
- Zaryadsizlangan akkumulyator batareyasini avtomobil elektr tarmog'idan uzmang.
- Barcha elektr sarflovchi keraksiz qurilmalarni o'chiring.
- Qo'shimcha akkumulyator batareyasidan avtomobilni o't oldirayotganda akkumulyator batareyasi ustiga engashmang.
- Bir sim qisqichi ikinchi sim qisqichiga tegishiga yo'l qo'y mang.
- Qo'shimcha akkumulyator batareyasi yordamida dvigatelni ishga tushirish jarayonida avtomobillar bir-biriga tegib turmasligi kerak.
- To'xtash tormozini torting, mexanik uzatmalar qutisini neytral holatga, avtomatik uzatmalar qutisini P holatiga o'tkazing.
- Bu jarayonda tez quvvatlashga mo'ljallangan zaryadlash qurilmalaridan foydalananmang.



Simlarni ulash tartibi:

1. Qizil simni yordamchi akkumulyator batareyasining musbat klemmasiga ulang.
2. Qizil simning ikkinchi uchini zaryadsizlangan akkumulyator batareyasining musbat klemmasiga ulang.
3. Qora simni yordamchi akkumulyator batareyasining manfiy klemmasiga ulang.
4. Qora simning ikkinchi uchini avtomobilning manfiy massa nuqtasiga, masalan, dvigatel bloki yoki dvigateli mahkamlovchi boltlardan biriga ulang. Ulash joyi zaryadsizlangan akkumulyator batareyasidan imkon qadar uzoqroq bo'lishi kerak.

DIQQAT!

Ventilyatorlar va dvigatelning boshqa harakatlanuvchi qismlari jiddiy jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin. Dvigatel ishlab turgan paytda yoki hatto o't oldirish tizimi yoqilgan bo'lganda qo'lingiz va kiyimingizni dvigatelinin harakatlanuvchi qismlaridan uzoq tuting.

Simlarni shunday o'tkazingki, ular dvigatel bo'lmasidagi aylanuvchi detallarga tegib qolmasin.



Dvigateli ishga tushirish uchun:


1. "Donor" sifatida foydalanilayotgan avtomobil dvigatelinini ishga tushiring.
2. 5 daqiqadan so'ng narigi avtomobil dvigatelinini ishga tushiring. Agar bir necha urinishlardan so'ng ham dvigatel ishga tushmasa, bu avtomobilni ta'mirlashga to'g'ri kelishi mumkin.
3. Har ikki dvigateli simlar ulangan holatida taxminan 3 daqiqqa salt yurish rejimida ishlating.
4. Simlarni uzishda yuqoridaq jarayonni teskaritartibda bajaring.

SHATAKKA OLİSH

Avtomobilni shatakka olish

Avariyaga uchragan avtomobilni tashishni talab etuvchi favqulodda holatlarda maxsus platformali evakuatorlardan foydalaning.






Ushbu avtomobilni fagat ikki g'ildiragini ko'targan holda shatakkha olishga yo'l qo'yilmaydi.

Eslatma

Avtomobilni platformaga mahkamlayotganda ehtiyoj bo'ling; quvur yo'llari va sim dastalariga shikast yetkazib qo'y mang. Avtomobilni shatakkha olganda quyidagi qoidalarga amal qiling:

- Shatakkha olingen avtomobilda yo'lovchilar bo'lmasi ligi zarur.
- Rul chamberagini quldan ochish va tormoz chiroqlari, tovushli signal va old oyna tozalagichlarni ishlatalish mumkin bo'lishi uchun o'toldirish tizimini yoqib qo'ying.
- Shatakkha olinayotgan avtomobilning to'xtash tormozini bo'shatib qo'ying va uzatmalar qutisi dastagini neytral holatga o'tkazing.

- Favqulodda holatda yoqiladigan avariya chiroqlarini yoqib qo'ying.
- Tezlikni cheklash rejimiga rioya qiling. Avtomobilni shatakkha olishda ishlataladigan halqali moslama yukxona bo'lmadagi zahira g'ildirak tagida, asboblar to'plamida saqlanadi. Bu moslama mahkamlanadigan teshik esa avtomobil old va orqa bamperlarining o'ng tomonida joylashgan.



Eslatma

Avtomobilni ko'tarishda dvigatelning pastki qismlari, jumladan, dvigatel tayanchlari, poddoni, boshqaruв dastagi kabi qismlardan tayanch sifatida foydalanish mumkin emas. Bu ularning deformatsiyalanishi va hatto shikastlanishiga, oqibatda esa, ularning funksiyalarining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Bamperdagi teshik qopqog'ini pastidan oching va uni pastga tushiring.



Halqali moslamani taqalguncha burang va uni gorizontal holatda to'xtating. Uni g'ildirak kaliti bilan burash osonroq bo'ladi.

Avtomobilni halqali moslama orqali faqat to'g'ri va qattiq qoplamalı yo'lda qisqa masofaga tortib borish mumkin.

DIQQAT!

- Avtomobilingiz yoki boshqa avtomobilni shataffa olishda halqali moslamadan foydalanmang.
- Halqali moslamani mahkamlagandan so'ng uni keskin tortmang, unga sekin-asta bir xilda kuch qo'llang.
- Avtomobilni loy yoki qum joydan yoki avtomobil o'z tortish kuchi bilan harakatlana olmaydigan shu kabi vaziyatlarda halqali

 DIQQAT!
<p>moslamadan foydalanmang.</p> <ul style="list-style-type: none"> Avtomobilni platformaga ko'tarishda ham bu halqali moslamadan foydalanmang. Avtomobil bilan sekin joydan qo'zg'aling. Keskin harakatlardan saqlaning. Tortishda zo'r berish avtomobilga zarar yetkazishi mumkin. Dvigatel ishlab turmaganda tormozlash va rulni boshqarish ko'proq kuch talab qiladi, chunki bu vatda tormozlar va rul boshqaruving gidrokuchaytirgichlari ishlamaydi.

Yordam uchun Chevrolet servis markaziga murojaat qiling.

Shataffa olish yakuniga yetganidan so'ng halqali moslamani burab bo'shatib oling.

Teshik qopqog'ini pastidan joyiga qo'yig, yopib qo'ying.

TASHQI KO'RINISHIGA QAROV

Avtomobil tashqi qismiga qarash

Bu yerda avtomobil tashqi ko'rinishiga davriy ravishda qarov tadbirlarini amalga oshirish haqidagi ma'lumot bilan tanishasiz. Kafolat taloni bo'yicha avtomobil ichki va tashqi sayqaliga texnik xizmat ko'rsatish uchun ushbu yo'riqlarga amal qilish shart hisoblanadi. Ushbu bolimda taqdim etilgan tavsiyalar avtomobilga atrof-muhit ta'siri natijasida yuzaga keladigan zarar yetish holatlarini oldini oladi.

Tashqi tomonini tozalash

Avtomobil tashqi tomonini yaxshi saqlash uchun eng qabul yechim bu uni tez-tez yuvib turish orqali toza tutishdir.

Yuvish

- Avtomobilni quyosh nurlari to'g'ri tushadigan oftob joyda yuvmang
- Yuvishdan oldin antennani (agar bo'lsa) olib qo'ying, old oyna artgichlarni ham ko'tarib qo'ying.
- So'ng, avtomobilning hamma yog'iga suv sepgan holda changlarni yuvib tushiring.
- Radiator uyalari shakli buzilishi, qiyshayib qolishi va oqibatda tizim samaradorligi pasayishini oldini olish uchun suv to'g'ri radiotorga qarata sepmang. Faqat havoli sepgichdan foydalaning.

- Agar xohlasangiz, avtomobilga yumshoq ta'sir etuvchi yuvish vositasi yoki shampun suring, so'ng, oqib turgan suv ostida gubka yoki yumshoq sochiq bilan ishqalab yuvingga. Quritishdan oldin yuvish vositasi yoki shampun qoldirlarini ketkazing.
- Oynalarda moy dog'lari qolmasligi uchun ularni alohida cho'tka yoki sochiq bilan tozalang.
- Suv va yumshoq ta'sir etuvchi yuvish vositasi yordamida artgich cho'tkalari rezinalarini tozalang.
- Moy, asfalt yoki yo'lidan uchgan loy dog'larini erituvchi yordamida ketkazish mumkin. Butun kuzovning hamma joyini erituvchi bilan yuvish tavsisiya etilmaydi.
- Yuvib bo'lgach, yaxshilab quriting.

Mumlash

Kuzovni chayib bo'lgandan so'ng, agar bo'yogda shish yoki g'urrelarni ko'rsangiz, ularni ketkazish uchun silikon mumdan foydalaning. Avtomobilning plastmassa yoki shisha qismlariga mum qo'llamang, zero ularda qoladigan dog'larni ketkazish qiyin.

Sayqallash

Aksariyat sayqallash vositalari tarkibida abraziv moddalar mavjud, shu bois, avtomobilni sayqallash uchun ixtisoslashgan sayqallash xizmatlariga murojaat qiling.

Bo'yoq qirilishi va begona materiallar

Avtomobil tashqi sirti sayqalida tosh tegishi natijasida paydo bo'lgan bo'yoq ko'chishi, bo'yoq darz ketishi yoki churuq qirilish holatlari bevosita Chevrolet dilerida yoki vakolatti ta'mirlash ustaxonasida darhol ta'mirlanishi lozim, chunki bo'yogi ochilib qolgan metal tezda zanglaydi va bu zanglash kattalashib ketishi mumkin. Agar avtomobil tashqi yuzasida moy va smola dog'lari, yo'l belgilari qoldiqlari, daraxt sharbatli, qushlar axlati, zavod mo'rilardan tutun bo'lib chiqadigan kimyovery moddalar, okean tuzi va hokazo boshqa kirlarni ko'rsangiz, ularni darhol tozalab tashlang. Moy dog'lari, smola va bo'yoq qoldiqlарини ketkazishda erituvchi moddadan foydalaning.

Kuzov tag qismi

Tuzli suv va boshqa korroziya chaqiruvchi moddalar tormoz magistrali, kuzov poli, metal panellar, ishlangan gazlarni chiqarish tizimi, kronshteynlar, qo'l tormozi trosi kabi kuzov tag qismi komponentlarinin erta zanglashi va yomon holatga kelishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, qanoqlar ostida to'planib qolgan tuproq, loy va kir o'zida namlikni to'playdi. Zarar yetishini imkon qadar kamaytirish uchun vaqtiga vaqtiga bilan ushbu qismlarni oqar suv bilan yuvingga.

Sprey qo'llash

Kuzov tag qismiga moy sprey qo'llamang. Aks holda, bu nafaqat yo'l dagi changlarni to'playdi, balki birikish joylari, qistirmalar, shlanglar va hokazolarga zarar yetkazadi.

Eshiklar

- Qufl barabanlarini kukunsimon grafit bilan moylang.
- Eshik, yuk bo'lmasi va kapot oshiq-moshiqlari va eshik stopperlarini moylang.
- Eshik pastki qismida ochiq joylar avtomobilni yuvish yoki yomg'ir natijasida tushgan suvlarning oqib ketishi uchundir. Suv to'planib qolishi va natijada zanglash sodir bo'lishini oldini olish uchun bu ochiqliklarni to'lib qolmasligi kerak.

Quyma diskli g'ildiraklar

Quyma diskli g'ildiraklar avtomobil bo'yog'iiga o'xshash himoyalanadi. Hech qachon kimyovery moddalar, sayqallash vositalari yoki abraziv moddalar qo'llamang, bular g'ildirak himoya qatlamini shikastlashi mumkin.

Dvigatel bo'lmasi**DIQQAT!**

Dvigatel bo'lmasini yuvish tavsiya etilmaydi, zero bu ayrim qismlarga zarar yetkazishi mumkin, jumladan, generator, bosh tormoz silindri baki, elektr va elektronika qismlar, elektr ulagichlar, eruvchan saqlagich bloki, radiator va boshqalar.

Kapot ostidagi belgisiga ega hech bir qismni yuvmang.

Bu u qisma katta zarar yetkazadi, buni ta'mirlashni kafolat taloni o'z ichiga olmaydi.

Zarur bo'lsa, dvigatelni namlangan latta bilan tozalang.

Avtomobil salon qismiga qarash**DIQQAT!**

Ko'plab tozalash vositalari xavfli yoki tezda alanga oluvchan bo'lishi yoki insonga jarohat yetkazishi yoki avtomobilingizga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun avtomobilingiz salonini tozalasha atseton, bo'yogni suyutiruvchi vosita, oqartirgich yoki tiklagich kabi uchuvchan erituvchi vositalardan foydalanmang. Tozalash maqsadida benzindan foydalanish qat'iyan taqilanganadi.

Eslatma

Dog'lar qotib qolmasligi uchun darhol ularni artib tashlang.

To'shamalar va jiddilar

- To'shamalar va jiddilarni tozalashda changyutkich va cho'tkalardan foydalanish yaxshi natija beradi.
- Mayda dog' va kirlarni ketkazish uchun yumshoq sovun eritmasida ho'llangan cho'tka yoki mochalkadan foydalaning.
- Kattaroq loy yoki moy dog'lарini ketkazishda, dastavval, uni yopishqoq lenta yordamida olib tashlang. So'ngra u yerni benzinda namlangan latta bilan artib tashlang.
- Maxsus erituvchi vositadan haddan ziyod ko'p foydalanmang; va jiddilar ichiga singib ketishi va ularga zarar yetkazishi mumkin.

Eshik panellari, plastmassa va vinil qismlar

- Ularni tozalash uchun avval nam lattadan foydalaning, so'ngra, quruq latta bilan artib quriting.
- Yog' yoki moy dog'lарini yumshoq sovunli eritmada namlangan latta bilan tozalang, so'ngra, toza latta bilan arting.

Konsol almashlab ulagichlari

Almashlab ulagichlar artoflarini tozalashda hech qachon tozalash vositalarini qo'llamang. Ularni tozlashda changyutkich va nam lattadan foydalaning.

Priborlar paneli

Quruq latta bilan arting. Kimyoviy vositalardan va hatto suvdan foydalanish ham bort kompyuteriga zarar yetkazishi mumkin.

Xavfsizlik kamarlar

Ularni keskir yoki o'tkir buyumlardan uzoq turing. Kamar, to'qa va mahkamlash nuqtalarini vaqt-vaqt bilan tekshirib turing.

Xavfsizlik kamarlarini toza va shay holatda saqlang. Xavfsizlik kamarlarining metall qismlari quruq saqlanishi hamda chang va kirlardan xoli bo'lishi lozim. Zarurat tug'ilganda xavfsizlik kamarining metall yuzalarini va tasmalarini yumshoq sovunli suv bilan tozalash

mumkin. Mexanizmda ortiqcha chang yoki mayda zarrachalar yo'q ekanligiga ishonch hosil qiling. Agar tizimda chang yoki mayda zarrachalar bo'lса, servis markaziga murojaat qiling. Tizimning to'g'ri ishlashini ta'minlash uchun uning qismalarini almashtirish zarur bo'lib qolishi mumkin.

Oyna ko'targichlar

- Plastmassa panellaridagi tamaki tutunidan hosil bo'lgan kirlar, chang yoki bug'larni tozalash uchun doim sovunli eritmada namlangan yumshoq charmdan foydalaning.
- Oynalarни tozalashda abraziv tozalash vositalardan foydalanganmang, chunki ular oynalarни qirib, ularga zarar yetkazishi mumkin.

Oldi panel



DIQQAT!

Avtomobil uzoq muddat quyoshda qoldirilganda priborlar paneli va qo'lqoplar qutisining ustki qismi 100°C gacha qizib ketishi mumkin. Shu sababli, bu yerlarda sigaret tutagich, magnitofon kassetalari, kompyuter disklari, kompakt disklar, quyoshda taqiladigan ko'zoynaklar va yuqori haroratida deformatsiyalanuvchan va yonuvchan boshqa buyumlarni qoldirmang. Aks holda nafaqat u buyumlar, balki avtomobilning o'ziga ham zarar yetishi mumkin.



ESLATMALAR

10

SERVIS VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

-
- UMUMIY AXBOROT 10-2
 - ESLATMALAR 10-6
 - TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI 10-3

UMUMIY AXBOROT

Ushbu bo'llim avtomobilingizdan uzoq yillar davomida muvaffaqiyatli foydalanishni kafolatlaydigan texnik xizmat ko'rsatish jadvalini belgilab beradi.

Siz avtomobilingizning tegishlicha ishlashi uchun va ushbu qo'llanmada keltirilgan tavsiyalarga muvofiq uning ishlash qobiliyatini tutib turish uchun javobgar bo'lasisiz. Aks holda avtomobildan foydalanishning kafolat muddati davomida kafolat xizmat ko'rsatilishidan mahrum bo'lasisz.

Siz xizmat ko'rsatishning tegishlicha tarzda o'tkazilishi uchun va avtomobilingizdan foydalanish uchun javobgarsiz. Siz davriy xizmat ko'rsatish reglamentiga va ushbu qo'llanmadagi ko'rsatmalarga amal qilayotganigizga ishonch hosil qiling.

Shuningdek, Siz muntazam texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilishining yozuvlari va hisobotlari saqlanishi uchun javobgarsiz. Texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilishining yozuvlari va hisobotlari foydalanish qo'llanmasi va Servis kitobchasi bilan birga, avtomobila saqlanishi kerak. Avtomobilni sotish paytida qo'llanmani uning yangi engasiga berishni unutmang.

Siz avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatishni vakolatlangan servis stansiyalarida o'tkazishingiz mumkin, ularning malakali xodimlari va texnik xizmat ko'rsatilishi barcha texnik xizmat ko'rsatish amallarining tegishli darajada bajarilishini ta'minlaydi.

Avtomobilni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish davomida faqat original ehtiyoj qismlari, foydalanish materiallari hamda diagnostika dasturlari va asboblar qo'llanishini nazorat qiling. «UzAuto MOTORS» AJ original bo'limgan ehtiyoj qismlari va foydalanish materiallari o'nratilg'an avtomobil uchun kafolat

bera olmaydi va xavfsizliginizni kafolatlay olmaydi, shuningdek ulardan foydalanish tufayli kelib chiqqan avtomobilning shikastlanishi uchun javobgar bo'lmaydi. Avtomobilga to'g'ri va mos kelmaydigan, to'liq bo'limgan yoki yetarli bo'limgan texnik xizmat ko'rsatish avtomobilini boshqarishda muammolarga olib kelishi mumkin, ularning oqibatida avtomobilning shikastlanishi, baxtsiz hodisa yoki jarohatlarni olish kelib chiqishi mumkin.

Foydalanish sharoitlari

Siz avtomobilga davriy xizmat ko'rsatish reglamentiga qat'iy rioya qilishning lozim. Servis kitobchasiida «TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI» ga qarang.

Normal foydalanish sharoitlari

Avtomobilning normal foydalanish sharoitlari — bu avtomobilni boshqarish odatdag'i, har kungi foydalanish rejimida amalga oshiriladigan sharoitlar hisoblanadi.

Bunday sharoitlarda Siz avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni avtomobilga davriy xizmat ko'rsatishning odatdag'i reglamentiga amal qilgan holda o'tkazishingiz mumkin.

Og'ir foydalanish sharoitlari

Agar avtomobil quyidagi sharoitlarning istalgan birida foydalanilsa, bunday sharoitlar og'ir hisoblanadi, va avtomobilga davriy xizmat ko'rsatish reglamentining amallari tezroq o'tkazilishi lozim bo'ladi. Servis kitobchasiida «TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI» ga qarang.

- 10 km dan kamroq bo'lgan qisqa masofaga tez-tez yurishi.
- Avtomobilning uzoq vaqt turib qolishi va/yoki avtomobilning past tezlikda, tez-tez to'xtash rejimida yurishi.
- Avtomobilni chang ko'p bo'lgan joylarda boshqarish.
- Avtomobilni tepalikli joylarda va tog'li joylarda boshqarish.
- Tirkamani shatakkha olib yurishi.
- Avtomobilni shahar rejimida, atrof muhitning harorati 32°C yoki undan yuqori bo'lganda boshqarish.
- Avtomobildan taksi, militsiya mashinasi yoki yuk tashuvchi sifatida foydalanish.
- Atrof muhitning harorati 0°C dan past bo'lganda dvigatelni tez-tez ishga tushirish.
- Avtomobildan tegishli bo'limgan xususiyatlari yonilg'i bilan, past sifatlari yonilg'i bilan val/yoki past oktan sonli yonilg'i bilan foydalanish. «TAVSIYA ETILADIGAN YONILG'I» ga qarang.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjalarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lisingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'li, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Generator, kondisionerning kompressori va RBG nasosining yuritmasi tasmasi		I	I	I	I	I	R	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatelning moyi va moy filtri	(1) (2) (8)	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
Sovutish, yonilg'i ta'minot, moylash va konditsionirlash tizimining germetikligi (*)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatelning sovituvchi suyuqligi	(2) (3)	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Yonilg'i filtri	(1) (2)		R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R
Yonilg'i naylari va ulanishlari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Havo tozalagichning filtrlovchi elementi (IYD havo filtri)	(1) (2)	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R
O't oldirish svechalari	(2)	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I	R
EVAP bachok (yonilg'i bug'lanishini tutib qolish tizimi) va bug' naylari		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
PCV tizimi (karterni shamollatishni boshqarish tizimi)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(3) Har bir 150 000 km. yoki 5 yil dan keyin almashtirish.

(8) Agar dvigatel moyining qoldiq umrining ko'rsatkichi mayjud bo'lsa, uning haqiqiy ko'rsatkichlarga foydalanish sharoitlariga qarab rioya qilish kerak. Dvigatel moyini o'zgartirish intervallari qisqartirilishi mumkin;

* Mazkur qo'llanmadagi yulduzcha bilan asosiy butlanishga kirmaydigan va Sizning avtomobilingizda bo'lmasisligi ham mumkin bo'lgan jihozlar belgilangan.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjalarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lisingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'l, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81	
Gaz taqsimlash mexanizmining yuritma zarjiri		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Salonning havo filtri (havo konditsioneri) (*)	(1)	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R
Ishlangan gazlarni chiqarish tizimi va uni mahkamlash		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormoz suyuqligi (ilashish muftasi va tormoz tizimi)	(1) (2) (4)	I	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I
Oldingi tormoz kolodkalari va diskлari	(5)	I	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I
Orqa tormoz kolodkalari va diskлari, yoki barabanlari va ustki qoplamlari	(5)	I	I	I	I	I	I	I	I	R	I	I	I	I	I
To'xtab turish tormozi		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormozlarning naylari, ularning ulanishlari (shu jumladan tormoz kuchaytirgichi)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Dvigatel, harakat qismi, shassi va kuzovning rezbalni ularishlarini tortib mahkamlash		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Mexanik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(2)														Har 105 000 km
Avtomatik uzatmalar qutisining transmissiya moyi	(1) (2)														Quyidagi (6) havolaga qarang

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanim suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanim qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalinish sharoitlari bo'limga qarang;

(2) Foydalanim qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limga qarang;

(4) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa, har bir 15 000 km dan keyin yoki bir yilda s'ong foydalanim materiallarini almashtirish kerak bo'ladi:

- tepalikli yoki tog'li joylarda yurish yoki

- tirkama bilan tez-tez yurish;

(5) Og'ir sharoitlarda foydalanim ganda, tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi: qisqa masofalarga yurish, uzoq vaqt davomida dvigateli salt ishlash rejimida yurigizish, tez-tez yo'lda tibbandlikda tiqilib qolish sharoitida past tezlikda yurish, tuproqli yo'llarda yurish.

(6) Avtomatik uzatmalar qutisida moyni almashtirish quyidagi sharoitlarda foydalanimshda:

- normal sharoitlarda har bir 140 000 km dan keyin;

- og'ir sharoitlarda har bir 70 000 km dan keyin talab etiladi;

* Mazkur qo'llanmadagi yulduzcha bilan asosiy butlanishga kirmaydigan va Sizning avtomobilingizda bo'lmasisligi ham mumkin bo'lgan jihozlar belgilangan.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjalarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iiga ega bo'lisingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'lli yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiha qarab, belgilanadi	O'tilgan yo'lli, km (x 1000)	2,5	10	17,5	25	32,5	40	47,5	55	62,5	70	77,5	85	92,5	100
	Xizmat qilish muddati, oylar	3	9	15	21	27	33	39	45	51	57	63	69	75	81
Shinalarning holati va shinalardagi ichki bosim	Quyidagi (7) havolaga qarang														
G'ildiraklarni o'rnatish burchaklari	Tekshirish, normadan chetlanishlar mavjud bo'lsa														
Rul g'ildiragi va rul mexanizmi															
Rul gidrokuchaytirgichining ish suyuqligi, naylar va ularnish naylari (2)															
Xavfsizlik tasmalari, ularni kuzovga mahkamlash to'qalari va tugunlari															
Qulflar, oshiq-moshiqlar, kapot qulfini moylash, kuzovni tekshirish															
Avtomobilning diagnostikasi, ko'rsatkichlarini sozlash															
Elektr jihozlar, faralar, tozalagichlar, yuvish moslamalari, AKBni tekshirish															
Ilashish muftasi va tormoz pedallarining erkin yurishi															
Yonilg'i bakini tekshirish va tozalash															

Beglilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi yoki Foydalanish qo'llanmasida 14-betidagi Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limga qarang;

(7) Shinalarning holatini dvigatelni ishga tushirishdan avval, shinalardagi havo bosimini esa-yonilg'i bakiga har bir yonilg'i quyishda yoki, hech bo'lmasa, oyda bir marta (manometrdan foydalanib) tekshirish kerak.



ESLATMALAR

11

TEXNIK MA'LUMOT

-
- AVTOMOBIL IDENTIFIKATSIYASI 11-2
 - AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI 11-3
 - MOYLASH KARTASI 11-11
 - ESLATMALAR 11-12

AVTOMOBIL IDENTIFIKATSIYASI

Avtomobil identifikatsiya raqami (VIN)


Shassi raqami ko'rsatilgan joy



- Polda, old yo'lovchi o'rindig'ining o'ng tarafida, qopqoq tagida.



- Old oynada, orqa oynada va yon oynalarda.



- Dvigatel bo'lmasida.

Pasport tablochasi

Pasport tablochasi o'ng old eshik ustunida joylashgan.



AVTOBIL MA'LUMOTLARI**Dvigatelning ko'rsatkichlari**

Dvigatel	Benzinli 1.5 l.
Yonilg'i	Benzin
Yonilgining oktan soni	
Tavsiya etiladigan	91
Yo'l qo'yiladigan	91 va undan ortiq
Silindrlar soni	4 Qatorli
Podshipniklar soni	5
Ketma-ketlik o't oldirish	1 - 3 - 4 - 2
Silindrning ichki diametri	74,71 MM
Silindrning yurishi	84,7 MM
Unumli ish hajmi	1485 cm ³
Harakatsiz ishlash	MU
	750 ayl/min ±50 (konditsioner o'chir.)
AU	750 ayl/min ±50 (konditsioner yoql.)
	750 ayl/min ±50 (konditsioner o'chir.)
Siqish darajasi	750 ayl/min ±50 (konditsioner yoql.)
	10,2 : 1
Maksimal quvvati	106 CV (78 kVt) 5900 ayl/min bo'lganda
Maksimal aylanish momenti	141 N·m (14,4 kGs·m) 3800 ayl/min bo'lganda
Ruxsat etilgan maksimal tezligi (dvigatel bilan boshqarish)	MU: 6,500 ayl/min AU: 6,500 ayl/min (3,000 ayl/min - N/P/R holatida)

Elektr tizimi

Akkumulyator batareyasi	12 B 50 A-s
Generator	100 A
O't oldirish svechalari	(Nikel qotishma) Federal Mogul
Elektrodlar orasidagi oraliq	0,8 – 0,9 mm

Uzatmalar qutisi

Uzatma	MU	AU
1-uzatma	3,67 : 1	4,449 : 1
2-uzatma	1,85 : 1	2,908 : 1
3-uzatma	1,24 : 1	1,893 : 1
4-uzatma	0,95 : 1	1,446 : 1
5-uzatma	0,76 : 1	1 : 1
6-uzatma	–	0,742 : 1
Orqaga yurish uzatmasi	3,55 : 1	2,871 : 1
Yetaklovchi ko'priklar uzatishlari soni	4,29 : 1	3,72 : 1

Uzatmalarni o'zgaritish tavsiya etiladigan tezliklar

Uzatmalar	v
1 chi – 2 chi	15 Km/s
2 chi – 3 chi	35 Km/s
3 chi – 4 chi	50 Km/s
4 chi – 5 chi	70 Km/s

Tormoz tizimi

Turi	Gidravlik, diagonal bo'linuvchi ikki konturli tormoz tizimi
Old	Qalquvchi supportli disk tormoz
Orqa	Barabanli tormoz tizimi
Suyuqlik	DOT 4, intensiv foydalanish uchun
Parkovka tormozi	Orqa ishchi tormoz

Rul boshqaruvining geometriyasи

G'ilriaklar og'ishi	Old	-1,64° dan -0,14° gacha yoki -1°38' dan -0°8' gach
	Orqa	-1,50° dan -0,5° gacha yoki -1°30' dan -0°30'gacha
Nishablik	Old	3,61° dan 5,11° gacha yoki 3°36' dan 5°6'gacha
	Orqa	-
G'ildiraklar kesma og'ishi	Old	- 0,75° dan 0,75° gacha yoki - 0°45' dan 0°45'gacha
	Orqa	- 0,75° dan 0,75° gacha yoki - 0°45' dan 0°45'gacha
Siljitim	Old	0,2° dan 0,6° gacha yoki 0°12' dan 0°36' gacha
	Orqa	-0,06° dan 0,94° gacha yoki -0°3'36" dan 0°56'24" gacha
Aylanish diametri		10,88 m


Avtomobil vazni

Avtomobilning vazni (kg) ^{1,2}			MU	AU
To'liq vazni	LS	Yagona versiya	1590	—
		Asosiy	1590	—
	LT	To'liq	1590	—
		Asosiy	1590	1620
	LTZ	To'liq	1590	1620
O'qqa (oldingi) to'liq yuklanish	LS	Yagona versiya	820	—
		Asosiy	820	—
	LT	To'liq	820	—
		Asosiy	820	860
	LTZ	To'liq	820	860
O'qqa (orqa) to'liq yuklanish	LS	Yagona versiya	790	—
		Asosiy	790	—
	LT	To'liq	790	—
		Asosiy	790	790
	LTZ	To'liq	790	790

Avtomobilning vazni (kg) ^{1,2}			MU	AU
Yurishga hozirlangan holdagi vazni (To'liq)	LS	Yagona versiya	1097	-
		Asosiy	1115	-
	LT	To'liq	1134	-
		Asosiy	1134	1157
	LTZ	To'liq	1138	1161
Yurishga hozirlangan holdagi vazni (old)	LS	Yagona versiya	669	-
		Asosiy	680	-
	LT	To'liq	692	-
		Asosiy	692	717
	LTZ	To'liq	694	720
Yurishga hozirlangan holdagi vazni (orqa)	LS	Yagona versiya	428	-
		Asosiy	435	-
	LT	To'liq	442	-
		Asosiy	442	440
	LTZ	To'liq	444	445

Yuk ko'tarish qobiliyati	LS	Yagona versiya	493	-
	LT	Asosiy	475	-
		To'liq	456	-
	LTZ	Asosiy	456	463
		To'liq	452	459

1 - MU - mexanik uzatma.
2 - AU - Avtomatik uzatma.


Avtomobil o'lchamlari

Keltirilgan ma'lumotlar 1,5L benzinli dvigatel uchun

A. Tomigacha bo'lgan umumiyl balandlik:

- Mexanik uzatma – 1516 mm
- Avtomat uzatma – 1520 MM

- B. G'ildirak izi eni:
- Old g'ildirak - 1504 mm
 - Orqa g'ildirak - 1509 mm
 - C. Umumiy eni – 1735 mm
 - D. Umumiy eni (ortni ko'rsatuvchi o'ng va chap ko'zgu orasidagi masofa) - 2005 mm



E. Old g'ildiraklar markazidan old bambergacha bo'lgan masofa - 906 mm

F. Old va orqa g'ildiraklar o'rtasidagi masofa – 2620 mm

G. Orqa g'ildirak markazidan orqa bambergacha bo'lgan masofa - 954 mm

H. Umumiy uzunligi – 4479 mm

Hajmlari va texnik xarakteristikaları**Moylash materiallari va suyuqliklar hajmi**

Motor moyini almashtirish (filtrni almashtirish bilan birga)	3,75 l
Motor moyini almashtirish (filtrni almashtirmasdan)	3,50 l
Gidravlik kuchaytirgichli rul boshqaruvi tizimi	0,90 l
Mexanik uzatmalar qutisi, asosiy uzatma bilan birga	2,00 l
Avtomatik uzatmalar qutisi, birinchi quyish	7,80 l
Sovitish tizimi	5,40 l
Tormoz tizimi	MU (mexanik UQ) 0,670 l AU (avtomatik UQ) 0,620 l
Oyna yuvgich suyuqligi bakchasi	2 l
Yonilg'i baki	47 l
Kondisjoner uchun sovitish agenti	450 g

Shinalar bosimi

Shina		
195/65 R15 91H	3 kishigacha	Old g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
		Orqa g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
	To'liq yuklama	Old g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
		Orqa g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
185/75 R14 89T	3 kishigacha	Old g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
		Orqa g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
	To'liq yuklama	Old g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
		Orqa g'ildiraklar: 35 funt/kv.dyuym (240kPa)
Vaqtinchalik zahira shina:		35 funt/kv.dyuym (240kPa)

psi = funt-kuch/kv.dyuym

**DIQQAT!**

Agar avtomobillar vaqtinchalik zahira shina (asosiy shinalardan farq qiladigan) bilan jihozlangan bo'lsa, bu shinalarda 100 kilometrdan ortiq yurmaslik va tezlikni 80 km/soatdan oshhirmslik tavsiya etiladi. Shuningdek, ularning o'chami asosiy shinalardan farq qilgani uchun shinalarning o'rnini almashtirayotganda ulardan foydalanmaslik lozim.

MOYLASH KARTASI

Tavsiya etiladigan suyuqliklar va moylash materiallari - tekshirish va almashtirish

Nomi	Suyuqligi	Sathining nazorati	Almashtirish
Dvigatel 1.5 benzinli	GM Dexos SAE 0W20 moyi	Moyining sathini har bir yurishdan avval tekshiring.	Har bir 7 500 km (yoki 6 oy), qaysi biri tezroq kelishiga qarab.
Mexanik transmissiya (Y4M SHD)	SAE 75W85 transmissiya moyi, egri tishli uzatmalar uchun, qizil rangli.	Har bir TXK da.	Har 105 000 km
Avtomatik transmissiya	Transmissiya moyi Dexron VI ®	Agar suyuqligining oqib ketishi belgilari bo'lsa.	Har bir 70 000 km (og'ir sharoitda) yoki 140 000 km o'tganda.
Tormoz tizimi	Tormoz suyuqligi DOT 4.	Har bir TXK da.	Har 2 yilda majburiy bajariladi.
Rul gidrokuchaytirgichining tizimi	Dexron VI ® suyuqligi	Har bir TXK da.	Talab etilmaydi.
Dvigatelning sovutish tizimi	DEXCOOL sovituvchi suyuqligining konsentrati va suv aralashmasi. Konsentrat va suv nisbati 35% - 50%.	Har haftada.	Har bir 150 000 km yoki 5 yil o'tganda.
Avtomobil salonining havosini sovutish tizimi	Sovutish agenti R134a	Rasmiy dilerda tekshirish. Zarur bo'lganda - yonilg'i quyish.	Talab etilmaydi.



ESLATMALAR